19. Utayeva, F., & Muxamedjonova, M. (2024). TO 'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O 'RNI. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 49-49.

УДК: 94(076.1)

**БОБОДЕҲҚОН ВА У БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТ ВА  
МАРОСИМЛАР( XIX аср охири XX аср бошлари)**

*Jumaeva Nilufar Akhmatovna - BuxDU*  
*Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi*  
*katta o'qituvchisi*  
*Telefon raqam: +998 99 455 30 77*

**Annotatsiya:** Maqolada Buxoro vohasi aholisining XIX asr oxiri XX asr boshlarida dehqonchilik bilan bog'liq urf – odat va marosimlari o'rganilib, milliy qadriyatlarimizda ularga bo'lgan hurmat va e'tibor juda yuqori ekanligi Sharq allomalarining qarashlari asosida tahlil qilib beriladi. Hozirda ziroatchilikning jamiyatdagi mavqeini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinib, bu islohotlarning samaradorligi ko'p jihatdan milliy qadriyatlarimizga bog'liqligi ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** urf-odat, kult, dehqonchilik, farishtalar, Navro'z bayrami, otashparastlik, hosildorlik, mifologiya, olov

**БОБОДЕХАН И СВЯЗАННЫЕ С НИМ ОБЫЧАИ И ЦЕРЕМОНИИ**  
(конец XIX века, начало XX века)

Джумаева Нилуфар Ахматовна  
старший преподаватель кафедры археологии и истории  
Бухарского государственного университета

**Аннотация:** В статье исследуются обычаи и обряды, связанные с земледелием жителей Бухарского оазиса в конце 19-начале 20 веков, и уважение и внимание к ним очень высоки в наших национальных ценностях, основанных на взглядах восточных ученых. В настоящее время анализируются реформы, проводимые для улучшения положения сельского хозяйства в обществе, и показано, что эффективность этих реформ во многом зависит от наших национальных ценностей.

**Ключевые слова:** обычаи, культ, земледелие, ангелы, праздник Навруз, поклонение огню, урожайность, мифология, огонь

**BOBODEKHAN AND CUSTOMS AND CEREMONIES RELATED TO IT**  
(end of the 19th century, beginning of the 20th century)

Jumaeva Nilufar Akhmatovna  
Senior lecturer of the Department of Archeology and  
History of Bukhara State University

**Abstract:** In the article, the customs and rituals related to farming of the inhabitants of the Bukhara oasis in the late 19th and early 20th centuries are studied, and the respect and attention to them is very high in our national values is analyzed

based on the views of the scholars of the East. Currently, the reforms implemented to improve the status of agriculture in society are analyzed, and it is shown that the effectiveness of these reforms largely depends on our national values.

**Key words:** Tradition, cult, farming, angels, Navruz holiday, fire-worshipping, harvest, mythology, fire

### KIRISH (INTRODUCTION)

Ziroatchilik bilan bog'liq bo'lgan xalq urf-odatları va marosimlar dono xalqimiz tafakkurining g'aroyib mo'jalaridan biridir. Ajdodlarimiz asrlar davomida ularga amal qilish bilan birga o'ziga xos qoidalar, duolar, aytimlar va alomatlarıni ham yaratishgan. Ijtimoiy kundalik hayotda katta o'rin tutgan bu marosimlarda, avvalo ziroatchilik bilan bog'liq udum va marosimlar o'zining kelib chiqish ildizları islomgacha bo'lgan tabiat hodisalarini ilohiylashtirish, osmon va yer ilohlariga sig'inish bilan bog'liq bo'lgan.

Bajarilayotgan har bir irim, urf-odat zamirida voha ahlining ziroatchilik bilan bog'liq asriy hayotiy tajribaları, ziyraklik bilan uzluksiz kuzatishları jamlangan bo'lib, ularning tub mohiyatiga e'tibor berilsa, ezgulikning hayotbaxsh nurlariga talpinish, dehqonchilikda samarali hosil yetishtirish, yuz berishi mumkin bo'lgan ko'ngilsizliklardan ogoh etish, halol mehnatni rag'batlantirish tabiat ne'matlarını ko'paytirish va avaylab asrashdan iborat bo'lgan.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida Buxoro xonligiga qarashli barcha tumanlarida yashovchi aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida patriarxal – urug'chilik munosabatlari an'analari hukm surardi. Bu davrda Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olishi o'zbek xalqi hayotidagi muhim ijtimoiy-siyosiy va madaniy muammolarni yoppasiga yuzaga chiqardi. Ijtimoiy taraqqiyotning mana shu bosqichi dehqon va ziroatchilik bilan bog'liq bo'lgan bir qancha rasm-rusumlarning xarakterini belgilab berdi. Mavzuga doir adabiyotlarıni quyidagi guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Dala yozuvları.
2. Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar.
3. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nashr yetilgan tadqiqotlar.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi.

### TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Ziroatchilik bilan bog'liq xalq urf-odatları va marosimları dono xalqimiz tafakkurining g'aroyib mo'jalaridan biridir. Ajdodlarimiz asrlar davomida ularga amal qilish bilan birga ularga taalluqli qoidalar, duolar, aytimlar va alomatlarıni ham yaratishgan.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Buxoro xonligi vo'xasi tumanlarida yashovchi aholining ijtimoiy – iqtisodiy hayotida patriarxal munosabatlar hukm surardi. Bu davrda Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olishi o'zbek xalqi hayotidagi muhim ijtimoiy-siyosiy va madaniy muammolarni yoppasiga yuzaga chiqardi. Ijtimoiy taraqqiyotning mana shu bosqichi dehqon va ziroatchilik bilan bog'liq bo'lgan bir qancha rasm-rusumlarning xarakterini belgilab berdi. Mavzuga doir adabiyotlarıni quyidagi guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

зироатчилик билан боғлиқ бўлган бир канча расм – русумларнинг характерини белгилаб берди.

Қадимдан Ўрта Осиё халқпарига алоқадор бўлган деҳқончиликка оид расм – русумлар, иримлар қанча оғир шароит бўлишига қарамасдан унутилмади. Воҳада ҳам бу удумлар халқнинг яшаш ва меҳнат тарзи билан боғланиб ўтказиб келинган. Айниқса, Ўрта Осиёдаги бошқа халқлар каби зироатчилик хомийси – Бободехқон култи<sup>1</sup> ва у билан боғлиқ урф-одатлар кенг тарқалган.

Ахборотчиларимизнинг маълумотларидан шу нарса маълумки, деҳқончиликнинг хомийси Бободехқон ҳалол меҳнат билан кун кўрувчи, бошқалар ҳақидан ҳазар қилувчи деҳқонларга хомийлик қилувчи, уларнинг меҳнат унумига унум қўшувчи пир ҳисобланган. У айна сахар пайтида деҳқонлар кўтарган хирмонларда пайдо бўлиб, тонг сахар турган Деҳқонларнинг хирмонига барака улашиб уларнинг етиштирган ҳосилини тўкилиб, сочилиб исроф бўлишдан асрар эмиш. Қадимги ёзма манбаларни кузатиш жараёнида Бободехқон образи билан боғлиқ бир маълумотга дуч келдик. Носируддин Бурҳониддин Рабғузийнинг асарида<sup>2</sup> зироатчиликнинг Хомийси Бободехқон Одам тимсолрша ўз аксини топади.

Асардаги «Қиссаи Одам сафий алайҳиссалом» ҳикоятида агар Оллоҳ Жаброил, Исрофил, Микоил, Азроил каби фаришталарни яратмаганда, олам бунчалар ранг – баранг ривожланмаган бўларди, дейилади. Қачонки бирор нарсани яратиш зарур бўлса ёхуд бошқа бир ишни амалга оширмакчи бўлса, шу фаришталар хизматидан фойдаланади. Ахборотчиларимизнинг фикрига қараганда, яхшилик фаришталари ерга тушиб деҳқонларга, чорвадорларга ехуд бошқа касб эгаларига яхшилик қилмакчи бўлсалар, Хўжаи Хизр, Бободехқон, Деҳқонбобо суратида пайдо бўлишар экан.

Кексаларнинг айтишича, фаришталар осмон тоқида яшашади. Уларни ҳеч ким кўрмайди, фақатгина кўнгил кўзи билан илғаш мумкин. Шу боисдан ҳам улар ҳеч қутилмаган ерда намоён бўларкан.

Юқорида номи эслатилган Рабғузийнинг ҳикоятидан шу нарса аён бўладики, «Одам Ҳиндустонда Анжалус отлиғ ерда Сарандиб тоғинга тушди. Ҳавво Жадда тоғинга тушди. Одамнинг ёши томган ерда ўт – ем, ачиғ – чучук дорулар бўлди. Ҳаввонинг кўзи ёши томган ерда уд<sup>3</sup>, каранфул<sup>4</sup>, сунбул, хино, ўсма унди».<sup>5</sup> Демак, ерда пайдо бўлган ўт – ўланлар, хайвонлар инсон (Одамнинг) мўъжизаси туфайли рўй берган экан. Тилга олинган Одам ато ҳам, Жаброил, Исрофил, Мекоил, Исроил каби фаришталарнинг ҳар бири инсон турмушига, деҳқончилик ишларига аралашishi мумкин экан. Улар бир – бирини тўлдириб туради.

<sup>1</sup>Бободехқон култи Помир тожикларида ҳам мавжуд бўлган. Бу тўғрисида батафсилроқ қаранг: И.Мухиддинов. Реликты<sup>1</sup> доисламских обмчаев и обрядов у земледельцев западного Памира. -Душанбе. 1989

<sup>2</sup>Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Киссаси Рабғузий. 1-кито-Б. -Т.: Ёзувчи. 1990. -Б. 25-26

<sup>3</sup>Уд- сигир

<sup>4</sup>Қаранфул - қалампирмунчок

<sup>5</sup>Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Кўрсатгилган асар, -Б. 26.



Одам ато ва Момо Ҳаво ерга қувилгач. уларнинг яшашп учун шароит зарур эди. Улар ерга тушгач, қоринлари оч қолади. Шунда Жаброил ёрдамга келиб, уларга хўкиз, буғдой олиб келади<sup>6</sup>. Одамга ер ҳайдашни, уруғ сепиши, ўсимликни парвариш қилишни, ғалла ўришни, янчишни, ун қилишни ва пиширишни ўргатади.

Демак, Одам деҳқончиликда зарур бўлган барча қуроолларнинг, маданий ўсимликларнинг ижодкори – пиридир . Кексалар айтгандек, барча ишлар – деҳқончилик ҳам, чорвачилик ҳам, ҳунармандчилик ҳам Одамдан мерос қолган. Одам – Бободехқон кўзга кўринмайди, аммо унга қурбонлик қилиб мурожаат қилинганда кишиларга ёрдам кўрсатади, экинларга ривож бериб, балоқазолардан асрайди, деган тасаввурлар юзага келган.

Бободехқон тимсолини зироатчилар битта суратда тасаввур қилишолмайди. Шунингдек, фақат Бободехқонга бағишланган алоҳида маросим ҳам йўқ. Бободехқон турли маросимларда тилга олинади. унинг рамзи сифатида кўп ўринларда соқолига оқ тушган кекса киши иш бажаради. Куз ёки эрта баҳорда далага кўш тушганда, ариқларни тозалашда, уруғ экишда, ғалла ўришда, хирмондаги донни совуришда биринчи ишни бадавлат, бола – чақаси , неvara – чевараси кўп, иши доим олдинга кетадиган тадбиркор, обрўли киши бошлаб берган.<sup>7</sup> Деҳқончиликдаги ҳар қандай ишнинг бошламасида Бободехқон рамзидага кекса отахонлар туришган. Юқоридаги фикрларни Н.А.Кисляков,<sup>8</sup> К.А.Богомолова,<sup>9</sup> М.Р.Рахимов,<sup>10</sup> М.С.Андреев,<sup>11</sup> Л.Ф.Моногарова<sup>12</sup> каби элшунос олимларнинг маълумотлари ҳам тасдиқдайди.

---

<sup>6</sup>«Одамнинг Қорни явлоқ очди. Жаброил мавло ёрлиқи бирла икки уй келтурди ужомҳдин, бири қизил, бири қора. Жаброил ужомҳдин уч увун буғдой келтурди, уч хисса қили. Иккиси санга, бири Ҳаввога- теди. Текма бир увун юз минг снр эрди. Уя уйлар ужомҳдин чикмишингга йиғлаштилар, кўхлари ешинднн кўноқ бўлди. Илгарудин сидилар нахуд унди, кейнинднн солған ёсмук унди. Жаброил уч увун буғдойни ушоқ синдурди эрса телим Одам Ҳавво таридилар. Одам тариған бутдой учди, Ҳавво тариған арпа унди. Ул соатда ўқ унди. Одам айди: «Енму?» Жаброил айди: «Йўқ, тиксун». Тикди. «Енму?» Айди: «Ўрғил» Ўрди. Айди: «Енму?» Айди: «Янчғил». Янчди. Айди: «Енму?» Айди: «Совурғил». Совурди. Айди: «Енму?» Айди: «Угутғил». Угутди. Айди: «Енму?» Айди: «Йўғурғил». Йўғурди. Айди: «Енму?» Айди: «Пиширғул». Айди: «Енму?»... Ёрлиғ келди: Эй Одам. куннинг икки улуши борди. бир улуши колди. Сабир килғил. кун ботсун. Бу кун рўза тутғил. Ул кун Ошур куни эрди. Ман санинг бирла уч иш Қилайин, сендан хушнуд бышайин, ёзуКингни ёрлиқайн, ужомҳга кивурайин. Қачон Одам ул кўмочни егали ўғиради эрса Жаброил келди. Ул кўмочни уч улуш Қилдилар. Икки улушни Одамга берди, бир улушни Ҳаввога берди. Анинг учун эрга эрга икки улуш, хотунға бир улуш тегди. (Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Кўрсатилган асар. 27-бет)

<sup>7</sup>Дала ёзувлари, 1998 йил. Яккабоғ тумани, Эсат қишлоғи.

<sup>8</sup>Кисляков Н.А. Патриархально-феодалъне отношение среди осехюго сельского населения Бухарского ханства в конце XIX - начала XX вв//ТИЭ. -М-Л. 1962. – С.

<sup>9</sup>Богомолова К.А. Следь древнего культа воды I у таджиков//Изв.отд. общественных наук. АН Тадж ССР. Сталинабад, 1952. - Выш. 2. - С. 19-21.

<sup>10</sup>Рахимов М.Р. Земледелие бассейна р. Хингоу в дореволушонньш период. // Труды АН Тадж ССР. -Сталинабад, 1957. Т. 43. - С. 7.

<sup>11</sup>Андреев М.С. Таджики долиньм Хуф. Сталинабад, 1953. -Выш.1. - С. 1 1-12.

<sup>12</sup>Моногарова Л.Ф. Материали по этнографии ёзгулумцев//ТИЭ. и.с.. 1959. т.Х1. - Выш. VII - С. 12

Элшунос олим И.Муҳиддиновнинг ёзишича, Бухоро воҳасидаги барча қишлоқларда Бободехқон вазифасини «файгунай» ёки «шогун» деб аталган энг ҳурматли, тажрибали қария бажарган. Хинго дарёси ҳавзасидаги тожикларуни «шавгун», Рушон, Бартанг ва Хуфда «хушпайқадам» дейишган.<sup>13</sup> Уларнинг вазифаси авлоддан – авлодга ўтган. М.С.Андреев ҳам юқоридаги фикрларни тасдиқлаб, ҳар қайси «қутлуғ қадам» (хушпойқадам) ёки «омад келтирувчи») авлоддан авлодга ёхуд отадан ўғилга ўтган, қўли енгил бўлган одам томонидан бажарилган, у зироатчилик маросимида аниқ бир вазифани бажарган: биринчи қўш чиқариш – шудгорлашда, уруғ сочишда, ғалла ўриш ва суғоришда бош бўлган, шунингдек, етти кун мобайнида эркаларнинг аёллар машғул бўлган ёзги яйловга боришини тақиклаган.

Шуни таъкидлаш керакки, ахборотчиларимизнинг хабарларига караганда, Бухоро воҳасида Бободехқон тимсолини бажарувчи шахслар олдиндан белгилаб қўйилмаган, яъни бу вазифани хамиша бир киши бажармаган. Шу боисдан ҳам бу вазифа отадан ўғилга қолдирилмаган.<sup>14</sup> Жондор туманидага Бухорча қишлоғида, агар қишлоқда эшон киши яшаса, кўпроқ Бободехқон вазифасини ўша киши бажарган. Агар эшон оламдан ўтса, унинг ўрнини катта ўғилларидан бири бажарган.<sup>15</sup>

Ўрта Осиёнинг бошқа ҳудудларидаги сингари Бухоро воҳасида ҳам Бободехқон тимсолини нуроний чол қиёфасида тасаввур қилишган. Жондор туманида қўш чиқариш, ғалла ўрими, хирмон янчиш маросимларида нуроний чол иштирок этолмай қолса, бу вазифани даврадаги энг еши катта киши бажарган. У кишининг ёши 50, 55, 60 да ҳам бўлиши мумкин экан.<sup>16</sup>

Қорақўл туманида илм эгаси қишлоқ мулласи ехуд унинг ўғилларидан бири ҳам маросим чоғида «Куръон»дан оятлар ўқиб дуо қилиши, ишни эса кексароқ киши бошлаб бериши мумкин. дейишар экан.<sup>17</sup> Юқоридаги маълумотлар замирида Бободехқон тимсолида бир неча хил мифологик дерсонажларни тасаввур қилиш анъанаси мавжудлигидан далолат беради. Ислом дини пайдо бўлгандан сўнг яратилган «Нурнома» мажмуасининг «Рисолаи деҳқон» бобида «Одам алайҳиссаломдин то жаноб расулиллоҳ Саллоллоҳу алайҳи васалламнинг саодатларигача 7777 деҳқон ўтибдурлар. Ҳаммалари оқил ва доно ва касб – корига мувофиқ рисола ва соҳиб дуо эдилар»<sup>18</sup> дейилади. Балки, «Нурнома»нинг эл орасида тарқалиши зироатчилар тасаввуридаги Бободехқон тимсолининг шаклланишига асос бўлган бўлиши ҳам мумкин.

Деҳқончилик билан шуғулланадиган аҳоли ҳосилнинг миқдорини табиатга ва ундаги сеҳрли (магик) кучларга бағишлаган. Баъзан экинларнинг ривожини паст бўлиб, ҳосил кам бўлса ва бу ҳодиса икки – уч қайтарилса бундай ерга одамлар салбий назар билан қарашган. Гиёҳ унмайдиган ёки кам ҳосилли пайкалларни

<sup>13</sup>Муҳиддинов И.Реликтм доисламских обучаев и обрядов у земледельцев западного Памира (XIX-началор XX в). -Душанбе, 1989. -С. 11.

<sup>14</sup>Дала ёзувлари, 1996 йил. Жондор тумани, Бухорча қишлоғи.

<sup>15</sup>Дала ёзувлари, 1997 йил. Жондор тумани, Беклар қишлоғи.

<sup>16</sup>Дала ёзувлари, 1996 йил. Жондор тумани, Бухорча қишлоғи.

<sup>17</sup>«Нурнома» мажмуаси. -Т., 1991. -Б. 32.

<sup>18</sup>«Нурнома» мажмуаси. -Т., 1991. -Б. 32.

«ит теккан ер» (инс – жинс теккан маъносида), «худо қарғаган ер» деб номлашган.<sup>19</sup>

Этнограф олим Г.П.Снесаревнинг маълумотларига қараганда хоразмликлар ўлган одамнинг жасади теккан ерни нопок, деб биладилар. Агар экин экиладиган ерда одам жасади ёки унинг суяклари топилса, бу жой ҳаром ҳисобланган. Бундай ерни беш марта суғоргандан кейингина экин экишган. Айрим жойларда эса бундай ерларнинг атрофини уват олиб ўраб қўйишган ва 2 – 3 йил давомида суғормаганлар, экин ҳам экмаганлар.<sup>20</sup>

Деҳқонлар баъзида серҳосил ерларга ўзгача назар бплан қарашган. Жондор туманининг Беклар қишлоғи четидаги «Қалъа» деган жойни ажриқ ва турли бегона ўтлар босиб ётар экан. Ҳеч ким у ерга экин – текин қилмас, фақат қишлоқ болалари қўй – эчкиларни, қорамолларини ўтлатиб юришар экан.

Ахборотчиларнинг берган маълумотларидан шу нарсани англаш мумкинки, воҳа деҳқонлари Бободеҳқоннинг Хизр киёфасида ҳам тасаввур қилганлар. Демак, аждодларимизнинг ўйлашича, Хизр бобо халол меҳнат қилган, покиза, диёнатли инсонларнинг олдида хамиша хозир у нозир. Хизр - архаик мифологияда баҳор ва тирилиш рамзи: кейинча бу кагламга Шарқ диний ва эпос бадий тафаккури оркали «оби ҳаёт» - тириклик – суви бахш этувчи, деган тасаввур қўшилади.<sup>21</sup> Юқоридаги ҳикояни назарда туғиб шуни айтиш мумкинки, «ўлик ер»ни тирилтиришга интилган қўшчига Хизр бобо ёрдамга келган. Кишиларнинг назарида «ўлик ер» тирилган ва мўл – кўл ҳосил бериши мумкин.

Албатта, деҳқонлар кузги ва баҳорги шудгор, экин-тикин, суғориш, ўриш, хирмон қилиш, янчиш ишларида Хизр бободан ёрдам сўрашган. Кишилар Хизр бобони ҳар жойда учратиш мумкин, деб ўйлашади. Ахборотчи Баҳодир Абдураззоқовнинг ҳикоя қилишича, бегона киши билан бериб кўришаётганда баъзи кексалар ҳамроҳининг бош бармоғини сиқиб ушлашади. Сабаби кўришаётган шахс Хизр бўлса, бош бармоғининг суяги бўлмас экан. Суяксиз бармоқни ушлаган киши Хизрдан қатъий бирор нарсани сўраш имконияти бўлган.<sup>22</sup> Кишиларнинг тушунчасича Хизр бобо нафақат зироатчиларга, балки чорвадорларга ҳам, овчиларга ҳам ва бошқа касб эгаларига ҳам, бефарзанд кишиларга ҳам, оғир касалга ҳам ўзининг кароматини кўрсатган, ёрдам берган.

Халқ тасаввурида Хўжаи Хизр кўлида ҳасса ушлаган, гоҳ пиёда, гоҳ эшак минган ораста кийинган чол сифатида гавдалантирилган.

Деҳқончиликнинг кўзини биладиган кекса кишиларни «Хизр кўрган» ёки «Хизр кўрганнинг боласи» дейишган. Деҳқончиликдан мўл ҳосил олган

<sup>19</sup> Дала ёзувлари, 1999 йил. Жондор тумани. Бухорча қишлоғи.

<sup>20</sup> Қаранг. Снесарев Г.П. Реликты 1 домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. - М.: Наутса, 1969. - С. 226.

<sup>21</sup> Ўзбек мифологик афсоналарида Хизр тириклик бахш этадиган ҳаёт сувини топиб ичганлиги учун абадий барҳаётликка эришган мўъжизакор хомий ҳисобланади. Шу боис Хизр образи кўпинча сув манбалари билан боғлиқ холда тасвирланади. Бу Ҳақда қаранг: Ипак йўли афсоналари. Тўплаб, нашрга тайёрловчи: М.Жураев. -Т.: Фан, 1993. -Б. 87-88.

<sup>22</sup> Дала ёзувлари, 1999 йил Жондор тумани. Қулончи қишлоғи.

кишиларни ҳам «Дехқонбобонинг нафаси теккан» ёки «Даласидан Дехқонбобо ҳассасини судраб ўтган» деб улуғлашган. Ахборотчи Кенжа бобо Жуманазаровнинг таъкидлашича, отаси эккан буғдой, арпа ўсиб, отга тенглашган экан. Кишилар «бой буванинг еридан Дехқонбобо этагини судраб ўтган, дони омборга сиғмайди» деб гап қилишаркан. Кўпнинг гапида Хизр бор деганларидек, дон омборга сиғмай, ортганини ўрага кўмишган экан.

Халқимизда Бободехқон ҳақида турли ривоятлар, афсона ва эртаклар мавжуд, бир – бирини тўлдирувчи бундай фольклор асарлари қайсидир маънода Бободехқонни улуғлашга хизмат қилади.

Аждодларимиз мифологиясида муқаддас культ даражасига кўтарилган Бободехқон тимсолига воҳа деҳқонларининг ҳам эътиқод қилиши асосли эди. Бободехқон билан боғлиқ маросимларга мулалар томонидан илоҳий тус берилди. Натижада маросимнинг мазмундорлиги, кишилар орасидаги мавқеи анча ортган.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, Ўрта Осиёда яшовчи халқлар орасида зироатчилик ҳомийси Бободехқон ёки Дехқонбобо образининг тарихий – мифологик асослари қадимги ҳосилдорлик илоҳи билан боғлиқ. Қадимги аждодларимизнинг эътиқодий ишончлари, табиат ҳодисаларини илоҳийлаштириш билан боғлиқ мифологик ҳосилдорлик худоси ёки ҳосилдорлик илоҳларига топиниш анъаналари замирида пайдо бўлган ҳамда ҳомий куч тимсоли сифатида мифологик қахрамонлар қаторидан ўрин олган ва кейинчалик уларга исломий тус берилган.

Демак, халқимизнинг зироатчилик ҳомийси Бободехқон культига сиғиниш удумида исломгача бўлган эътиқодий қарашларнинг исломий анъаналар билан қоришиқ ҳолда синкретик тарзда сақланиб келаётганлигини кўришимиз мумкин.

#### Адабиётлар рўйхати:

1. Ahmadovna, J. N., & Axmatovna, J. N. (2024). BUXORO VOHASI DEHQONCHILIK MADANIYATI TARIXIDAN (XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSH LARI). Journal of Innovation in Education and Social Research, 2(4), 5-10.
2. Жумаева, Н. А. (2022). БУХОРО ВОҲАСИДА ЗИРОАТЧИЛИК ҲОМИЙСИ-БОБОДЕҲҚОН БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР (XIX аср охири XX аср бошлари): <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.10.10.037> Жумаева Нилуфар Ахматовна, БухДУ Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (10), 30-39.
3. Ahmadovna, J. N. (2022). QUYI ZARAFSHON VOHASI AHOLISINING YER-SUVDAN FOYDALANISH BILAN BOGLIQ AN'ANALARI (XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSH LARI). International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 2(3), 23-31.
4. Жумаева, Н. А., & Утаева, Ф. Х. ЗИРОАТЧИЛИК ҲОМИЙСИ-БОБОДЕҲҚОН БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТ ВА. ЎТМИШГА НАЗАР, 49.
5. Джумаева, Н. А. (2023). Об Обычаях, Связанных Со Сбором Колосовых Культур В Бухарском Оазисе (Конец XIX Века, Начало XX Века). Central Asian Journal of Social Sciences and History, 4(3), 10-13.

6. Akhmatovna, D. N., & Bahriddinovna, T. G. (2020). Traditions related to harvesting grain crops in Bukhara region (The end of XIX century and the beginning of XX century). Academy, (6 (57)), 39-40.
7. Ahmadovna, J. N., Xolmamatovna, U. F., & Bahriddinovna, T. G. (2021). From the history of the culture of farming in the Oasis Of Lower Zarafshan. Central asian journal of social sciences and history, 2(2), 74-80.
8. Ahmadovna, J. N., Xolmamatovna, U. F., & Bahriddinovna, T. G. (2021). From the history of the culture of farming in the Oasis Of Lower Zarafshan. Central asian journal of social sciences and history, 2(2), 74-80.
9. Utayeva, F., & Muxamedjonova, M. (2024). TO 'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI. Farg'ona davlat universiteti, (1), 49-49.
10. F. Utayeva, B. Safarov ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА И ПРОИЗВОДСТВЕННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ БУХАРСКОГО ПРЯДИЛЬНОГО-ТЕКСТИЛЬНОГО КОМБИНАТА  
Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali, 2023
11. Utayeva, F. (2023). BUXORO TO'QIMACHILIK KOMBINATINI MALAKALI MUTAXASISLAR BILAN TA'MINLASH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 41(41).

## AHMAD YASSAVIY - TARIQAT ASOSCHISI

*Sharipova Marjona Ravshanovna –  
BuxDU Tarix va Yuridik fakulteti IV bosqich talabasi.*

*Sharipova Marjona Ravshanovna  
is a student of 4th stage of the Faculty of history and Law of BuxSU*

*Шарипова Маржона Равшановна –  
студентка 4 ступени историко-правового  
факультета БухГУю*

**Tayanch iboralar:** Tasavvuf, Mutasaffuv, shayx, Yassi, xalifa, xurmo, Arslon bob, tariqat, Buxoro, murid.

**Key words:** Sufism, sheikh, Yassi, caliph, palm, Arslan bob, sect, Bukhara, murid.

**Ключевые слова:** Суфизм, шейх, Яси, Халиф, хурма, Арслан баб, секта, Бухара, студент.

**Annotatsiya:** Maqola Yassaviylik tariqati asoschisi bo`lmish Ahmad Yassaviyning bolalik chog`lari, umr yo`llari, uning Yassaviy taxallusini olishining tarixi, Yassaviyning piri hisoblanmish Arslon bob bilan uchrashuvi, undan olgan tarbiyasi haqidagi ma`lumotlarni yoritib beradi.

**Anotation:** The article is about the childhood, life path of Ahmed Yassavi, The founder of of the Yassavi sect, and the history of his nickname Yassavi. It sheds light on Yassavi`s meeting with Arslan Bob , who is considered an elder and the information he received from him

**Аннотация:** В статье рассказывается о детстве и жизни Ахмеда Яссави, основателя секты Яссави, и истории его прозвища яссави. Оно проливает свет на встречу Яссави с Арслоном Бобом, считающимся старейшиной, и информацию он получил от него.

Xo`ja Ahmad Yassaviy O`rta Osiyoning ham ijtimoiy, ham iqtisodiy-siyosiy, madaniy jihatdan muhim o`rin tutgan , hozirgi Turkistondagi Yassi yaqinidagi Sayram shahrida tavvalud topgan. Yassavining vafot etgan yilni tarixchi olimlar o`z asarlarida 1166-1167-deb qayd etganlar.

Yassaviy qachon tug`ulgan ? Qancha umr kechirgan ? Bu savollarga javob esa turli olimlar turlicha vaqtni ko`rsatadilar.

Shahobiddin Yassaviy asarlaridan birida Ahmad Yassaviyning tug`ilgan yili 1103-yil deb aytib o`tgan. Qozoq olimasi S. Taqiboyeva kitobida esa 1105-yil deb ko`rsatgan. Tilshunos Nematovning fikriga ko`ra Yassaviy milodiy 1197 yilda

dunyoga kelgan. Ba`zi olimlar Yassaviy 63 yil umr kechirgan deyishsa ,boshqa birlari 73 va 85 yil yashagan degan to`xtamga kelishgan.

Atoqli Yassaviyshunos Muhammad Fuod Kuprulizodaning aytishicha Yassaviy 120 yosh yashagan ekan . Rus olimi v.A.Gordilevskiy esa A. Yassaviyning yoshini 125 yosh deb ko`rsatadi. v.A.Gordilevskiy Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”dagi:

Yoronlardan fayz va Futuh olomadim

Yuz yigirma beshga kirdim bilolmadim

Shu bayt sababli u Yassaviy aynan 125 yil yashagan deb taxmin qiladi. Agar Yassaviyning vafot tarixini 1166 yil o`laroq qabul qilib, uning “Yuz yigirma beshga kirdim bilolmadim” degan e`tirofi e`tiborga olinsa, unda Yassaviyning tug`ilgan sanasi milodiy 1041-yilga to`g`ri keladi. Tasavvuf tarixiga nazar tashlansa ko`p ulug` shayx va mutasavvuflarning ancha uzoq umr kechirganligiga guvoh bo`lishimiz mumkin. Shunga qaramasdan, Yassaviy hayotining 125 yil davom etganiga ishonish qiyin. Birinchidan, “Devoni hikmat”dagi “Yuz yigirma beshga kirdim bilolmadim” degan so`zlar tarixiy haqiqatdan ko`ra, manoqibiy mazmunga ega. Ikkinchidan, 125 yillik uzoq umrning yarmidan ko`pini “yer osti” da (Oltmish uchda yer ostiga kirdim mano”, deydi Yassaviy) o`tkazish aql bovar qilmas bir hodisadir. Bizningcha , Yassaviyning yashash muddatini 75-85 atrofida belgilagan olimlarning tahminlari haqiqatga yaqin kelsada, aniq hujjat va dalillarga asoslanmaguncha bunday tahminlar tahmin bo`lib qolaveradi. Bundan ko`rinib turadiki haligacha olimlar Ahmad yassaviyning qachon tug`ilganligi va qancha umr kechirganligi haqida aniq ma`lumot yo`q. Xoja Ahmad Yassaviy XI asrning ikkinchi yarmida, Sayramdagi eng nufuzli oilalardan biri Shayx Ibrohim oilasida tavallud topgan. Uning onasi otasi Shayx Ibrohimning xalifasi Muso Shayxning qizi Oyisha xotun edi. Yassaviyning Gavhar Shahnoz ismli opasi bo`ladi. Ahmad avval onasidan, 7 yoshga to`lganida otasidan ajralgach uning tarbiyasi bilan opasi Gavhar Shahnoz shug`ullanadi. Keyin ular Sayramdan Yassi shahriga ko`chib ketadilar. Yosh Ahmad Yassiga kelgach uning birinchi ustozini bo`lmish Arslon bob bilan yuzlashadi. Yassi shahrida undan dastlabki tahsilni oladi. Yassi Ahmadning ma`naviy-ruhoniylar kamoloti shakllanishida asos yaratib beradi, uning dastlabki kashfu karomatlariga guvoh bo`lgan va Sultonut tariqa, burhon`ul haqiqat, zubdatu`l orifin, shamsu`l avliyo sifatida butun musulmon olamiga shuhrat darvozasini ochgan muqaddas zamindir.

Xoja Ahmad Yassaviy taxallusini olishi haqida ikki xil qarash mavjuddir. Birinchisi, uning Yassida yashaganligi va shu yerda yangi bir tariqatga asos solishga tayanilgan qarash. Ikkinchisi, bir qadar rivoyat mazmuniga ega qarash. Sulton Ahmad Haziniyning “ Javohir ul-abror” asarida naql qilinishicha, Movarounnahrda Yassaviy nomli podshoh bo`lgan ekan. U qishni Samarqandda o`kazib, yoz oylarini Turkistonda o`tkazar ekan. Bir yoz oylarida shahanshoh Qorachuq tog`iga ovga chiqibdi. Lekin

ishi yurishmabdi. Shikordan quruq qaytishdan g`azablangan hukmdor tog`ni butunlay yo`qotishni niyat qilib, barcha mashhur Shayx va pirlarni huzuriga chorlabdi. Lekin ulardan hech biri bu ishni uddalay olmabdi. Shunda u yana kim nazardan qolganligini surishtiribdi. “Sayramda Ahmad otlig` bir bola bor ...”, -deyishibdi. .”Chorlang” debdi shoh. Ahmadga chopar borgach, u opasi bilan maslahatlashibdi. Gavhar Shahnoz unga debdi: “ padari buzrukvorimiz rixlat zamonida vasiyat qilib aytgan edilarki, farzandi arjumandimiz Ahmadning zuhuriga vaqt yetishsa, alomati uldurki, ma`badim ichida bir sufra bordir, u shu sufrani ochishga qodir bo`lar.

Xullas, sufra ochilibdi. Uni olib Ahmad anjumani avliyullohga qatnashish uchun Yassiga qarab ravona bo`libdi. Dasturxon yozib bir parcha nonni “to`qson to`qqiz ming avliyo va sipohu podshohga” tarqatganda, hammaning qorni to`yib, undan yana ortib qolibdi. Bu karomatu barakani ko`rib, hamma qoyil qolibdi. So`ng otasining xirqasini yopinib duo o`qiganda chor atrofga yomg`ir quyilibdi, yerdagi butun borliq selga g`arq bo`lar holga yetibdi. Nihoyat Ahmaddan yomg`irni to`xtatishni yolvorib so`rashibdi. U xirqadan boshini chiqargani zamon yomg`ir sel to`fonlari ham tinibdi. Qarashsa Qorachuq tog`idan ham nomi nishon ko`rinmasmish. Bu”holati g`ariba va karomati oliyani mushohada” etgan podshoh Xoja Ahmadga:”Olamda har kim bizni sevsa bundan so`ng sening nomingni qo`shib yod aylasin”,- debdi. Shu kundan boshlab Xoja Ahmad Yassaviy taxallusiga erishgan ekan. Bu rivoyat Ahmad Yassaviy hazratlarining bolalik chog`laridayoq kashfu karomat sohibi bo`lganligini isbotlash jihatidan ham ahamiyatli, albatta.

Yuqorida aytib o`tilganidek Yassaviyning birinchi ustoz Arslon bobning nomiga to`xtaladigan bo`lsak “Bob” arabcha “eshik” manosini ifodalaydigan so`z bo`lib, turkchada esa bu kalima islom dini targ`ibi uchun fidoiylik ko`rsatganlarga beriladigan laqab bo`lgan.

Alisher Navoiy Farg`onada “ulug` mashoyixni Bob derlar”,-deydi. Shuningdek, “bob” va “bobo” so`zi shayx, pir, valiylarga nisbatan ham qo`llanilgan.

Bilamizki, Arslon deganda insoniyat ongida kuch-qudrat, yengilmas jur`at va jasorat timsoli gavdalanadi. Ammo arslon nafaqat jismoniy kuch sohiblari uchun balki, ma`naviy-ruhoniyy kuch sohiblari uchun ham qo`llaniladigan so`z. Rivoyatlarga ko`ra, qadimgi turklarda din odamlariga hurmat –ehtimom ifodasi sifatida, ularga arslon surati tushirilgan oltin bir taxt yasab berilarkan. Bundan ko`rinib turadiki, Arslon bobning nomida ham shunga yaqin bir ishorat yashiringandir degan taxmin o`z-o`zidan paydo bo`ladi.

Ahmad Yassaviy ustoz Arslon bob bilan uchrashganida u yetti yoshda bo`lganligini aytib o`tadi:

Yetti yoshda Arslon bobom izlab topdi,  
Har sir ko`rib parda birla bukib yopdi.



Arslon bobning yetti yoshda Yassaviyni izlab topishi haqida ham rivoyat keltirilgan.

Rivoyatga ko`ra, Hazrati payg`ambar sardorlik qilayotgan bir urush chog`ida ashobi kirom ul zotning yonlariga kelib, och qolganliklarini aytishibdi. Payg`ambarning duolari tufayli Jibrili amin Jannatdan bir lagan xurmo olib kelibdi. Shunda xurmoldardan bir donasi yerga tushibdi, Jabroil “Bu xurmo sizning ummatingizdan Ahmad yassaviy otlig` bir buyukning nasibasidir” debdi. Har omonatni o`z sohibiga yetkazishga qat`iy amal etuvchi Hazrati Payg`ambar asxoblardan kimdir bu vazifani zimmasiga olishini taklif qilibdilar. Ammo ularning hech biridan sado chiqmagach , Arslon bobo bu ishni zimmasiga olibdi. Payg`ambar (s.a.v) xurmo donasini Arslon bobning og`ziga irg`itgani zamon bir parda zohir bo`libdi. Va Hazrati payg`ambar unga Ahmad Yassaviy qanday kishi bo`lishini tariflab, uning tarbiyasi bilan mashg`ul bo`lishni amr aylabdi.

“Devoni hikmat” da buni haqiqatligini asoslovchi quyidagi so`zlarga e`tdor qaratsak:

Yetti yoshda Arslon bobom berdim salom,  
Haq Mustafo omonatni qildi in`om.  
O`shal vaqtda ming bir zikrin qildim tamom`  
Nafsim o`lib lomakonga oshdim mano.  
Xurmo berib, boshim silab, nazar qildi,  
Bir fursatda uqbo sori safar qildi,  
Alvido deb bu olamdan guzar qildi,  
Maktab borib, qaynab, to`lib toshdim mano

Arslon bob vafotidan oldin Ahmad Yassaviyni Buxoroga borib, ilm olishni davom ettirishi kerakligini tayinlagan . Ustozinin vafotidan so`ng Yassaviy uning aytganini qilib, bilimni oshirish maqsadida Buxoroga keladi.

O`sha davrda ilm-fan, madaniyat va m`rifatning Movarounnahrda asosiy markazlaridan biri bo`lgan Buxoroda Turkistonning barcha tomonlaridan talabalar ilm olishga kelishgan. Ahmad Yassaviy Buxoroda, dastlab diniy va taavvufiy ilmlarini yanada mukammal egallashdan boshlaydi. Arab tili bilan birgalikda forsiy tilni ham o`zlashtirgan. M.F. Kuprulizoda ta`kidlab o`tganidek, “Ahmad yassaviy, hech bir jihatdan Islom ilmlari va Eron adabiyotiga begona emasdi. Tahsil va suluk hayotining katta bir qismini Islom- Ajam fikr markazlarida o`tkazganligi uchun qadimgi buyuk Ajam mutasavvif shoirlarning tasavvufiy asarlarini bag`oyat chuqur bilardi.”

Ahmad Yassaviyning Buxoroda o`sha davrning mashhur olimi va sufiysi Shayx Yusuf Hamadoniya murid bo`lgan.

Abduxoliq G`ijduvoniyni “Maqomoti Yusuf Hamadoniya” risolasidan anglashilishicha, Hamadoniyni ko`ngli butun mahluqotga muhabbat timsoli bo`lgan. U bag`oyat sobit zot, oriflikni juda ulug`lagan. Yassaviy qisqa zamonda shayxning

e'tiborini qozonib, undan olgan fayz ila kamol martabasiga yuksalgan va Hamadoniyning uchinchi halifaligiga erishgan. Shundan so'ng, ya'ni 'irshod va da'vat maqomi" qo'lga kiritilgach, "Xo'ja Ahmad Yassaviy Turkiston sori azimat"aylab yangi bir tariqatga asos soladi. Yassaviylik nomi bilan dong taratgan bu tariqat bir turk mashoyixi tomonidan turkiy xalqlar orasida bunyod etilgan ilk tasavvuf tariqati edi.

Ahmad Yassaviy yigirma yoshgacha Buxoro va boshqa shahar, viloyatlarda ilm-ma'rifat o'rgandi. O'zida barcha insonlarga xos xilma-xil illatlardan qutilishiga intildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibrohim Haqqul. "Ahmad Yassaviy" Adabiyot va san'at nashriyoti. T.: 2001;
2. Ahmad Yassaviy. "Devoni hikmat". T.: 1993;
3. Komilov. N. "Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1-2 kitob. T.: 1996,1998;
4. Xoja Ahmad Yassaviy. "Devoni Hikmat". T.: 2004;
5. Al-Buxoriy. Hadis, Al-Jome' as-sahih. T.:1991-1992 yillar, 1-2 kitoblar;
6. Komilov.N "Tasavvuf" . T.:1996;
7. Ahmadovna, J. N., & Axmatovna, J. N. (2024). BUXORO VOHASI DEHQONCHILIK MADANIYATI TARIXIDAN (XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARI). *Journal of Innovation in Education and Social Research*, 2(4), 5-10.
8. Жумаева, Н. А. (2022). БУХОРО ВОҲАСИДА ЗИРОАТЧИЛИК ҲОМИЙСИ-БОБОДЕҲҚОН БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР (XIX аср охири XXаср бошлари): <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.10.10.037> Жумаева Нилуфар Ахматовна, БухДУ Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (10), 30-39.
9. Ahmadovna, J. N. (2022). QUYI ZARAFSHON VOHASI AHOLISINING YER-SUVDAN FOYDALANISH BILAN BOGLIQ AN'ANALARI (XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARI). *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(3), 23-31.
10. Жумаева, Н. А., & Утаева, Ф. Х. ЗИРОАТЧИЛИК ҲОМИЙСИ-БОБОДЕҲҚОН БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТ ВА. *ЎТМИШГА НАЗАР*, 49.
11. Джумаева, Н. А. (2023). Об Обычаях, Связанных Со Сбором Колосовых Культур В Бухарском Оазисе (Конец XIX Века, Начало XX Века). *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(3), 10-13.
12. Akhmatovna, D. N., & Bahridinovna, T. G. (2020). Traditions related to harvesting grain crops in Bukhara region (The end of XIX century and the beginning of XX century). *Academy*, (6 (57)), 39-40.

13. Ahmadovna, J. N., Xolmamatovna, U. F., & Bahriddinovna, T. G. (2021). From the history of the culture of farming in the Oasis Of Lower Zarafshan. *Central asian journal of social sciences and history*, 2(2), 74-80.
14. Ahmadovna, J. N., Xolmamatovna, U. F., & Bahriddinovna, T. G. (2021). From the history of the culture of farming in the Oasis Of Lower Zarafshan. *Central asian journal of social sciences and history*, 2(2), 74-80.
15. Utayeva, F. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ИЛМИЙ ТАРИХИЙ МАТБУОТДА БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*), 6(6).
16. Utayeva, F. (2021). MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORODA TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*), 8(8).
17. Kholmamatovna, U. F. (2024). CREATION OF THE PLACE OF SPECIALISTS AND JOB IN THE TEXTILE INDUSTRY. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 20(4), 189-197.
18. Utayeva, F., & Muxamedjonova, M. (2024). TO 'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O 'RNI. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 49-49.

## ABU NASR FAROBIYNING ILMIY MEROSI VA UNING JAHON TARIXIDA TUTGAN O'RNI

*Nilufar Jumayeva Ahmadovna*

*BuxDU Buxoro tarixi kafedrasi kata o'qtuvchisi*

*Shahlo Ortiqova Salim qizi*

*BuxDU 4-kurs 5-11 Tarix-20 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abu Nasr Farobiy ilmiy merosi va uning asarlarining jahon tarixida tutgan o'rni haqida yozilgan asarlarni o'rganilish darajasi ko'rib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Abu Nasr Farobiy, yunon faylasuflari, buyuk olim, mantiq, Averroizm, taraqqiyparvar

**Kirish:** Abu Nasr Farobiy – o'rta asr sharqining mashhur mutafakkiri, qadimgi yunon falsafasining Sharqdagi eng yirik davomchisi va targ'ibotchisidir. U Sirdaryo bo'yidagi O'tror (Forob) shahrida 873 yilda tug'ilib, Shosh (Toshkent), Buxoro shaharlarida o'qidi, so'ng xalifligining markazi Bag'dod shahriga borib, u yerda ko'p yil istiqomat qildi. Yunon faylasuflarining asarlarini mutolaa qilish, turli tillarni o'rganish bilan shug'ullandi. Umrining so'nggi yillarida Damashqda yashadi. 950 yilda vafot etdi. U turli sohalarga oid ilmiy asarlar qoldirdi. U o'z davrining faylasufi, musiqachisi, shoiri, qomusiy olimi sifatida shuhrat qozondi. U "Aql haqidagi risola" "Falsafadan oldin nimani o'rganish kerak", "Falsafa manbalari", "Masalalar manbalari" kabi 160 dan ortiq risolalar yaratdi. Yaqin va O'rta Sharqda «Ikkinchi muallim» deb nom qozongan Markaziy Osiyolik mashhur olim Abu Nasr al-Forobiyning mantiq ilmiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Forobiy hali hech bir mutafakkir uddalay olmagan vazifani, ya'ni Arastuning va umuman qadimgi grek mantiq'ini keng tinglovchilar o'rganishi uchun eng oddiy, tushunarli vosita va uslublarini ishlab chiqishga muvaffaq bo'lgan. Mantiq tarixchilarining ta'kidlashicha, Forobiy bu tavsiyalari bilan Arastuning mantiq'iga o'zgacha [fayz kiritib](#), uning kitobxonlar orasidagi mavqeini yanada ko'tarilishiga erishdi.

Forobiy o'zining asarlarida mantiq ilmi, uning predmeti, tuzilishi, vazifalari, fikrlash jarayonining [bosqich va shakllari](#), mantiqiy qonunqoidalari, usul hamda amallari haqida keng ma'lumotlar bergan. Mutafakkirning ijodiy merosini o'rganish borasida olimlar samarali ijod qilmoqdalar. Farobiyning kitoblarini ro'yxatini tuzish va undagi ijtimoiy-falsafiy, siyosiy fikrlarni o'rganish borasida Bayxaki, Al-Nadima, ibn Usaybi, Dextuzo, Umar Tarrux, Xorten, Diteritsi, Shteynshneyder, Brokkel'man, Axmad Atin, M.M.Xayrullaev va boshqalar samarali mehnat

qilganlar. Farobiyning asarlari Leningrad, Moskva, Toshkent, Dushanbe, Baku, qozon, Kair, Bayrut, Damashq, Stambul, Leyden, London, Parij, Madrid, N'yu-York, Xaydarobod, Tehron va boshqa shaharlarning muzey va kutubxonalarida saqlanib kelinmoqda

### Asosiy qisim:

Forobiy o'z davridayoq buyuk olim sifatida mashhur bo'lgan. Sharq xalqlarida u haqda turli hikoya, rivoyatlar vujudga kelgan. O'rta asr olimlaridan ibn Xallikon, ibn al-Qiftiy, ibn Abi Usabi'a, Bayhaqiylar o'z asarlarida Forobiy ijodini o'rganib, uning g'oyalarini rivojlantirganlar. Xususan, ibn Rushd Forobiy asarlarini o'rganibgina qolmay, ularga sharhlar ham yozdi. Averroizm nomi bilan mashhur bo'lgan uning falsafiy ta'limotining shakllanishi dastlab Forobiy va ibn Sino faoliyati bilan bog'liq. Averroizm ilmiy tendensiyalarni ifodalovchi ilg'or yo'nalish sifatida keng yoyilgan va Uyg'onishdavrining ko'p ilg'or mutafakkirlari dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatgan.

Taraqqiyparvar insoniyat Forobiy ijodiga hurmat bilan qarab, uning merosini chuqur o'rganadi. Yevropo olimlaridan B. M. Shtrenshneyder, Karra de Vo, T. U. Buur, R. Xammond, R. de Erlanje, F. Deteritsi, G. Farmer, N. Rishar, G. Ley, Sharq olimlaridan Nafisiy, Umar Farrux, Turker, M. Maxdi va boshqalar Forobiy merosini o'rganishga muayyan hissa qo'shdilar. Keyingi yillarda uning ijodi va ta'limotiga bag'ishlangan bir qancha tadqiqotlar, asarlar yuzaga keldi.

Forobiyning ilmiy merosi, umuman, o'rta asr Sharqining madaniy-ma'naviy hayotidan, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy masalalaridan juda boy ma'lumot beradi. Mutafakkir o'z asarlarini o'sha davrda Sharq mamlakatlarida ilmiy-adabiy til hisoblangan arab tilida yozadi. Forobiy shuningdek, arab va fors tillarida falsafiy mazmundagi she'rlar ham yozgan. Forobiy asarlari XII–XIII asrlardayoq lotin, qadimiy yahudiy, fors tillariga, keyinchalik boshqa tillarga tarjima qilinib, dunyoga keng tarqalgan. So'nggi asrlarda ko'chirilgan nusxalari ko'p mamlakatlarning qutubxona va muassasalarida saqlanadi.

Toshkentda Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida qadimgi Sharq faylasuflari asarlaridan jami 107 risolani, jumladan, Forobiyning 16 risolasini (arabcha) o'z ichiga olgan "Hakimlar risolalari to'plami" ("Majmuat rasoil al-hukamo", Qo'lyozmalar fondi, 2385-in.) bor. Bu noyob qo'lyozma Forobiy asarlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. To'plamdagi Forobiy risolalari 1975 yili qisman o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi.

Forobiy dunyoqarashining shakllanishiga asosan Sharqning qadimgi ilg'or madaniyati an'analari, arab xalifaligiga qarshi xalq harakatlari, o'rta asr tabiiy-ilmiy tafakkur yutuqlari, Yunonistonning falsafiy merosi ta'sir ko'rsatdi. Forobiy avvalambor Aristotel ta'limotini tiklash, asoslash va ilg'or tomonlarini so'nggi ilmiy yutuqlar asosida rivojlantirishga harakat qilib, Sharq aristotelizm oqimini vujudga keltirdi. Bu oqimning uslubi, muhim masalalari, kategoriyalarini ishlab chiqdi.

### Хулоса:

Хулоса qilishimiz va aytishimiz mumkin: Arastu al-Forobiy tufayli Aristotel bo'ldi. Avvalgi Sharq falsafasida (Ibn Sino, Ibn Rushd) o'z asarlarida birinchi bo'lib masalalarni muhokama qilgan ko'targan edi. Qadimgi yunon falsafasi bilan o'rta asr Evropasi asarlari (to'g'ridan-to'g'ri yoki uning izdoshlari Ibn Sino, Ibn Rushd, Maymonidlar asarlari orqali). Forobiy falsafasi Sharqdagi izdoshlarining mehnati bilan boyidi va lotin Averroistlardan o'tib, Uyg'onish davri hissasini olgan holda, Spinozaning materialistik va ateistik falsafasida, keyinchalik fransuz ensiklopedistlari ta'limotida rivojlangan. Shuning uchun islom olamining eng buyuk olimi va faylasufi buyuk farzandimiz Abu Nosir Forobiy biz uchun azizdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djuraev R.Z. Abu Nasra al-Forobiy siyosiy falsafasi: dissertatsiya. Falsafa fanlari nomzodi. - Dushanbe, 2004. - 176b.
2. Xayrullaev M.M. Forobiy dunyoqarashi va uning falsafa tarixidagi ahamiyati. - T.: Fan, 1967; Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. - T.: O'zbekiston, 1971; Markaziy Osiyoda Uyg'onish davri madaniyati. - T.: Fan, 1994.
3. Qosimjonov A.X. Abu Nasr Forobiy. - Moskva: Misl, 1982,
4. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt va komillik haqida. - T.: 2002. - B. 17.
5. J.S.Ramatov, & M. Hasanov (2022). INSONNING DINY DUNYO QARASHINING SHAKLLANISHIDA FANNING AHAMIYATI. Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar, 3 (7), 35-39.
6. Boboshev, ZN, Hasanov, M.N., Nurullaev, EA (2022). ABU NASR FORABIY PEDAGOGIKA FANINING ASOSCHISI SIFATIDA.
7. Ahmadovna, J. N., & Axmatovna, J. N. (2024). BUXORO VOHASI DEHQONCHILIK MADANIYATI TARIXIDAN (XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSH LARI). *Journal of Innovation in Education and Social Research*, 2(4), 5-10.
8. Жумаева, Н. А. (2022). БУХОРО ВОҲАСИДА ЗИРОАТЧИЛИК ҲОМИЙСИ-БОБОДЕҲҚОН БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР (XIX аср охири XX аср бошлари): <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.10.10.037> Жумаева Нилуфар Ахматовна, БухДУ Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (10), 30-39.
9. Ahmadovna, J. N. (2022). QUYI ZARAFSHON VOHASI AHOLISINING YER-SUVDAN FOYDALANISH BILAN BOGLIQ AN'ANALARI (XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSH LARI). *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(3), 23-31.
10. Жумаева, Н. А., & Утаева, Ф. Х. ЗИРОАТЧИЛИК ҲОМИЙСИ-БОБОДЕҲҚОН БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТ ВА. *ЎТМИШГА НАЗАР*, 49.
11. Джумаева, Н. А. (2023). Об Обычаях, Связанных Со Сбором Колосовых Культур В Бухарском Оазисе (Конец XIX Века, Начало XX Века). *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(3), 10-13.

12. Akhmatovna, D. N., & Bahriddinovna, T. G. (2020). Traditions related to harvesting grain crops in Bukhara region (The end of XIX century and the beginning of XX century). *Academy*, (6 (57)), 39-40.
13. Ahmadovna, J. N., Xolmamatovna, U. F., & Bahriddinovna, T. G. (2021). From the history of the culture of farming in the Oasis Of Lower Zarafshan. *Central asian journal of social sciences and history*, 2(2), 74-80.
14. Ahmadovna, J. N., Xolmamatovna, U. F., & Bahriddinovna, T. G. (2021). From the history of the culture of farming in the Oasis Of Lower Zarafshan. *Central asian journal of social sciences and history*, 2(2), 74-80.
15. Utayeva, F. (2023). TO'QIMACHILIK FABRIKASIDA AHOLINING ISH BILAN TA'MINLANISHI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 41(41).
16. F Utayeva [BUXORO IP-GAZLAMA KOMBINATINING QURILISH TARIXI VA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATI](#) *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 2023
17. Utayeva, F., & Muxamedjonova, M. (2024). TO 'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O 'RNI. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 49-49.
18. F Utayeva, B Safarov [ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА И ПРОИЗВОДСТВЕННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ БУХАРСКОГО ПРЯДИЛЬНОГО-ТЕКСТИЛЬНОГО КОМБИНАТА](#) *Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, 2023
19. Utayeva, F. (2023). BUXORO TO'QIMACHILIK KOMBINATINI MALAKALI MUTAХASISLAR BILAN TA'MINLASH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 41(41).
20. Utayeva, F. (2023). BUXORO IP-GAZLAMA KOMBINATINING QURILISH TARIXI VA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 41(41).
21. Utayeva, F., & Safarov, B. (2023). ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА И ПРОИЗВОДСТВЕННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ БУХАРСКОГО ПРЯДИЛЬНОГО-ТЕКСТИЛЬНОГО КОМБИНАТА. *Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 303-307.
1. Utayeva, F., Sharipova, P., & G'ayratjon qizi Rahmatova, R. F. (2023). MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORO TO 'QIMACHILIK SANOATIDA MODERNIZATSIYALASHUV JARAYONLARI. *Scientific journal of the Fergana State University*, (6), 61-61.
2. Kholmamatovna, U. F. (2022). Bukhara Yarn and Fabric Factory (1970-1985). *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 3(6), 160-164.
3. Utayeva, F. (2022). Utayeva FX MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORODA TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 18(18).

## SUMMARY OF CONTENT DIRECTIONS OF HISTORY IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

---

*Quvondiqov Behzodjon Murotbay o'g'li*

*Mustafayev Jafar Shomirzayevich*

*The Samarkand Branch of the Tashkent University of*

*Information Technologies Telefon raqami: +998910977141*

*Elektron pochta manzili:*

*Behzodquvondiqov902@gmail.com*

**Abstract:** This article is dedicated to the study and understanding of the unique importance of history in the development of society. The article describes the content and important trends of history, shows how history is used in the development of society, and in which areas it is important. The article analyzes the political, economic, cultural, religious and social histories related to the important aspects of the development of society.

**Key word:** Abu Nasr Farabi Amir Temur Abdullah Awlani

The essence of the concept of "society". Humanity has lived as a community since time immemorial. Planet Earth is his eternal space, common Homeland. It is customary to call the family of people living on this tiny planet in the solar system a society. So, in a universal sense, society represents all the changes and processes related to the life of a human being, all times, places and territories.

The concept of "society", its essence, structure, social laws, is an important factor in understanding the process of social development and reforms. In this regard, the essence of phenomena such as certain characteristics of society in Eastern and Western philosophies, common points, Western and Eastern values formed and established in it, individual freedom, harmony of individuality and collectivity are extremely important. In modern times, it is necessary to pay special attention to the importance of pluralism and synergistic views of society in the scientific organization of social processes by knowing the laws of its development. There are different definitions that society is a part of nature, that is, a social entity, a special form of human association, a set of many relationships between people. Society is a complex system that is constantly developing and improving. In each new era, there is a need to know the essence of society. Due to national independence, there was a need for a new perception of the essence of society. Society consists of a unity of material and spiritual factors. Until now, material and spiritual life were sharply distinguished from each other in



literature. However, the essence of society is inextricably linked with the essence of the people who make it up. It is illogical to separate the material and spiritual aspects of society and to put one over the other, just like the human body cannot be separated from the soul. That is why in the present period, great attention is being paid to raising the morale of the people, strengthening the foundations of the national idea and ideology. After all, people do not become uneducated because they are economically poor, but, on the contrary, they can become poor because they are uneducated. Therefore, in our country, great attention is paid to ensuring economic well-being by raising the morale of the people. Historical forms of organization of people - family, state, community (village, city) were created in the course of social relations. All moral, religious, scientific, philosophical, legal, economic, and ideological relations between people are, in a word, social relations 148. Social associations help to meet the material and spiritual needs of people.

They are essentially a necessary condition for the existence of man and society. For example, without values such as family, state, education, neighborhood, and Motherland, a person and society lose their essence.

Conclusion: The article focuses on the formation of the unique identity of society, the development of higher education and science, the formation and change of social structure and political systems, the development of cultural life and art, economic activity and financial systems. helps in covering learning. The article agrees that the study of history in the development of society is of great importance in determining the development and future directions of society.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/jamiyatning-tarixiy-shakllari-mohiyati-va-xususiyatlari>
2. <https://academy.uz/uz/news/tarix-falsafasi-konsepsiyalari-evolyutsiyasi>
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarix\\_falsafasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarix_falsafasi)
4. Mustafayev J. Turkiston xalqlari tafakkur tarzida ma'naviy meros masalalari: falsafiy-sinergetik tahlil (XIX asr oxiri - XX asr boshi misolida) // Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. ISSN 2181-0427. -Namangan, 2023. -№8. -B. 298-306 (09.00.00; №24).
5. Mustafayev J. Yoshlarni uchinchi renessans ruhida tarbiyalashda ma'naviy merosning ahamiyati: sinergetik yondashuv // Tamaddun nuri. Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal. Indeks – 960. ISSN 2181-8258. -Nukus, 2023. -№7. -B. 29-33 (09.00.00; №26).
6. Mustafayev J. Ma'naviy meros jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuch sifatida. // Ilm sarchashmalari. Urganch davlat universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali. -Xorazm, 2023. - №9. -B. 36-39. Indeks 1072. (09.00.00; №17).
7. Mustafayev J. Islohotlarni amalga oshirishda ajdodlarimiz ma'naviy merosining o'rnini // Jadidlarning ma'rifiy faoliyati: g'oyalari, maqsadlari, vazifalari va sohaga

- oid zamonaviy tadqiqotlar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani. - Toshkent, 2022, -B. 131-136.
8. Mustafayev J. The Spiritual Heritage of Thejadids: Philosophical And Synergetic Analysis // International Scientific Research Journal (WoS) of Web of Scientist. - Indoneziya, -April, 2023, -P. 888-902. -Volume 4, Issue 4, (ISSN: 2776-0979, -DOI: <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/ZPR5K>, -SJIF:5.949, -Impact Factor:7.565, <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3810>).
  9. Mustafayev J. Mahmudxo‘ja Behbudiyning milliy kadrlar tayyorlashdagi xizmatlari // “Servis” ilmiy-amaliy jurnal. Samarqand iqtisodiyot va servis institutining 90 yillik yubileyiga bag‘ishlangan maxsus soni. -Samarqand. - Dekabr, 2021, II-qism, -B. 179-185.
  10. Mustafayev J. Ma’naviy barkamol insonni tarbiyalash g‘oyaviy-siyosiy madaniyat negizi // Inson, uning e’tiqodi, jamiyat, koinot: taraqqiyot muammolari va hozirgi zamon mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqotlar markazi. -Samarqand, -Yanvar, 2022, -B.437-441. (ISBN 978-9943-746-81-7).
  11. Mustafayev J. Behbudiy va Turkistonda jadidchilik harakati // Inson, uning e’tiqodi, jamiyat, koinot: taraqqiyot muammolari va hozirgi zamon mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqotlar markazi. - Samarqand, -Yanvar, 2022, -B.251-254, (ISBN 978-9943-746-81-7).

## О‘ЗBEKISTON RESPUBLIKASIDA CHET EL VALYUTASINING EKSPORT MASALALARIDAGI AHAMIYATI

*Ergashev Jasurbek Shuhrat O'g'li*

*Ilmiy rahbar: Rahimova Xavaxon Usmanjanovna*

*Bank va moliya akademiyasi. Bank ishi kafedrası dotsenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada valyuta siyosatining eksportni oshirishga ta'siri nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasida valyuta siyosatining eksportni rivojlantirishdagi rag'batlantiruvchi rolini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** valyuta siyosati, devalvatsiya, valyuta kursi, eksport, import, savdo balansi, intervensiya, kapitallar harakati, oltin-valyuta zaxirlari.

### KIRISH

Barchamizga ma'lumki, so'nggi yillarda respublikamiz iqtisodiyotini yanada liberallashtirish, xususan, valyuta siyosati erkinlashtirish va uning tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xo'jalik subyektlari eksport salohiyatini oshirishga ijobiy ta'sirini ta'minlashga qaratilgan qator ta'sirchan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

### ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentabrdagi «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5177-sonli Farmoniga muvofiq, yuridik va jismoniy shaxslarning chet el valyutasini erkin sotib olish va sotish hamda o'z mablag'larini o'zining xohishiga ko'ra erkin tasarruf etish huquqlarini ro'yobga chiqarishni to'liq ta'minlash; valyuta resurslaridan foydalanishda bozor instrumentlarining rolini oshirish, valyuta bozorida barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun teng raqobat sharoitlarini yaratish, valyuta siyosatining noan'anaviy tarmoqlarda eksportni rivojlantirishda, mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy xamkorlikni mustahkamlashda rag'batlantiruvchi rolini oshirish; valyuta siyosatining yangi sharoitlarida tayanch tarmoqlar korxonalarini samarali faoliyat yuritishi uchun ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rish kabilar respublikamizda valyuta bozorini yanada liberallashtirish sohasida davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida qayd etildi.

Valyuta kursi siyosatini xo'jalik sub'ektlari manfaatlarini nuqtai-nazaridan baholashda yagona to'xtamga kelish mushkul. Chunonchi, xalqaro operatsiyalarni amalga oshiruvchi iqtisodiy agentlar valyuta kursi tebranishlari bilan bog'liq risklarga duch keladilar va shu boisdan ham barqaror valyuta kurslarini afzal biladilar. Boshqa tomondan, eksport tovarlarini ishlab chiqaruvchilar, xorijlik raqobatchilari bilan

kurashish imkoniyatini oshirishi bois, valyuta kursiegiluvchanligini ma'qul ko'radilar [2].

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Ayni paytda, korxonalar majburiyatlarining "dollarlashuvi" yoki xorijiy valyutadagi majburiyatlar ulushining yuqori bo'lishi va aktivlarning asosan milliy valyutada shakllanishi sharoitida devalvatsiya korxonalar balansiga salbiy ta'sir etadi, xususan qarzga xizmat ko'rsatish qimmatlashadi. Devalvatsiya oqibatida korxonalarining sof aktivlari qiymati tushadi, valyuta riski darajasi ortadi va kredit olish imkoniyati pasayadi. Boshqacha aytganda, majburiyatlarning dollarlashuvi va devalvatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, balansga salbiy ta'sir ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Ayrim iqtisodchilar valyuta kursi o'zgarishining korxonalar balansi va qarz kapitali tuzilmasiga ta'sirini tadqiq qilgan holda, valyuta kursidagi keskin tebranishlar natijasida ko'riladigan zararlar miqdorini izohlashda firmaning katta-kichikligi va eksportga yo'naltirilganligi muhim ko'rsatkichlar bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi [3].

Biroq "ijobiy raqobatbardoshlik samarasi" (a positive competitiveness effect) ham mavjudki, u valyuta kursining devalvatsiyalanishi natijasida korxonalar faoliyatining samaradorligi ortishi bilan izohlanadi. Chunki devalvatsiya eksport qilinadigan tovarlar va xizmatlar narxlarini pasayishiga olib keladi va shu asosda kompaniyalarning xalqaro savdodagi raqobatbardoshligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayni paytda, valyuta bozorida kurs shakllanishining bozor mexanizmlari amal qilishiga monand tarzda almashuv kurslarida tebranishlarning ortishi ham tabiiy holdir. Bu esa milliy valyuta kursining keskin tebranishini oldini olish maqsadida Markaziy bankning intervensiyasini taqozo etadi. Bu jarayonda Markaziy bankning valyuta kursi o'rnatilishi jarayoniga aralashuvi talab vataklifga ta'sir etish orqali yuz beradi. Shu sababli Markaziy bankning intervensiyani samarali amalga oshirish salohiyati uning oltin-valyuta zaxirasihajmi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyuta siyosati samaradorligini yanada oshirish maqsadida valyuta intervensiyasini amalga oshirish instrumentlari va bozorlarini rivojlantirish zarur. Xususan, respublikamiz banklararo valyuta bozorida spot va REPO bitimlaridan intervensiya instrumenti sifatida foydalanish, muddatli valyuta bozorida esa likvidlilik va kurs bo'yicha kutilmalarga ta'sir etish uchun svop va forvard bitimlari bilan operatsiyalarni amalga oshirish zarur.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Umuman olganda, mamlakatimizda valyuta siyosatining eksportni rivojlantirishdagi rag'batlantiruvchi rolini oshirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlari valyutalariga nisbatan so'mning

real almashuv kursi oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, zaruriyat bo‘lganda jadallashtirilgan devalvatsiya siyosatini qo‘llash;

– almashuv kursi barqarorligini ta‘minlash maqsadida asosiy savdo hamkor hisoblanuvchi davlatlar markaziy banklari o‘rtasidagi valyuta likvidligini oshirishga qaratilgan valyuta svopi bitimlari liniyalarini ishga tushirish;

– kurs o‘rnatish mexanizmi shaffofligini oshirish va bu jarayonga Markaziy bank aralashuvini cheklash maqsadida birja savdolarida kurs o‘rnatishning oddiy fiksing usulidan voz kechish;

– Markaziy bankning muddatli valyuta bozoridagi valyutaviy svop va gold-svop operatsiyalarini rivojlantirish;

– respublika iqtisodiyotidagi dollarlashuv ko‘lamini qisqartirish maqsadida milliy oltin bozori rejimini belgilash va unda oltin narxi shakllanishining bozor mexanizmlarini joriy etish;

– tijorat banklari majburiyatlarining “dollarlashuvi”ni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va bunda valyuta riskinixedjirlash choralari ko‘zda tutish;

– milliy iqtisodiyotga xorijiy kapitallar oqimini rag‘batlantirish maqsadida kapitallar harakatini tartibga solish tizimini bosqichma-bosqich erkinlashtirish;

“Valyutani tartibga solish” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining yangi tahririda valyutaviy cheklovlarni qo‘llash zarur bo‘lgan holatlarni batafsil keltirish va bunda valyuta operatsiyalarini amalga oshiruvchi rezident va norezidentlarning iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazmaslikka ustuvorlik berilishini belgilab qo‘yish;

– respublikamiz tijorat banklarining mahalliy kompaniyalar tovar va xizmatlarini tashqi bozorlarda sotilishini rag‘batlantirish uchun eksport kreditlari hajmini oshirish.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Fetene Bogale Hunegnaw. (2017) Valyuta kursi va ishlab chiqarish eksporti raqobatbardoshligi // Iqtisodiy integratsiya jurnali, Vol.32 №4, 2017 yil dekabr, 891~912 <http://dx.doi.org/10.11130/jei.2017.32.4.891>

2. Friden, Jeffri; Leblang, Devid; Valev, Neven. (2010) O‘tish davridagi iqtisodiyotlarda valyuta kursi rejimlarining siyosiy iqtisodi // Xalqaro tashkilotlar sharhi, 2010 yil mart. 21-35-betlar.

3. Xose M. Benavente, Kristian A. Jonson. (2003) Qarz tarkibi va balans-valyuta kursining ta'siri: Chili uchun firma darajasidagi tahlil // Rivojlanayotgan bozorlar sharhi, 4-jild, 4-son, 2003 yil dekabr, 397-416-betlar

4. Reif, T. (2011) Valyuta inqirozlarining haqiqiy tomoni. Kolumbiya universiteti ishchi hujjati. 2011. 27 P.

5. Takashi Xanagaki va Masahiro Hori. (2015) Valyuta kursi va yapon firmalarining faoliyati: firma darajasidagi panel ma'lumotlaridan foydalangan holda dastlabki tahlil// Iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar instituti, JAPON, 2015. 47 b.

6. Tilak Abeysinghe, Tan Lin Yeok. (1998) Valyuta kursining oshishi va eksport raqobatbardoshligi. Singapur ishi// Amaliy iqtisodiyot, 1998, 30, 51-55-betlar.

7. Bekmurodov A.Sh., Jumaev N.X. (2019). Valyuta siyosatini erkinlashtirish sharoitida to'lov balansini tartibga solishning konseptual jihatlari//“UzBridge” elektron jurnali, I – son may, 2019 yil 3 – 14 sahifalar.

## KOSHI INTEGRAL FORMULASI ANALOGI.

*Asrorova Charos Baxtiyor qizi.*

*“TIQXMMI” Milliy tadqiqotlar universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar insituti, “Matematika, jismoniy tarbiya va sport” kafedrasida stajyor-o‘qituvchi.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ochiq chegaralangan to‘plamlar uchun Banax-Shteynxaus teoremasi, Koshi integral formulasi analogi, korrekt aniqlangan operatorlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Ochiq chegaralangan to‘plam, Stoks formulasi,  $X$  to‘plam, korrekt aniqlangan operator, Koshi integral formulasi analogi, Banax-Shteynxaus teoremasi.

$\Omega$  – tekislikdagi ochiq chegaralangan to‘plam bo‘lsin, uning chegarasi  $\partial\Omega$  – chekli sondagi silliq Jordan egri chiziqlaridan iborat bo‘lsin.

Quyidagi differensial formani qaraymiz:

$$\varphi = u(z)dz + Au(z)d\bar{z} = (dz + Ad\bar{z})u$$

Bu yerda  $u \in \mathbb{C}'(\bar{\Omega}, X^m)$ .

$d\varphi = \bar{\partial}_A u d\bar{z} \wedge dz$  bo‘lgani uchun Stoks formulasi  $\int_{\partial\Omega} \varphi = \int_{\Omega} d\varphi$  quyidagi ayniyatga keladi:  $\int_{\partial\Omega} (dz + Ad\bar{z})u(z) = \int_{\Omega} \bar{\partial}_A u d\bar{z} \wedge dz$  (1)

Bu formuladan quyidagi toerema kelib chiqadi.

**2.3.1-teorema.**  $u \in \mathbb{C}'(\bar{\Omega}, X^m) \cap A(\Omega, X^m)$  bo‘lsin. U holda

$$\int_{\partial\Omega} (dz + Ad\bar{z})u(z) = 0 \quad [17]$$

$\Omega_e = \{z: z \in \Omega, |z - \xi| > \varepsilon\}$  ni ( bu yerda  $0 < \varepsilon < \rho$ ,  $\rho - \xi \in \Omega$  nuqtadan  $\mathbb{C} \setminus \Omega$  gacha masofa) qo‘yamiz.

(1) formulani  $v(z) = B(z - \xi)u(z)$  funksiyaga qo‘llaymiz, bunda  $B$  operator (\*) formula orqali aniqlangan 2-namunaviy misoldan kelib chiqib,  $u \in \mathbb{C}'(\bar{\Omega}, X^{m+2})$  bo‘lganda  $v_{\bar{z}} - Av_z = B(z - \xi)(u_{\bar{z}} - Au(z))$  (2) bo‘ladi, bundan tashqari  $X^{m+2}$  ning  $X^{m+1}$  da zichligidan bu formula uzluksizlik bo‘yicha  $\forall u \in \mathbb{C}'(\bar{\Omega}, X^{m+1})$  funksiya uchun o‘rinli bo‘ladi, u holda  $u \in \mathbb{C}'(\bar{\Omega}, X^m)$ .

$$\begin{aligned} (2) \text{ va } \Omega_e \text{ ko‘ra } \int_{\Omega_e} (v_{\bar{z}} - Av_z) d\bar{z} \wedge dz &= \int_{\Omega_e} B(z - \xi)(u_{\bar{z}} - Au(z)) d\bar{z} \wedge dz = \\ \int_{\partial\Omega_e} (dz + Ad\bar{z}) B(z - \xi)u(z) &= \\ &= \int_{\partial\Omega} (dz + Ad\bar{z}) B(z - \xi)u(z) - \int_{|z-\xi|=e} (dz + Ad\bar{z}) B(z - \\ \xi)u(z) & \quad (3). [17] \end{aligned}$$

Oxirgi integralni  $I_e$  deb belgilaymiz, uni hisoblash uchun  $z = \xi + \varepsilon e^{i\theta}$ ,  $\theta \in [0, 2\pi]$  belgilash kiritamiz.

U holda  $dz = i\vartheta e^{i\theta} d\theta$ ,  $d\bar{z} = -i\vartheta e^{i\theta} d\theta$ ,

$$B(z - \xi)|_{|z-\xi|=\vartheta} = \vartheta^{-1}(e^{i\theta} + e^{-i\theta} A)^{-1},$$

va bundan

$$\begin{aligned} I_{\vartheta} &= i \int_0^{2\pi} (e^{i\theta} - e^{-i\theta} A) (e^{i\theta} + e^{-i\theta} A)^{-1} u(\xi + \vartheta e^{i\theta}) d\theta \\ &= i \int_0^{2\pi} (e^{i\theta} - e^{-i\theta} A) (e^{i\theta} + e^{-i\theta} A)^{-1} u(\xi) d\theta + \\ &+ i \int_0^{2\pi} (e^{i\theta} - e^{-i\theta} A) (e^{i\theta} + e^{-i\theta} A)^{-1} [u(\xi + \vartheta e^{i\theta}) - u(\xi)] d\theta = I_1 + I_2 \end{aligned}$$

Ravshanki,

$$\|I_2\|_m \leq C(1 + \|A\|_{Z(X^m)}) \int_0^{2\pi} \|u(\xi + \vartheta e^{i\theta}) - u(\xi)\|_{m+1} d\theta \rightarrow 0$$

$c \rightarrow 0$  da  $u \in \mathbb{C}'(\bar{\Omega}, X^{m+1})$ . bu yerda quyidagi faktdan foydalandik.

$R(\lambda) \in L(X^{m+1}, X^m)$ ,  $|\lambda| = 1$  operatorlarning  $\lambda$  bo'yicha kuchli uzluksizlikka ega ekanligidan Banax-Shteynxaus teoremasiga ko'ra  $\exists C = C_m$  konstanta mavjudki,

$$\|R(\lambda)u\|_m \leq C_m \|u\|_{m+1}, \forall u \in X^{m+1}.$$

$I_1$  ni hisoblash uchun, e'tibor bersak

$$\int_0^{2\pi} \frac{e^{i\theta} - e^{-i\theta} \lambda}{e^{i\theta} + e^{-i\theta} \lambda} d\theta = 2\pi, \lambda \in \mathbb{C}, |\lambda| < 1$$

$$\text{Demak, agar } \varphi_r(\lambda, \theta) = \frac{e^{i\theta} - e^{-i\theta} r}{e^{i\theta} + e^{-i\theta} r}, 0 \leq r \leq 1 \quad (4) \quad [17]$$

desak  $\varphi_r(A, \theta) \in L(X)$  operator  $X$  da korrekt aniqlangani kelib chiqadi, shu bilan birga

$$\psi_r(A) = \int_0^{2\pi} \varphi_r(A, \theta) d\theta \text{ operator (4)ga ko'ra } 2\pi E \text{ ga teng.}$$

Demak, biz ko'rsatdikki

$$\psi_r(A)u = 2\pi u, \forall u \in X \quad (5). \Rightarrow r \rightarrow 1 \text{ da } X \text{ da kuchli limit mavjud:}$$

$$\psi(A)u = \lim \psi_r(A)u, \text{ va (5) ga ko'ra } \psi(A)u = 2\pi u \text{ bo'ladi.}$$

Shunday qilib, ko'rsatdikki

$$I_1 = 2\pi i u(\xi) \quad (6) \quad [17]$$

(3) formulada  $\varepsilon \rightarrow 0$  ga limitga o'tib va (6) ni hisobga olgan holda quyidagi teoremani keltiramiz.

**2.3.2-teorema..** *Biror  $m \geq 0$  uchun  $u \in \mathbb{C}'(\bar{\Omega}, X^{m+1})$  bo'lsin. U holda  $\forall \xi \in \Omega$  uchun*

$$u(\xi) = (2\pi i)^{-1} \left\{ \int_{\partial\Omega} (dz + Ad\bar{z}) B(z - \xi) u(z) + \int_{\Omega} B(z - \xi) \bar{\partial}_A u d\bar{z} \wedge dz \right\}.$$

Bundan Koshi integralining analogi hosil bo'ladi.

**2.3.3-teorema..**  *$u \in \mathbb{C}'(\bar{\Omega}, X^{m+1}) \cap A(\Omega, X^m)$  va  $\xi \in \Omega$  bo'lsin. U holda*

$$u(\xi) = (2\pi i)^{-1} \int_{\partial\Omega} (dz + Ad\bar{z}) B(z - \xi) u(z). \quad [17]$$



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Садуллаев А. “Теория плюрипотенциала. Применения”, часть 1, часть 2, “Palmarium Academic Publishing” 2012г.
2. Xudoyberganov G., Varisov A., Mansurov N. Kompleks analiz, T. “Universitet”, 1998y.
3. Жабборов Н.М., Имомназаров Х.Х. Некоторые начально-краевые задачи механики двухскоростных сред, Т. “Университет”, 2012 г.
4. Жабборов Н.М., Отабоев Т.У. Теорема Коши для  $A(z)$ -аналитических функций. Узбекский математический журнал, 2014 г.
5. Жабборов Н.М., Отабоев Т.У., Аналог интегральной формулы Коши для  $A$ -аналитических функций, Узбекский математический журнал, (нашрда).
6. Шабат Б.В. Введение в комплексный анализ, часть 1, М., “Наука”, 1985г.
7. W.K. Hayman and P.B. Kennedy, “Subharmonic functions”, Academic Press, 1976y.
8. Maciej Klimek. “Pluripotential theory”, Oxford science publications, 1991y.
9. Секефальви-Надь Б, Фояш Ч. Гармонический анализ операторов в гильбертовом пространстве. М.: Мир, 1970.
10. Лаврентьев М.М, Савельев Л.Я. “Линейные операторы и некорректные задачи”, М.Наука, 1992г.
11. Arbuzov E.V., Bukhgeim A.L. “Carleman’s formulas for  $A$ -analytic functions in a half-plane”, J.Inv.III-Posed Problems, 1997.

**Koshi integral formulasi analogi.****Asrorova Charos Baxtiyor qizi.**

**“TIQXMMI” Milliy tadqiqotlar universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar insituti, “Matematika, jismoniy tarbiya va sport” kafedrasida stajyor-o‘qituvchi.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ochiq chegaralangan to‘plamlar uchun Banax-Shteynxaus teoremasi, Koshi integral formulasi analogi, korrekt aniqlangan operatorlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Ochiq chegaralangan to‘plam, Stoks formulasi,  $X$  to‘plam, korrekt aniqlangan operator, Koshi integral formulasi analogi, Banax-Shteynxaus teoremasi.

$\Omega$  – tekislikdagi ochiq chegaralangan to‘plam bo‘lsin, uning chegarasi  $\partial\Omega$  - chekli sondagi silliq Jordan egri chiziqlaridan iborat bo‘lsin.

Quyidagi differensial formani qaraymiz:

$$\varphi = u(z)dz + Au(z)d\bar{z} = (dz + Ad\bar{z})u$$

Bu yerda  $u \in \mathbb{C}'(\bar{\Omega}, X^m)$ .

$d\varphi = \bar{\partial}_A u d\bar{z} \wedge dz$  bo'lgani uchun Stoks formulasi  $\int_{\partial\Omega} \varphi = \int_{\Omega} d\varphi$  quyidagi ayniyatga keladi:  $\int_{\partial\Omega} (dz + Ad\bar{z})u(z) = \int_{\Omega} \bar{\partial}_A u d\bar{z} \wedge dz$  (1)

Bu formuladan quyidagi toerema kelib chiqadi.

**2.3.1-teorema.**  $u \in \mathbb{C}'(\bar{\Omega}, X^m) \cap A(\Omega, X^m)$  bo'lsin. U holda

$$\int_{\partial\Omega} (dz + Ad\bar{z})u(z) = 0 \quad [17]$$

$\Omega_e = \{z: z \in \Omega, |z - \xi| > \varepsilon\}$  ni ( bu yerda  $0 < \varepsilon < \rho$ ,  $\rho - \xi \in \Omega$  nuqtadan  $\mathbb{C} \setminus \Omega$  gacha masofa) qo'yamiz.

(1) formulani  $v(z) = B(z - \xi)u(z)$  funksiyaga qo'llaymiz, bunda  $B$  operator (\*) formula orqali aniqlangan 2-namunaviy misoldan kelib chiqib,  $u \in \mathbb{C}'(\bar{\Omega}, X^{m+2})$  bo'lganda  $v_{\bar{z}} - Av_z = B(z - \xi)(u_{\bar{z}} - Au(z))$  (2) bo'ladi, bundan tashqari  $X^{m+2}$  ning  $X^{m+1}$  da zichligidan bu formula uzluksizlik bo'yicha  $\forall u \in \mathbb{C}'(\bar{\Omega}, X^{m+1})$  funksiya uchun o'rinli bo'ladi, u holda  $u \in \mathbb{C}'(\bar{\Omega}, X^m)$ .

$$\begin{aligned} (2) \text{ va } \Omega_e \text{ ko'ra } \int_{\Omega_e} (v_{\bar{z}} - Av_z) d\bar{z} \wedge dz &= \int_{\Omega_e} B(z - \xi)(u_{\bar{z}} - Au(z)) d\bar{z} \wedge dz = \\ &= \int_{\partial\Omega_e} (dz + Ad\bar{z}) B(z - \xi)u(z) = \\ &= \int_{\partial\Omega} (dz + Ad\bar{z}) B(z - \xi)u(z) - \int_{|z-\xi|=\varepsilon} (dz + Ad\bar{z}) B(z - \\ &\xi)u(z) \quad (3). [17] \end{aligned}$$

Oxirgi integralni  $I_e$  deb belgilaymiz, uni hisoblash uchun  $z = \xi + \varepsilon e^{i\theta}$ ,  $\theta \in [0, 2\pi]$  belgilash kiritamiz.

U holda  $dz = i\varepsilon e^{i\theta} d\theta$ ,  $d\bar{z} = -i\varepsilon e^{i\theta} d\theta$ ,

$$B(z - \xi)|_{|z-\xi|=\varepsilon} = \varepsilon^{-1}(e^{i\theta} + e^{-i\theta} A)^{-1},$$

va bundan

$$\begin{aligned} I_{\varepsilon} &= i \int_0^{2\pi} (e^{i\theta} - e^{-i\theta} A) (e^{i\theta} + e^{-i\theta} A)^{-1} u(\xi + \varepsilon e^{i\theta}) d\theta \\ &= i \int_0^{2\pi} (e^{i\theta} - e^{-i\theta} A) (e^{i\theta} + e^{-i\theta} A)^{-1} u(\xi) d\theta + \\ &+ i \int_0^{2\pi} (e^{i\theta} - e^{-i\theta} A) (e^{i\theta} + e^{-i\theta} A)^{-1} [u(\xi + \varepsilon e^{i\theta}) - u(\xi)] d\theta = I_1 + I_2 \end{aligned}$$

Ravshanki,

$$\|I_2\|_m \leq C(1 + \|A\|_{Z(X^m)}) \int_0^{2\pi} \|u(\xi + \varepsilon e^{i\theta}) - u(\xi)\|_{m+1} d\theta \rightarrow 0$$

$\varepsilon \rightarrow 0$  da  $u \in \mathbb{C}'(\bar{\Omega}, X^{m+1})$ . bu yerda quyidagi faktdan foydalandik.

$R(\lambda) \in L(X^{m+1}, X^m)$ ,  $|\lambda| = 1$  operatorlarning  $\lambda$  bo'yicha kuchli uzluksizlikka ega ekanligidan Banax-Shteynxaus teoremasiga ko'ra  $\exists C = C_m$  konstanta mavjudki,

$$\|R(\lambda)u\|_m \leq C_m \|u\|_{m+1}, \forall u \in X^{m+1}.$$

$I_1$  ni hisoblash uchun, e'tibor bersak

$$\int_0^{2\pi} \frac{e^{i\theta} - e^{-i\theta}\lambda}{e^{i\theta} + e^{-i\theta}\lambda} d\theta = 2\pi, \lambda \in \mathbb{C}, |\lambda| < 1$$

$$\text{Demak, agar } \varphi_r(\lambda, \theta) = \frac{e^{i\theta} - e^{-i\theta}r}{e^{i\theta} + e^{-i\theta}r}, 0 \leq r \leq 1 \quad (4) \quad [17]$$

desak  $\varphi_r(A, \theta) \in L(X)$  operator  $X$  da korrekt aniqlangani kelib chiqadi, shu bilan birga

$$\psi_r(A) = \int_0^{2\pi} \varphi_r(A, \theta) d\theta \text{ operator (4)ga ko'ra } 2\pi E \text{ ga teng.}$$

Demak, biz ko'rsatdikki

$$\psi_r(A)u = 2\pi u, \forall u \in X \quad (5). \Rightarrow r \rightarrow 1 \text{ da } X \text{ da kuchli limit mavjud:}$$

$$\psi(A)u = \lim \psi_r(A)u, \text{ va (5) ga ko'ra } \psi(A)u = 2\pi u \text{ bo'ladi.}$$

Shunday qilib, ko'rsatdikki

$$I_1 = 2\pi i u(\xi) \quad (6) \quad [17]$$

(3) formulada  $\varepsilon \rightarrow 0$  ga limitga o'tib va (6) ni hisobga olgan holda quyidagi teoremani keltiramiz.

**2.3.2-teorema..** Biror  $m \geq 0$  uchun  $u \in \mathbb{C}'(\bar{\Omega}, X^{m+1})$  bo'lsin. U holda  $\forall \xi \in \Omega$  uchun

$$u(\xi) = (2\pi i)^{-1} \left\{ \int_{\partial\Omega} (dz + Ad\bar{z}) B(z - \xi) u(z) + \int_{\Omega} B(z - \xi) \bar{\partial}_A u d\bar{z} \wedge dz \right\}.$$

Bundan Koshi integralining analogi hosil bo'ladi.

**2.3.3-teorema..**  $u \in \mathbb{C}'(\bar{\Omega}, X^{m+1}) \cap A(\Omega, X^m)$  va  $\xi \in \Omega$  bo'lsin. U holda

$$u(\xi) = (2\pi i)^{-1} \int_{\partial\Omega} (dz + Ad\bar{z}) B(z - \xi) u(z). \quad [17]$$

#### Фойдаланилган адабиётлар рo'yxати

1. Садуллаев А. “Теория плюрипотенциала. Применения”, часть 1, часть 2, “Palmarium Academic Publishing” 2012г.
2. Худойберганов G., Varisov A., Mansurov H. Kompleks analiz, T. “Universitet”, 1998y.
3. Жабборов Н.М., Имомназаров Х.Х. Некоторые начально-краевые задачи механики двухскоростных сред, Т. “Университет”, 2012 г.
4. Жабборов Н.М., Отабоев Т.У. Теорема Коши для  $A(z)$ -аналитических функций. Узбекский математический журнал, 2014 г.
5. Жабборов Н.М., Отабоев Т.У., Аналог интегральной формулы Коши для  $A$ -аналитических функций, Узбекский математический журнал, (нашрда).
6. Шабат Б.В. Введение в комплексный анализ, часть 1, М., “Наука”, 1985г.
7. W.K. Hayman and P.V. Kennedy, “Subharmonic functions”, Akademik Press, 1976y.
8. Maciej Klimek. “Pluripotential theory”, Oxford science publications, 1991y.
9. Секефальви-Надь Б, Фояш Ч. Гармонический анализ операторов в гильбертовом пространстве. М.: Мир, 1970.

10. Лаврентьев М.М, Савельев Л.Я. “Линейные операторы и некорректные задачи”, М.Наука,1992г.
11. Arbuzov E.V., Bukhgeim A.L. “Carleman’s formulas for A-analytic functions in a half-plane”, J.Inv.III-Posed Problems, 1997.

## TIBBIYOT XODIMLARI ETIKA VA DEONTOLOGIYA

*Boymirzayeva Xurshida Sobirovna*  
*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti*  
*Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi*

### ANNOTATSIYA

Tibbiy etika bu etikaning falsafiy intizomi bo'limi bo'lib, uning tadqiqot ob'ekti tibbiyotning axloqiy-axloqiy jihatlarini hisoblanadi. Tibbiy etika uchta asosiy yo'nalish bo'yicha shaxslararo munosabatlarni va ular orasidagi turli muammolarini hal qilishni o'rganadi: 1. tibbiy xodim-bemor, 2. tibbiy xodim-bemorning qarindoshlari, 3. Tibbiy xodim-tibbiy xodim. Tibbiyot sohasidagi har qanday ishchi shafqat, mehribonlik, sezgirlik va javobgarlik, bemorga g'amxo'rlik va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Tibbiyot deontologiyasi tibbiyot xodimlaridan yuksak insoniy fazilatlar, sofdillik, ziyraklik, odamiylik va boshqalarga ega bo'lishni taqozo etadi.

**Kalit so'zlar:** tibbiy etika, axloq, tibbiy xodim, deontologiya, kasbiy etika, yaxshilik, adolat, qadr-qimmat, Hippokrat modeli, Paracelsus modeli, Biotibbiyot modeli.

### ANNOTATION

Medical ethics is a branch of the philosophical discipline of ethics, the object of its research is the ethical and moral aspects of medicine. Medical ethics studies interpersonal relations and solving various problems between them in three main directions: 1. medical worker-patient, 2. medical worker-patient's relatives, 3. medical worker-medical worker. Any worker in the medical field should be treated with compassion, kindness, sensitivity and responsibility, care and attention to the patient. Medical deontology requires medical workers to have high human qualities, honesty, intelligence, humanity, etc.

**Key words:** medical ethics, morality, medical worker, deontology, professional ethics, goodness, justice, dignity, Hippocrates model, Paracelsus model, Biomedical model.

Tibbiy etika bu etikaning falsafiy intizomi bo'limi bo'lib, uning tadqiqot ob'ekti tibbiyotning axloqiy-axloqiy jihatlarini hisoblanadi. Hozirgi vaqtda bu ikki atama — «tibbiyot etikasi» va tibbiyot deontologiyasi» yonma-yon qo'llaniladi. Etika – hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biri. Muammoni hal qilishda uni har tomonlama yoritish talab qilinmaydi, balki hozirgi etikaning asosiy muammolarini va prinsiplari haqida umumiy ma'lumot berishdan, bo'lg'usi yosh avlodga ijtimoiy va ma'naviy mas'uliyat, mehr-shavqat tuyg'ularini tarbiyalashni, insonparvarlikni shakllantirishga ko'maklashishdan iborat. Zamonaviy g'oyalarga ko'ra, tibbiy etika

quyidagi jihatlarni qamrab oladi. Ilmiy - tibbiyot xodimlarining axloqiy-ma'naviy jixatlarini o'rganadigan tibbiyot fanining sohasi, Kasbiy - amaliyotda axloq me'yorlari va qoidalarini shakllantirish va qo'llash masalalari bo'lgan tibbiy amaliyot sohasi. Tibbiy etika uchta asosiy yo'nalish bo'yicha shaxslararo munosabatlarni va ular orasidagi turli muammolarini hal qilishni o'rganadi: 1. tibbiy xodim- bemor, 2. tibbiy xodim - bemorning qarindoshlari, 3. tibbiy xodim - tibbiy xodim. Tibbiyot sohasidagi har qanday ishchi shafqat, mehribonlik, sezgirlik va javobgarlik, bemorga g'amxo'rlik va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Ibn Sino bemorga alohida yondashuv haqida: "Siz har bir kishining shaxsan o'ziga xos tabiati borligini bilishingiz kerak. Hech kimga o'xshamaydigan noyob bemor sifatida qarash kerak". Bu so'z nafaqatnutq madaniyatini, balki hushmuomalalik hissi, bemorning kayfiyatini ko'tarish, uni ehtiyotkorona ifodalash bilan jarohatlamaslik ma'nosini anglatadigan so'zdir. Tibbiyot etikasi- bu amaliy tibbiyot etikasi, bioetikasining tarkibiy qismi bo'lib, u tibbiyotning xususiy etik muommolarini yechishga qaratilgan. Biomedikal etikada muammolarni hal qilishga yordam beradigan bir qancha printsiplar mavjud:

- Yaxshilik - amaliyotchi bemorning manfaati uchun harakat qilishi kerak.
- Xiyonat qilmaslik-"Birinchidan, zarar qilma"
- Avtonomiya - bemor davolanishdan bosh tortish yoki tanlash huquqiga ega.
- Adolat - sog'liqni saqlash resurslarining taqsimlanishi va kimga qanday davolanish kerakligini hal qilish.
- Qadr -qimmat - bemor (va bemorni davolayotgan odam) qadr -qimmatga ega bo'lish huquqiga ega.
- Rostgo'ylik va halollik - bemorni aldamaslik kerak va ular kasalliklari va davolanishi haqida butun haqiqatni bilishga loyiqdir

Deontologiyasida uzoq tarix davomida ko'plab axloqiy tamoyillar aniq shakllantirilgan qoidalar, shifokor uchun xulq-atvor normalari shakllangan. Tibbiyot deontologiyasi tibbiyot xodimlaridan yuksak insoniy fazilatlar, sofdillik, ziyraklik, odamiylik va boshqalarga ega bo'lishni taqozo etadi. Tibbiyot deontologiyasi xalqaro kodeksini Xalqaro vrachlar jamiyati tasdiqlangan (1949, Jeneva). O'zbekiston Respublikasida tibbiyot institutini bitiruvchilar „O'zbekiston shifokori“ning qasamyodini qabul qiladilar (1996-yildan).Shifokorning bemor bilan munosabati. Bu yerda tibbiy etika va tibbiy deontologiya eng katta ahamiyatga ega. Haqiqat shundaki, ularga rioya qilmasdan, bemor va shifokor o'rtasida ishonchli munosabatlar o'rnatilishi ehtimoldan yiroq emas va bu holda kasal odamni tiklash jarayoni sezilarli darajada kechiktiriladi.

Tarixiy nuqtayi nazardan tibbiyot etikasining to'rtta asosiy modeli mavjud:

1. Gippokrat modeli ("Qasam"."Qonun xalqida" va b.) "Zarar yetkazma" - Gippokrat ifodalab bergan bosh etik talab bo'lib, uning axloqiy mazmun mohiyati bu fundamental tibbiyotning inson hayotini qilishdagi kafolatidir.

2. Paratsels modeli shifokorning bemorga bo'lgan axloiy munosabatini "Yaxshilik qil" talabi nuqtayi nazaridan belgilaydi. Insonparvarlik, rahmdillik va muruvvat kabi etik prinsiplar birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib oldinga chiqadi.

3. Tibbiyot etikasining deontologik modeli 18-asrning oxiri va 19-asrning boshlarida shakllangan bo'lib, bu model shifokorning fe'l-atvorida axloqiy benuqsonlikni talab qiladi.

4. Biotibbiyot modeli inson huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qilish prinsiplariga ishlangan bo'lib, bemor avtonomiyasi, xabar berilgan rozilik, maxfiylik va haqqoniylik ushbu modelning bosh prinsiplari. Deontologiya, ya'ni kishining xulqi, odobi haqidagi tushuncha 16-asrning boshlarida ingliz faylasufi va iqtisodchisi I. Bentam tomonidan taomilga kiritilgan. Tibbiyot deontologiyasiga oid ma'lumotlar uzoq tarixga ega. Aslida, Tibbiyot deontologiyasi keng falsafiy mazmunga ega bo'lib, bir qancha yo'nalishlardan iborat: — shifokor bilan bemor o'rtasidagi; — shifokor bilan bemorning yaqin kishilari o'rtasidagi munosabat; — shifokorning hamkasblari bilan munosabati va h.k. Tibbiyot deontologiyasiga vrachning sir saklashi, bemorning hayoti va sog'lig'i uchun tibbiyot xodimining javobgarligi, tibbiyot xodimlarining o'zaro munosabati masalalari va boshqa kiradi.

**Xulosa:** Xulosa qilib shuni aytish mumkin: Shifokor va bemor o'rtasida o'zaro tushunishni o'rnatishning eng muhim shartlaridan biri bu tuyg'u qo'llab quvvatlash. Agar bemor shifokor yordam berishni emas, balki yordam berishni niyat qilganini tushunsa, u davolanish jarayonida faolroq ishtirok etishi mumkin.

3. Muxamedova Z.M., Umirzakova N.A. Bioetik atamalarning izohli lug'ati. Toshkent. 2020 y.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muxamedova Z.M., Umirzakova N.A. "BIOETIKA" o'quv qo'llanma. T.2020.
2. Юлдашев Н. М., Сайдалиходжаева О.З., Саидов А.Б. "Биоэтика", Учебник. Ташкент.2018.
3. Muhammedova Z.M., Rizayev J.A., Maxmudova A.N., "Bioetika" Tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik, Toshkent. 2021y.
4. Bioetika va inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (YUNESKO, 2005);
5. Мухамедова З.М. Актуальные проблемы развития биоэтической культуры населения. Сб.-к мат-в Меж. рег науч.практ.сем.тренинга "Биоэтическая [экспертиза в биологии](#), медицине и образовании." Душанбе: Азия Принт, 2010.317с. С.196- 202
6. Мухамедова З.М. Роль биоэтических комитетов в обеспечении гарантий социальной защиты и безопасности здоровья в Узбекистане. Бюллетень ассоциации врачей Узбекистана №2 2014 Т. С. 96-100
7. Биомедицинская этика: Практикум /Под общ. ред. С.Д.Денисова, Я.С.Яскевич – Мн.: БГМУ, 2011. Bioetika va inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (YUNESKO, 2005);

## SUYAKLARNING CHIQISHI VA SINISHNING BELGILARI VA ULARNI MALHAM VA SURTMALAR YORDAMIDA DAVOLASH USULLARI HAQIDA (QOL,KAFT,BILAK,SON,TIZZA QOPQOG‘I MISOLODA)

*Shaxriyev Zakariya Murodbek o‘g‘li*

*Buxoro innovatsion Ta‘lim va Tibbiyot universiteti  
Davolash ishi yo‘nalishi 1-kurs 5D23 guruh talabasi.*

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada tibbiy muassasalarda qo‘l, kaft, bilak, son, tizza qopqog‘i suyaklarning chiqishi va sinishning belgilarini aniqlash va ularni malham va surtmalar yordamida davolash usullari haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek shifokor bemor bilan muloqot jarayonida qanday psixik yondashish kerakligi va o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi fikrlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Muloqot, bemor, qo‘l, kaft, bilak, son, tizza qopqog‘i, suyaklar chiqishi, parvarish.

**АННОТАЦИЯ.** В статье описаны методы выявления признаков вывихов и переломов костей кисти, ладони, запястья, бедра, коленной чашечки в медицинских учреждениях и их лечение с помощью мазей и растираний. Также освещены мысли о том, какой психологический подход следует использовать в процессе общения врача и пациента и его особенности.

**Ключевые слова:** Общение, пациент, рука, ладонь, запястье, бедро, коленная чашечка, костная шпора, уход.

**ABSTRACT.** This article describes the methods of identifying the signs of dislocations and fractures of the bones of the hand, palm, wrist, hip, and knee cap in medical institutions and their treatment with the help of ointments and rubs. Also, the thoughts about what kind of psychological approach should be taken in the process of communication between the doctor and the patient and its features are highlighted.

**Key words:** Communication, patient, hand, palm, wrist, hip, knee cap, bone spur, care.

### **Kirish.**

Chiqish suyakning o‘z joyidan va tabiiy vaziyatidan bir tomonga qarab butunlay chiqishidir va bu xolatni ushlab sezib bilib olish kerak bo‘ladi, agar bo‘g‘imga yetgan aziyat suyakni qo‘zg‘atmasa lekin uning atrofi ezilgan bo‘lsa buni pay chozilishi deyiladi lekin bog‘im chiqish darajasiga borib yetmasa ham chiqish oson bo‘lib qoladi. Ko‘pincha bu xolat bilak va sonda yuz beradi chunki bazi kishilarnig bog‘im suyaglarinig chuqurchasi yuza bo‘lib chuqurchalarga kirib turadigan suyak boshchalari yaxshi kirmay qoladi va bu suyak boshchalari bilan o‘rab turgan muskulli iplarni



bo'shashtirib ularni toraytirishga olib keladi va bu vaziyatda bemorlarda suyak boshchasi kirib turgan chuqurchasidan chiqish holatlariga ko'p duch kejamiz.

Bazi bo'g'imalarning joydan chiqishi oson bazilarniki esa qiyin, va bazilarniki o'rtacha bo'ladi. Chiqishi oson bo'lgan bo'g'imlar; son, tizza bo'g'imlaridir. Chunki ularning bog'lov bo'g'imlari va muskullari yumshoq va silliq bo'ladi shuning uchun ularni ushlab turuvchi tizza kosasi vazifani bajaradi. Oriq kishilarning yelka bo'g'imi va tizza bo'g'imining chiqishi semiz odamlarga qaraganda osonroq va ko'p uchraydi, ayniqsa yosh bolalarda ko'proq uchraydi chunki ularning suyaklarda o'suvchi qismi suyagdan emas balki to'g'aylardan tashkil topgan o'sha uchun yosh bolalarga ko'proq vaqt ajratish maqsadga muvofiqdir.

Chiqishi qiyin bo'lgan bo'g'imlarga barmoq bo'g'imlari misol bo'ladi, chunki barmoq bo'g'imlari deyarli chiqmaydi balki ular sinasini sinadiki ammo chiqmaydi, tirsak bo'g'imi ham shunday, shuning uchun ularni joyiga qaytarib kirgizish ham qiyin ishdir.

Chiqish va qaytishda o'rtacha bo'g'imlarga kelganda bunga son boshi bo'g'imi misol bo'ladi goxo chiqishi qiyin bo'lgan bo'g'im biror sababga ko'ra osonlik bilan chiqadi va uni joyiga qaytarish ham osonroq bo'ladi. Masalan; son boshi chuqurchasi rutubat bilan tursa, bo'g'im chiqishi osonlashadi shu bilan birga uni joyiga qaytib kirdizish ham oson bo'ladi. Irqunnos kasaligiga uchragan kishilarda shunday bo'lib, son boshi bo'g'im dam-badam chiqib turadi. Ozgina urinish bilan joyga qaytadi so'ngra tog'ay chiqib yana qaytadi bunday bo'g'imni bog'lashga muxtoj bo'lib boshqa narsa bilan tuzatib bo'lmaydi. Agar suyak chiqqanda suyakni suyakka biriktirib turgan mayda paylarning uchi ham uzilsa unday chiqishning joyga qatrarish juda qiyin bo'ladi. Bunday chiqish son boshi bo'g'imida so'ng yelka boshida va oyoq topiklarida ko'proq uchraydi. Agar chiqqan bo'g'im joyga qaytarilmasa, tuzatilmagan sinishdan ko'ra yomonroq hisoblanadi.

Suyak chiqqanligining umumiy belgilari:

Bo'g'imda odaddagidan tashqari puchayish va chuqur tushish yuz beradi. Masalan yelka suyagi va boqsa bo'g'imi chiqqanda bu holat ochiq oydin ko'rinib turadi, bo'yin bo'g'imi chiqqanda esa juda aniq ko'rinadi.

Solishtirib ko'rish buni yaxshi aniqlab beruvchi usullardir. Zararlangan bo'g'imni boshqa kishining bo'g'imi bilan emas balki osha bemorning boshqa shu kabi sog'lom bo'g'imi bilan solishtirib ko'riladi. Kasallangan bo'g'im agar harakat qilolmasa batamon chiqqanligiga xulosa qilinadi. Agar u turli tumanga qarab harakat qilib ilgari otadigan joylarga yeta olsa unda chiqishga aloqador kasallik bo'lmaydi.

Demak suyaklarning va bo'gimlarning chiqishi va suyaklarning sinishida ularni qayta o'z holiga kelishi ancha vaqt ketar ekan. Ammo bu vaqt ichida bemorning jaroxatini tuzalishiga bo'lgan vaqtini kamaytirish yoki ko'p vaqt ketganligi uchun

suyakning buzulishini oldinini olish maqsadda malhamlari yoki surtmalar va dorilardan foydalanish kerak bo'ladi.

Bu surtmalarning bazilari sishga to'sqinlik qilib qichishni to'xtatish uchun, bazilari esa qadoqni maxkam va kuchli qilish uchun, bazilari kattalashib ketgan qadoqni mutadillashtirish uchun, bazilari singan suyak tuzalgandan keyin bo'g'imda paydo bo'ladigan qattiqlikni ketkazish uchun, bazilari esa bo'g'implarda bo'shish yoki bo'lsa uni yo'qotish uchun ishlatiladi.

Suyak qadog'ini maxkamlash uchun ishlatiladigan surtmalar. Burishtiruvchi latif dorilarni quyish va shularga o'xshash quyuyq surtmalarni bog'lash bu jixatdan foydalidir. Masalan: mirta qaynatmasi, agar yog'larga extiyoj bo'lsa mirtaning yog'i, xina yog'i, mirta bargi va donining suvi bilan tayorlangan surtma, misr akatsiyasi daraxtinig qaynatmasi, qayrag'och ildizi va bargaining qatnatmasi esa bu keyingisi qadoqni bituruvchisi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda quyuyq surtma juda yaxshi natija beradi. Xurmo guluning qobig'i xam yaxshidir. Biz hech qachon shuni unutmashligimiz kerakki jaroxat olgan bemorni qayta tiklash va tuzatish uchun unga eng kerakli narsa bu vaqt, sabr, va oziq ovqatlardir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar :

1. T.O. Xudoynazarovich, E. A., & Ulug'bekovich, X. O. (2023). BEMORLARDAGI JARROHLIK OPERATSIYASIDAN OLDINGI VA KEYINGI PSIXOEMOTSIONAL HOLATLAR. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 18(1), 89-92shkent - 2003 y.
2. I.S. Razikova, M.A.Mirpayzieva, Z.S.Umarova "MULOQOT KO'NIKMALARI VA HAMSHIRANING SHAHSIY XUSUSIYATLARI" o'quv qo'llanma.
3. Gadoyev, I. N. (2022). TA'LIM MUASSASALARIDA TASVIRIY SAN'AT FANLARINI O'QITISH METODIKASI. *Innovative Development in Educational Activities*, 1(6), 203-210.
4. Niyazovish, G. I. (2021). WAYS OF USE OF MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN FINE ARTS CLASSES AND THROUGH THE IMPROVEMENT OF IDEAS OF NATIONAL INDEPENDENCE TO STUDENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 234-237.
5. Niyozovich, G. I. (2023). IQTISOSLASHGAN MADANIYAT MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA MANZARA JANIRINI O'QITISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Research and Publication*, 1(1), 4-9.

## АХОЛИНИНГ TURMUSH DARAJASINI O'RGANISHNING ILMIY ASOSLARI

*Toshimova Z.*

*Qarshi davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turmush darajasining tanlangan ko'rsatkichlarining tushuntirish kuchini baholashga, ularning farqlari va munosabatlarini ta'kidlashga va ilmiy mohiyatini asoslashga qaratilgan. Asosiy maqsadi - turmush darajasini baholashda ta'sir qilishi mumkin bo'lgan omillarni ilmiy va nazariy jihatdan o'rganishdir.

**Kalit so'zlar:** Turmush darajasi, ko'rsatkichlar, hayot sifati, aholi statistikasi, ijtimoiy hayot..

Aholining turmush darajasini oshirish ko'pchilik mamlakatlarning strategik rejalashtirish hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yakuniy maqsadidir. Xalqaro tashkilotlar, milliy va mintaqaviy tadqiqot tashkilotlari, davlat hokimiyati va mahalliy hokimiyat organlari hayot sifati muammolarini o'rganmoqda.

“Aholi turmush darajasi” muhim iqtisodiy kategoriya bo'lib, murakkab, ko'pqirrali jarayonni aks ettiradi. Shuning uchun ham aholi turmush darajasini aks ettirish uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bu ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- aholining daromadlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar;
- aholining xarajatlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar;
- daromadlarini differensiyallash, kambag'allik darajasi va uning chegarasi singari ko'rsatkichlar kiradi.

“Turmush darajasi” tushunchasi va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini rivojlantirishda Birlashgan millatlar tashkiloti sezilarli hissa qo'shdi. 1960 yilda BMTning ishchi guruhi global miqyosda turmush darajasini aniqlash va o'lchash tamoyillari haqida hisobot tayyorladi. Bu keng qamrovli tizimni yaratish yo'lidagi dastlabki qadam edi. BMTning xalqaro statistika sohasidagi turmush darajasi ko'rsatkichlarining oxirgi versiyasi 1978-yilda ishlab chiqilgan va 12 ta asosiy yo'nalishni qamrab olgan [1, 5]. Bugungi kunda ham mazkur xalqaro tashkilot tomonidan dunyo aholisi turmush darajasini oshirish va kambag'allikdan aziyat chekayotgan mamlakatlarga ko'maklashish maqsadida qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, BMTning Bosh assambleyasida 2000 yilda qabul qilingan “Ming yillik rivojlanish dasturi” hamda 2015 yilda tasdiqlangan “2030 yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi” bevosita dunyo mamlakatlari

aholisini iqtisodiy-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ekologiya buzilishining oldini olgan holda, aholining salomatligini asrashga qaratilgan muhim tadbirlar sirasiga kiradi.

BMT Inson taraqqiyoti indeksi e'lon qilingan yillik hisobotlarni chiqarishni boshladi. Ushbu indeks ko'pincha aholining hayot sifatini baholashda qo'llaniladi. Inson taraqqiyoti indeksi bo'yicha 2022-yilda yetakchi o'rinlarni Norvegiya, Irlandiya, Shveysariya, Gonkong (Xitoy), Islandiya, Germaniya, Shvetsiya, Avstraliya, Niderlandiya va Daniya egallagan. Inson taraqqiyoti indeksi eng past bo'lgan davlatlar: Niger, Markaziy Afrika Respublikasi, Chad, Burundi, Janubiy Sudan, Mali, Burkina-Faso, Syerra-Leone, Mozambik, Eritreya. 2010 yildan BMT mutaxassislari insonlarning ayrim guruhlarini hayot sifati muammolarini o'rganishga qaratilgan ixtisoslashgan indekslardan – qashshoqlikning global ko'p o'lchovli indeksi, gender tengsizlik indeksi va boshqalardan foydalanishni boshladilar.

Bozor munosabatlari sharoitida turli qatlamdagi aholini ijtimoiy himoyalash muhim o'rin tutadi. Hozirgi iqtisodiyot va mulkchilikning turli-tumanligi sharoitida har bir jamiyat a'zosining ijtimoiy himoyalash va ularga yordam berish zaruriy holdir. Respublikamiz aholisi turmush farovonligini baholash uchun ularni ishlab chiqarishdagi ishtirok etish darajasi e'tiborga olinadi. Uy xo'jaligi byudjeti ham ana shu ishlab chiqarishdan olingan daromadlar bilan belgilanadi. Aholini ijtimoiy himoyalash maqsadida respublikamizda fuqorolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi davlat pensiya ta'minoti tizimiga qo'shimcha sifatida joriy etilmoqda.

Turli tadqiqot va amaliy muammolarni hal qilishda turli mutaxassislar "turmush darajasi" atamasini turlicha tushinishlari va uning turli talqinlarini qo'llashlari ma'lum bo'ldi. Darhaqiqat, turmush darajasi tushunchasi juda murakkab, ko'p qirrali bo'lib, uning umumiy ma'nosida ham, individual talqinida ham tushuntirishni talab qiladi. "Turmush darajasi" tushunchasi mavjud va sinonimik va ma'noga yaqin bo'lgan atamalarning butun oilasi bilan birgalikda qo'llaniladi: "hayot sifati", "turmush sharoitlari", "turmush tarsi".

Millat (aholi) farovonligini tavsiflash uchun quyidagi tushunchalar ham qo'llaniladi: "milliy farovonlik", "hayot xavfsizligi", "mehnat hayoti sifati". Ba'zan turli atamalar bir xil mazmunni anglatadi, ba'zida farq asosiy va mazmuni sezilarli darajada farqlanadi (milliy xavfsizlik va mafkura tarkibiy qismlarini kiritishgacha). Shu bilan birga, yuqoridagi tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlash kerak. Ular ko'pincha jamiyatdagi maqsadlar yoki individual tadqiqotlarning maqsadlari bilan bog'liq [2, b. 12-13].

Bizning fikrimizcha, ushbu atamalarning eng ko'p qo'llaniladigan mazmunini ochib berish va ularning "aholi turmush darajasi" tushunchasidan farqini aniqlash kerak. Xalq farovonligi - bu ro'yxatdagi eng keng va eng keng qamrovli tushunchadir. Milliy farovonlik deganda aholining hayot darajasi, qiyofasi va sifatining

xususiyatlarini bir hil asosda birlashtirgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa tushunilgan, ularning har biri yagona, lekin ko'p qirrali jamiyatning faqat ma'lum bir kesimini ifodalaydi. va katta hajmli ijtimoiy organizm. Pirovardida, milliy farovonlik inson ehtiyojlarining rivojlanishini, ularni qondirishning holati va usullarini hayotning asosiy sohalari: mehnat, iste'mol, madaniyat, reproduktiv xulq-atvor, ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bog'liqligini aks ettiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, "milliy farovonlik" atamasi mazmunida aholining mulkiy holatining xususiyatlari kabi o'ziga xos semantik element aniq ko'rinadi. Bugungi kunga kelib, "milliy farovonlik" atamasi, birinchidan, markazlashtirilgan rejalashtirilgan iqtisodiyotning eskirgan lug'ati bilan bog'liq bo'lgan atama bo'lib, ikkinchidan, hayot darajasi va sifati tushunchalarining tobora ortib borishi ta'siri ostida mashhurligini yo'qotdi, uchinchidan, ijobiy semantik ma'noga ega bo'lgan farovonlik atamasining ma'lum bir nomuvofiqligi, mamlakat aholisining turmush darajasining pasayishi munosabati bilan o'z ahamiyatini yo'qotdi [4, b. 6].

"Turmush darajasi" tushunchasi shaxs yoki odamlar guruhining jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligini belgilovchi shartlar majmuini qamrab oladi. Bu yerda gap nafaqat hayot sifatini belgilovchi obyektiv omillar (oziq-ovqat, uy-joy, bandlik, ta'lim va boshqalar), balki insonning o'z farovonlik darajasini subyektiv idrok etishi va baxt, qoniqish kabi tushunchalar haqida bormoqda. Masalan, hayotdan qoniqishning zaruriy komponenti sog'liq, nikoh, oiladan qoniqish, ish, moliyaviy ahvol, yashash sharoitlari, ta'lim imkoniyatlari, yaratish qobiliyati va boshqalar.

"Turmush darajasi" atamasi (keng talqinda) aholining turli ehtiyoj va manfaatlar nuqtai nazaridan o'z hayotidan qoniqishini bildiradi. Ushbu konsepsiya quyidagilarni o'z ichiga oladi: iqtisodiy toifa sifatida turmush darajasining xususiyatlari va ko'rsatkichlari, mehnat va dam olish sharoitlari, uy-joy sharoitlari, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy kafolatlar, huquqni muhofaza qilish va inson huquqlarini hurmat qilish, tabiiy iqlim sharoitlari, atrof-muhitni muhofaza qilish ko'rsatkichlari, mavjud bo'sh vaqt va undan yaxshi foydalanish qobiliyati va nihoyat, tinchlik, qulaylik va barqarorlikning subyektiv hissiyotlari. "Turmush darajasi" atamasining ikkinchi tushunchasi yanada torroqdir: u o'zining iqtisodiy tushunchasida (daromad, yashash qiymati, iste'mol) haqiqiy turmush darajasiz sanab o'tilgan xususiyatlarni qamrab oladi [2, b. 12-13].

Yashash sharoitlarini keng ma'noda mehnat, yashash va dam olish sharoitlariga bo'lish mumkin. Mehnat sharoitlariga sanitariya-gigiyenik, psixofiziologik, estetik va ijtimoiy-psixologik sharoitlar kiradi. Turar-joy sharoitlari – aholini uy-joy bilan ta'minlash, uning sifati, maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ini rivojlantirish (hammom, kir yuvish, sartaroshxona, ta'mirlash ustaxonalari, ijaraga berish shaxobchalari va boshqalar), savdo va umumiy ovqatlanish, jamoat transporti holati; tibbiy yordam. Dam olish sharoitlari odamlarning bo'sh vaqtlaridan foydalanish bilan bog'liq. Bo'sh

vaqt - bu shaxsni rivojlantirish, uning ijtimoiy, ma'naviy va intellektual ehtiyojlarini to'liq qondirish uchun mo'ljallangan, ishlaymaydigan vaqtning bir qismidir [6, 73-b.].

“Turmush tarzi” atamasi alohida shaxslar, ijtimoiy guruhlar va umuman jamiyatni anglatishi mumkin. Hayot tarzi odamlar qanday va nima uchun yashashi, ularning hayoti nima bilan to'ldirilganligi, ular qanday qiziqishlarga ega ekanligi, hayot sifati, uslubi va darajasi qanday rivojlanishi haqida tasavvur beradi [3]. Ilmiy adabiyotlarda mavjud bo'lgan turmush darajasining ta'riflari turli xil boshlang'ich tushunchalarga asoslanadi: ishlab chiqarishdan, iste'moldan, daromaddan, turmush narxidan, iste'molchi qoidalari va standartlaridan yoki murakkab, ko'p qirrali xususiyatga ega. Turmush darajasining iste'mol xususiyatlarining yig'indisi sifatida ta'rifi mahalliy tadqiqot va ishlanmalarda ham, xalqaro tashkilotlar faoliyatida va xalqaro statistik ma'lumotlarda ham keng qo'llaniladi.

Umuman olganda hudud aholisining turmush darajasi - bu hududda amalga oshirilayotgan davlat va mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ijtimoiy oqibatlarini baholash imkonini beradigan hududiy rivojlanishning daromad-iste'mol xususiyatlari yig'indisidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Алаев, Э.Б. Социально-экономическая география: понятийно-терминологический словарь / Э.Б. Алаев. – М. : Мысль, 1983. – С.189-190.
2. Гурьев, В.И. Основы социальной статистики / В.И. Гурьев. – М. : Финансы и статистика, 1991. – С. 65.
3. Жуков, В.И. Социальная доктрина Российской Федерации / В.И. Жуков // Уровень жизни населения регионов России. – 2005. – № 8/9. – С. 38-63.
4. Камалова П.М. Система показателей и экономико-математический метод оценки качества жизни населения на региональном уровне // Евразийский союз ученых. – 2015. – №10–5 (19). – С. 63–65.
5. Региональная экономика / А. П. Градов [и др.]. – СПб. : Питер, 2003. – С. 86-87.
6. Салимова, Т.А. Формирование стратегии и тактики управления качеством жизни в регионе / Т.А. Салимова // Региональная экономика: теория и практика. – 2006. – № 2. – С. 60-66.

## YURAK GLIKOZIDLARI

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universitetining -kurs talabalari:*

*2 -son Davolash ishi 8 patok 433-guruh talabasi*

*Ismoilov Farrux Dilshodovich*

*2 -son Davolash ishi 2 patok 410-guruh talabasi*

*Razzoqov Olimjon Safar o'g'li*

*2 -son Davolash ishi 8 patok 433-guruh talabasi*

*Mamashukurova Munisa Botirjon qizi*

*Ilmiy raxbar: SamDTU Farmakologiya kafedrasida assistenti*

*Narmetova Sevara Yangiboyevna*

**Annotatsiya:** Yurak glikozidlari — o‘simliklardan olinadigan tabiiy glikozidlar. Tarkibida Yu.g. bor o‘simliklar qadimiydan ma’lum, ular xalq va ilmiy tabobatda qo‘llanib kelingan. Yu.g.dan yurak xastaliklari va boshqalar kasalliklarni davolashda foydalanilgan. Qadimgi misrliklar dengiz piyozini, rimliklar va yunonlar erizimumni yurak kasalliklarida va peshob haydovchi sifatida ishlatishgan. 11-asrda Angliyada angishvonagul xalq tabobatida dori vositasi sifatida ma’lum bo‘lgan. Yurak glikozidlari - bu yurak etishmovchiligini davolash va ba'zi bir tartibsiz yurak urishlarini davolash uchun dorilar. Ular yurak va shu bilan bog'liq kasalliklarni davolash uchun ishlatiladigan bir nechta dorilar guruhidan biridir.

**Kalit so'zlar:** Glikon, aglikon, musbat inotrop, musbat tonotrop, manfiy xronotrop, manfiy dromotrop, musbat batmotrop, Beynbridj refleksi, Frank-Starling qonuni, kardio-kardial refleksi, nervus vagus, AV blokadada, ekstrasistola, Wolf-Parkinson-Vayt sindromi.

**Glikozidlar** yurak-qon tomir etishmovchiligini davolashda eng asosiy va keng qo‘llanadigan moddalar hisoblanadi. Yurak glikozidlari o‘simliklardan olinadigan, yurakka tanlab ta’sir ko‘rsatadigan murakkab organik moddalardir. Tarkibida glikozidlar saqlaydigan o‘simliklar qadim zamonlardan beri xalq tabobatida siydikni haydash, yurak, asab kasalliklarini davolash uchun qo‘llanib kelinishi kerak. Bu o‘simliklarni yurak xastaliklarida va boshqa kasalliklarda qo‘llash to‘g‘risidagi fikrlar XI asrda Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari», «Kitob al qalbiya», Abu Rayhon Beruniyning «Saydana» kitoblarida keltirilgan. Yurak glikozidlari digitalisning bir necha turlaridan (Digitalis purpureae, Digitalis lanata), adonis (Adonis vernalis), marvaridgul (Convallaria majalis), chitrang‘i (Erysimum canensens), strofant (Strophanthus Kombe), oleandr (Nerium oleandr), kendir (Apocinum cannabinum) va boshqa o‘simliklardan olingan.

**Kimyoviy tuzilishi ikki qismdan iborat:**

**1. Qandli-** glikon(eruvchanligiga, membranalaridan o'tishiga, biologik faollik, zaxarliligiga t/k)

Glikozidlarning glikon qismi har xil qandlar: d—glyukoza, d—digitoksoza, d—simaroza, L—ramnozalaridan iborat. Qandli qismi glikozidlarning eruvchanligiga, hujayra membranalaridan o'tishiga, biologik faollik va zaxarliligiga ta'sir ko'rsatadi. Glikon bir, ikki, uch, to'rt qandlardan iborat bo'lishi mumkin, bunda ular mono-, di-, tri-, tetraglikozidlar deb ataladi. Biologik faolligi bo'yicha glikozidlarni quyidagi qatorga qo'yish mumkin: monoglikozid>diglikozid>tetraglikozid<aglikon.

**2. Qandsiz-** aglikon(kardiotrop tasir kuchi siklopentanopergidrofen antrendan iborat)  
**Glikozidlar tanlab yurakka — kardial va yurakdan tashqari — ekstrakardial ta'sir ko'rsatadi.**

### **KARDIAL TASIRLAR:**

#### **1. Musbat inotrop;**

Musbat inotrop →[ inos-tola, muskul; "stropos" - yo'nalish]

Tasir Mexanizmi:

a) Glikozidlar kardiomiotsitlar membranasiidagi Na/K-ATF azalarning SH-sulfidriil gruppalarini bag'lab ingibirleydi. Natijada ular oz funksiyasini bajarolmay qoladi.

b) Hujayra ichida Na<sup>+</sup>, tashqarida K<sup>+</sup> to'plana boshlaydi. to'plangan Na<sup>+</sup> Na/Ca pompalarini ishini bloklaydi.

c)Ca<sup>+</sup> tashqariga chiqalmay, ichkarida to'plana boshlagach ichkarida Na<sup>+</sup> to'planishi hisobiga hosil bo'lgan Volt L -tipdagi Ca<sup>+</sup> kanallarini aktivlaydi.

#### **2. Musbat tonotrop;**

a)Musbat tonotrop [tonos- tonus].

Tonotrop effekt tufayli kardiomiotsit miofibrillalarining tonusi ortadi.

#### **3. Manfiy xronotrop;**

Manfiy Xronotrop→["chrones" - vagt]

→ Diastolit effekt ham deyiladi. Yurakning bo'shashish vaqti uzayadi. Natijada minutlik yurak urishlar soni kamayadi. (Bradikardiya)

Bu effek asosan 2-xil yo' bilan amalga oshadi:

A) kardio-kardial refleks. Glikozidlarning miokard va karotid sinus zonadagi baroretseptorlarga bevosita tasiri natijasida reflektor yo'l bilan Nervus Vagus tonusi ortadi bu M2 (Gi) retseptlarini qo'zg'atib bradikardiya chaqiradi.

B) Frank-Starling qonuni. Musbat inotrop to'sis tufayli qancha kuchli qisqarsa, diastola shuncha kuchli ravishda va uzoq amalga oshadi.

#### **4. Manfiy dromotrop;**

Manfiy dromotrop [ dromos - yo'l]



Marfiy dromotrop effekt tufayli AV tugun va Giss tutamlarida o'tkazuvchanlik sekinlashadi, effektiv refraktor davr (ERD) uzayadi. Bu ta'sir o'tkazuvchi tizimga bevosita negativ tesir va n.vagus hisobiga amalga oshadi.

### **5.Musbat batmotrop;**

Musbat Batmotrap ["batmas" - bo'sag'a]

Hayvanlarda o'tkazilgan tajribalarga ko'ra glikozidlarning kam miqdori miokardning qo'zg'aluvchanligini oshiradi. Ya'ni glikozidlari miokardga keladigan stimullarga nisbatan miokardni bo'sag'a kuchini kamaytirishi tufayli bu effekt yuzaga keladi.

Yuqori miqdori esa aksincha, qo'zg'aluvchanlikni oshirgan.

### **6.Moddalar almashinuviga ta'siri;**

#### **EKSTRAKARDIAL BELGILAR:**

1.Gemodinamika;

- Zarb va minutlik hajm ortadi.
- Venoz bosim kamayadi Beynbridj refleksi yuzaga chiqmaydi.

Beynbridj refleksi - kovak venalarda venoz dimlanish tufayli yuqori kovaj vena va o'ng bo'lmacha sohasidagi kardial retseptorlar (baroretseptorlar) go'zg'aladi. Yurak urishlar soni oshadi (Taxikardiya).

- Periferiyada shishlar kamayadi [venoz bosim, hisobiga
- Buyrakda perfuziya yaxshilanadi diurez ortadi

2.Buyraklarda:

- Buyrat kanalchalarida  $Na^+/Cl^-/H_2O$  ning reabsorbsiyasini kamaytiradi.
- Kanalchadagi  $Na-K-ATP$  fazalarni ham bloklashi hisobiga  $Na^+$  reabsorbsiyasi kamayadi.

3. KOAGULYATSIYAGA -Korglikon koagulyatsiyani kamaytiradi , Strofantin esa oshiradi.

4. MNS ga tinchlantiruvchi tasir ko'rsatdi ,qo'zg'alish va tormozlanishni normallashtadi.

#### **Ishlatilishi:**

- O'tkir yurak yetishmovchiligida:  
Strofantin va Digoksin  $NaCl$  eritmasida eritib intravenoz yuboriladi.
- Sururkali yurak yetishmovchiligida : Digitoksin
- Yurak yetishmovchiligi profilaktikasida:
- Paroksizmal taxikardiya, bo'lmachalar mertsaniyasi / trepetaniyasi;

#### **Yurak yetishmovchiligida**

- Sistola kuchsizlanganda ->
- Diastola qisqarganda ->.
- Yurak 'lchami kattalashganda->

#### **Glikozidlari tasirida**

kuchayadi, chuqurlashadi,  
uzayadi,  
normallashtadi (kichrayadi),

- Zarb hajmi kamaygan->. ortadi,
- Minutlik hajm kamaygan->. ortadi,
- Urishlar chastotasi ortgan->. kamayadi,
- Impuls o'tishi tezlashgan->. normallasadi,
- Venoz bosin ortgan->. kamayadi,
- Arterial bosin bazida bamaygan->. normallasadi yoki ortadi,
- Shishlar mavjud -> yo'qoladi,
- Diurez kamaygan->. ortadi yoki normallasadi.

## NOJO'YA TA'SIRLARI

### Kardiogen;

- AV blokada [Atropin berish kerak]
- Ekstrasistola Glukozidning yuqori miqdori purkine tolalarida automatizmni kuchaytirib Patologik o'choqlar paydo qiladi. [ 1B Antiaritmik-Lidokain, Difenin beriladi.]
- Wolf-Parkinson-Vayt sindromida qo'llamaymiz [ bundan tashqari Ca-blokatorlar, B-blokator Adenozin ham bermaymiz. O'rniga 1A va II - Sinf antiaritmiklar qo'llaymiz]

### Gastrointestinal trakt;

- Anoreksiya ,
- Qayt qilish, [n.vagas tonusi ortishi hisobiga],
- Diareya, kolika, [n.vagas tonusi ortishi hisobiga],
- Ko'ngil aynishi, [n.vagas tonusi ortishi hisobiga],

### Nevrologik:

- Bosh og'rig'i,
- Depressiya, Nutq buzilishlar, Nevritlar;
- Ksantopsiya - buyumlar rangini yashil-sariq - rangda ko'rish;
- Giposomniya , diplopiya.

**Xulosa:** Yurak glikozidlardan foydalanishda ehtiyot bo'lish lozim chunki bu dorilardan zaharlanish holatlari ham uchrab turadi . Kardiyak glikozidning haddan tashqari dozasi, agar kimdir ushbu dorining normal yoki tavsiya etilgan miqdoridan ko'proq iste'mol qilsa paydo bo'ladi. Bu tasodifan yoki qasddan bo'lishi mumkin. Yurak glikozidlari bir nechta o'simliklarda, shu jumladan raqamli (foxglove) o'simlik barglarida uchraydi. Ushbu o'simlik ushbu dorining asl manbai hisoblanadi. Ushbu barglarning ko'pini iste'mol qiladigan odamlarda dozani oshirib yuborish alomatlari paydo bo'lishi mumkin.Uzoq muddatli (surunkali) zaharlanish har kuni yurak glikozidlarini qabul qiladigan odamlarda paydo bo'lishi mumkin. Agar kimdir buyrak muammosiga duch kelsa yoki suvsizlanib qolsa (ayniqsa, yozning issiq oylarida). Ushbu muammo odatda keksa odamlarda uchraydi.

**Foydalanilgan adaviyotlar ro'yxati:**

1. Farmakologiya (Xarkeyivich D.A. 2021) URL
2. Farmakologiya (Allayeva M.J. 2020)
3. Vizual farmakologiya (M.J. Neal 2018)
4. Farmakologiya bilan retseptura (Mayskiy V. V)
5. Farmakologiya. 1-qism (R. N. Alyautdin 2018)
6. Farmakologiya (D. A. Xarkevich 2017).

## МИГРАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАСИ ТЕРРОРИЗМ ВА ЭКСТРЕМИЗМНИ ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ МУҲИМ ЙЎНАЛИШИ СИФАТИДА

*Ибрагимов Аброр Алимович,  
Ўзбекистон Республикаси ИИВ  
Академияси Тезкор-қидирув фаолияти  
кафедраси катта ўқитувчиси*

**Аннотация:** Мақолада миграция жараёнларини тартибга солиш масалалари, мамлакатнинг ички ва ташқи сиёсати, миграциянинг салбий оқибати сифатида терроризм ва диний экстремизм, гиёҳвандлик, одам савдоси ва бошқа трансмиллий жиноятларни юзага келиш эҳтимоллари, шунингдек, миграциянинг мазмун-моҳияти ва кўринишлари таҳлил қилинган.

**Калит сўлар:** меҳнат бозори, ишсизлик, бандлик, миграция, меҳнат миграцияси, ижтимоий-иқтисодий тараққиёт, демографик вазият.

Бугунги кунда халқаро миқёсда шахс, жамият ва давлат хавфсизлигига таҳдидларнинг янги-янги кўринишлари вужудга келмоқда. Бу таҳдидлар халқаро майдонда миллатлар, динлар, ижтимоий табақалар ҳамда мамлакатлараро инсонларнинг ҳаёт даражаси, турмуш тарзида зиддиятлар ва тафовутлар билан қоришиб жиноятчиликни янада кучайтирмоқда. Бугун ер юзида ноқонуний миграция диний экстремизм, терроризм, гиёҳвандлик, одам савдоси, “оммавий маданият” хавфини тобора кучайиб боришини тақазо этаётганлиги барча мамлакатларни ташвишга солмоқда.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг миграция ва қочоқлар масаласига оид таҳлилларига кўра келажакда дунё аҳолисининг сони ўсиб бориши натижасида 2050 йилга бориб 9,7 миллиард кишини ташкил этади. Агарда бутун дунё аҳолиси таркибида халқаро мигрантлар ҳиссасининг турғунлиги сақланса, 2050 йилга бориб дунёда мигрантлар сони 321 миллион кишини ташкил этади<sup>1</sup>.

Бу кўрсаткичлар *биринчидан*, халқаро меҳнат бозорининг очиклиги ва шу билан бирга тўлиқ тартибга солинмаганлиги, *иккинчидан*, айрим давлатларда иқтисодий-сиёсий, ижтимоий ва табиий шарт-шароитлар оғирлашуви, бошқа бирларида эса барқарорликни таъминланганлиги билан боғлиқ. Бундай шароитлар инсонларда ҳаёт тарзининг сифати, яшаш учун шароитларни яхшилаш, манфаатли меҳнат ҳаққи тўланадиган иш излаш, атроф-муҳит ва

<sup>1</sup> БМТнинг собиқ Бош қотиби Пан Ги Муннинг миграция ва қочоқлар масалаларига бағишланган 2016 йил 19 сентябрь кунин Нью-Йоркда яъни – Бош Ассамблеянинг 71-сессияси очилишидаги маърузаси. <http://www.panarmenian.net/rus/news/212018/>

саломатликни сақлаб қолиш ва тиклаш мақсадида бошқа давлатларга чиқиш эҳтиёжини туғдиради. Миграция ривожланиш, камбағалчилик, инсон ҳуқуқлари каби бошқа глобал масалалар билан ҳам чамбарчас боғлиқдир. Мигрантлар кўпинча жамиятнинг ҳаракатчан аъзолари ҳисобланади.

Масалани иккинчи томонига эътибор қаратадиган бўлсак, миграция жараёнларининг салбий оқибатлари натижасида ноқонуний миграция, одам савдоси, терроризм ва экстремизм иллатларининг юзага келиш эҳтимоли юқорилигини инобатга олиб, баъзи мигрантлар эксплуатация қилинади ва уларнинг инсоний ҳуқуқлари поймол қилинади, шунингдек улар бориладиган мамлакатларда интеграция қийин бўлиши мумкин.

Миграция жараёнларини тартибга солиш масалалари мамлакатнинг ички ва ташқи сиёсатининг мураккаб вазифаси эканлиги, унинг оқибатида терроризм ва диний экстремизм, гиёҳвандлик, одам савдоси ва бошқа трансмиллий жиноятларга қарши курашишда муҳим аҳамият касб этишини инобатга олиб, аввало, миграциянинг мазмун-моҳияти ва кўринишларини эътироф этсак: **“Миграция”** (лот. *migratio* – аҳолининг бир жойдан бошқа жойга кўчиши) аҳолининг мамлакат доирасида бир жойдан бошқа жойга ёки бир мамлакатдан бошқа мамлакатга кўчиши ёки кўчирилишидир<sup>2</sup>.

Мустақилликнинг илк йилларидан бошлаб, миграция жараёнларни тартибга солиш масаласида Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсатининг муҳим устувор йўналишига айланди. Жумладан икки ва кўп томонлама ҳукуматлараро битим (шартнома ва меморандум)лар Чехия, Азарбайжон, Литва, Польша, Тожикистон, Болгария, Туркия, Латвия, Покистон, Қирғизистон, Беларусия, Озарбайжон, Саудия Арабистон, Туркменистон, Қатар, Россия Жанубий Корея, Туркменистон, Қозоғистон, Қирғизистон, Тожикистон давлатлари ўртасида имзоланди.

Миграциянинг салбий жиҳатлари мамлакатнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида ҳиссаси салмоқлидир. Жумладан, ноқонуний миграция, одам савдоси, гиёҳвандлик, ОИТС касалликларига чалиниш, терроризм ва экстремизм, контрабанда каби трансмиллий жиноятларининг юзага келишида намоён бўлади. Аммо жараённи фақат мазкур иллатларнинг юзага келиши билан баҳолаб бўлмайди. Шу билан бирга инсоннинг таълим, билим ва ўз-ўзини англаш даражасини ошириш учун интилиш истагини кучайтириш билан бирга, давлат учун иқтисодий ўсиш, ишлаб чиқариш ва кишлоқ хўжалигини ривожлантиришига қаратилганлиги билан аҳамиятлидир<sup>3</sup>.

<sup>2</sup> Юридик энциклопедия. У.Таджиханов. –Т.: “Шарқ”, 2001. – 656 б

<sup>3</sup> Якубов, Х., & Раҳмонжонов, Х. (2022). Diniy ekstremizm va terrorizm tahdidi. *Общество и инновации*, 3(2/S), 246-251.

Бу борада мамлакатнинг ташқи сиёсатида мигрантларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, шунингдек, ноқонуний миграция билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ҳамда профилактикасини таъминлаш масалаларини янада такомиллаштиришга қаратилган илмий тадқиқотлар олиб бориш объектив заруратига айланди.

Шу ўринда, Россия Федерацияси Миграция хизматининг статистик маълумотларини (2016.й.) таҳлил қиладиган бўлсак, Федерация ҳудудига Марказий Осиёдан борган меҳнат мигрантларининг 45,9 % Ўзбекистон Республикаси, 22,9 % Тожикистон Республикаси, 15,4 % Қозоғистон Республикаси, 15,0 % Қирғизистон Республикаси ва 0,7 % Туркменистон Республикасига тўғри келади<sup>4</sup>.

Шунинг учун ҳам, мамлакатимиз фуқароларининг республикага келиш ва ундан чиқиб кетиш каби конституциявий ҳуқуқларини таъминлашда миграция жараёнларини тартибга солиш долзарб аҳамиятга эга. Бугунги кунда миграция жараёнларини тартибга солиш қонунга хилоф равишда чет элга чиқиш ёки Ўзбекистон Республикасига кириш билан боғлиқ бўлган ҳуқуқбузарликларни олдини олишнинг энг самарали йўналишидир.

Жамият ижтимоий ҳаётининг барча соҳаларида амалга оширилаётган ислохотлар миграция жараёнини тартибга солиш имконини кенгайтирмоқда. Айниқса, ён-атрофимизда хавфсизлик, барқарорлик ва аҳил кўшничилик муҳитини шакллантириш борасида мамлакатимизда олиб борилаётган ислохотлар ҳам миграция жараёнларини тартибга солишга хизмат қилади.

Бу борадаги долзарб масалаларни ҳар томонлама ўрганиш, амалдаги қонунчилик, ҳуқуқни қўллаш амалиёти ва илғор хорижий тажрибанинг таҳлилидан келиб чиқиб, хавфсизлик, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш, чуқур ўйланган, ўзаро манфаатли ва амалий руҳдаги ташқи сиёсат юритиш йўналишида олиб борилаётган чора-тадбирлар бу борадаги ишларнинг амалий исботидир.

Ўзбекистоннинг Ташқи сиёсий фаолияти концепциясида хорижий айниқса кўшни мамлакатлар билан дўстлик муносабатлари устуворлигининг таъминланиши мазкур мамлакатларнинг савдо-иқтисодий, инвестициявий, технологик ва молиявий-техник ҳамкорлигини тубдан ривожлантириш билан бирга хавфсизликка таҳдид солаётган халқаро трансмиллий жиноятларни содир этишни тақозо этувчи, унинг сабаб ва шарт-шароитларни вужудга келтираётган иллат - ноқонуний миграцияни олдини олишга имкон яратиб бермоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Россия Федерацияси, Туркменистон, Қозоғистон, Қирғизистон ва Тожикистон Республикалари, хусусан Туркия Республикаларига амалга оширилган

<sup>4</sup> <http://zagranfast.ru/news/2016-04-12/kolichestvo-trudovykh-migrantov-iz-tcentralnoy-azii-v-rossii-nes>

ташрифлари жараёнида миграцияни тартибга солиш масалаларининг муҳокама қилиниши бунинг амалий тасдиғидир.

Жумладан, Қирғизистон Республикасида ўтказилган музокаралар якунида Ўзбекистон — Қирғизистон давлат чегаралари тўғрисидаги шартнома имзолангани икки халқ ўртасидаги яқин қўшничилик муносабатларини янада тиклашга, шунингдек, миграция жараёнларини тартибга солишда ижобий таъсир кўрсатмоқда.

Шунингдек, Президентимиз ташаббуси билан 2017 йилнинг 5 апрель куни Москва шаҳрида “Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати ҳамда Россия Федерацияси Ҳукумати ўртасида Россия Федерацияси ҳудудида вақтинча меҳнат фаолиятини амалга ошириш учун Ўзбекистон Республикаси фуқароларини уюшқоқлик билан йиғиш ва жалб қилиш тўғрисида”ги Битимнинг имзоланиши Россия Федерациясида меҳнат қилаётган ва меҳнат қилиш истагида бўлган фуқароларимизнинг ҳуқуқ-эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилинишини янада мустаҳкамлади.

Бу эса меҳнат миграцияси жараёнларини қонуний тартибга солиш, мигрантларнинг чет элда ҳуқуқ ва эркинликларининг ҳимоя қилиниши, шунингдек, мигрантлар айнан қандай меҳнат фаолияти билан шуғулланиши, қанча маош олиши, қандай меҳнат шароитида яшаши каби ҳолатларни олдиндан билиш имкониятини берди.

Бундан ташқари томонларнинг иккала давлат ҳудудларида миграция соҳасида ваколатли органларнинг ваколатхоналари таъсис этилди. Мазкур ваколатхоналар томонидан миграция соҳасидаги халқаро шартномалар ва қонун ҳужжатларни ишлаб чиқиш, миграция соҳасида ахборотни тўплаш, ўрганиш ва таҳлил қилиш, ўз ваколатига оид масалалар юзасидан фуқаролар қабулини амалга ошириш ҳамда зарур ҳолларда ўз ваколатларига алоқадор масалалар бўйича ўз давлатлари фуқароларининг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш каби функцияларни амалга оширади.

Мазкур халқаро қонун ҳужжатларнинг қабул қилиниши ва унинг ҳаётга жорий этилиши бевосита, миграция жараёнларини тартибга солиш ва унинг ғайриқонуний кўринишларини юзага келишига олиб келувчи сабаб ва шарт-шароитларни ўз вақтида аниқлаб ноқонуний миграция хавфини зарарсизлантиришга хизмат қилади. Чунки, бугунги кунда ён-атрофимизда одам савдоси ва ноқонуний миграция деган турли иллатларнинг хавфи тобора кучайиб бораётган бир пайтда мазкур чора-тадбирларнинг амалга оширилишини даврнинг ўзи тақозо қилмоқда.

Агарда мазкур жараёнлар ўз ҳолига ташлаб қўйилса, халқаро майдонда миллатлар, турли дин вакиллари, ижтимоий табақалар, мамлакатлараро инсонларнинг ҳаёт даражаси, мигрантларнинг жамиятга суи мослашуви,

турмуш тарзининг тафовутлари билан қоришиб трансмиллий жинойтчиликни янада кучайтириб қатор муаммоларни туғдиришига олиб келади.

Мазкур муаммоларнинг таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, ноқонуний миграциянинг шахс, жамият ва давлат хавфсизлигига таҳдидини қуйидагиларда кўришимиз мумкин:

*биринчидан*, меҳнат қонунчилигида белгиланган талабларини бузиши оқибатида меҳнат муносабатлари соҳасида ҳуқуқбузарликлар содир этилишида;

*иккинчидан*, инсон ҳуқуқлари, шунингдек халқаро стандартлар ва миллий қонун нормаларининг бузилишида;

*учунчидан*, одам савдоси, қурол-яроқ, наркотрафик ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланиши, терроризм, диний экстремизм билан боғлиқ бошқа жинойтларининг содир этилишида;

*тўртинчидан*, мигрантларнинг узоқ вақт давомида оила аъзолари билан бирга бўлмаслиги сабабли оилаларнинг бузилиши, энг ачинарлиси вояга етмаган ва ёшларнинг назоратсиз ва қаровсиз қолишида уларнинг ҳуқуқ ва эркинликларининг бузилишида;

*бешинчидан*, турли хавфли юқумли касалликлар билан зарарланиш ва санитар-гигиеник ҳолатни ёмонлашиш, инсон ҳаёти ва соғлиғига таҳдидлар кучайиши каби бир қанча омилларни келтириш мумкин.

Мазкур таҳдидларни олдини олиш, уларни юзага келиш сабаблари ва шарт-шароитларини чуқур таҳлил қилиш, аниқлаш ва бартараф этиш бўйича давлат органлари, шунингдек ички ишлар органларининг кенг жамоатчилик билан яқдил ҳамкорлигига асосланган тизимли ва самарали тезкор-профилактик чора-тадбирлар олиб борилмаса, чет элга турли хил мақсадларда чиқиб кетган шахсларнинг терроризм ва экстремизм билан боғлиқ бўлган турли хил оқимлар таъсирига тушиб қолишлари, энг ачинарлиси улар томонидан содир этиладиган қўпоровчилик ҳаракатларининг фақатгина оқибатларига қарши курашиш билан чекланиб қолиш мумкин.

Шунинг учун ички ишлар органлари доимий яшаш манзилдан турли мақсадларда узоқ муддатга чет элга чиқмоқчи бўлаётган, чиқиб кетган шахсларни, уларнинг чиқиб кетиш мақсадларини аниқлаш, ҳисобга қўйиш, бу тоифадаги шахслар, уларнинг яқинлари билан тушунтириш, огоҳликка чақириш, виктимологик ва тезкор-профилактик ишларни олиб бориш, улар орасидан одам савдоси, наркотрафик, терроризм ва экстремизм, ноқонуний миграция билан боғлиқ жинойтлар содир этишга ёки уларнинг қурбони бўлишга мойил бўлган шахсларни, уларнинг жинойий алоқаларини аниқлаш, шунингдек терроризм ва экстремизм билан боғлиқ жинойтга алоқадорлигини текшириш, уларнинг жинойий фаолиятини фoш этиш ва унга чек қўйиш мақсадида мунтазам равишда керакли чора-тадбирларни амалга ошириб боришлари лозим.



Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш лозимки, миграция жараёнларини тартибга солиш мақсадида мамлакатимизнинг ташқи сиёсатда хорижий мамлакатлар билан икки ва кўп томонлама қонун ҳужжатларнинг қабул қилиниши ноқонуний миграцияни юзага келишига имкон берувчи сабаб ва шарт-шароитларни ўрганиш ва таҳлил қилишга, шунингдек терроризм ва экстремизмга қарши курашиш, аниқлаш ва бартараф этишга замин яратади.

## MORFOLOGIK SHAKLLARNING MORFEMIKA OBYEKTI SIFATIDA O'RGANILISHI

*Babadjanov Mansur Kurbanbayevich*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tilning morfologik birliklari tahlili keltirilgan. Morfologik tahlil lingvistik usul bo'lib, so'zlarning tuzilishi va tarkibiy qismlarini, jumladan, old qo'shimchalar, qo'shimchalar, o'zak va fleksiyonlarni o'rganish bilan shug'ullanadi. U so'zlarning qanday hosil bo'lishini va uning tarkibiy qismlarining ma'noga qanday hissa qo'shishini tahlil qilishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** morfemika, asos, qo'shimcha, agglutinativ tillar, ildiz, affiks, prefiks, allomorf, morf, tub so'z, yasama so'z.

**Аннотация:** В данной статье представлен анализ морфологических единиц языка. Морфологический анализ — лингвистический метод, изучающий структуру и компоненты слов, включая приставки, суффиксы, основы и флексии. Основное внимание уделяется анализу того, как формируются слова и как их компоненты влияют на значение.

**Ключевые слова:** морфемика, основа, суффикс, агглютинативные языки, корень, аффикс, приставка, алломорф, морф, корневое слово, искусственное слово.

**Abstract:** This article presents an analysis of the morphological units of the language. Morphological analysis is a linguistic technique that studies the structure and components of words, including prefixes, suffixes, stems, and inflections. It focuses on analyzing how words are formed and how their components contribute to meaning.

**Key words:** morphemics, base, suffix, agglutinative languages, root, affix, prefix, allomorph, morph, root word, artificial word.

Tilni yaruslarga ajratishning asosiy shartlaridan biri, har bir yarusning o'z birligiga ega bo'lishidir. Ma'lumki, fonetik — fonologik yarusning birligi fon va fonema deb ataladi. Fon va fonema nutqdagi eng kichik ma'no anglatmaydigan, lekin ma'no anglatuvchi birliklarning ma'nosini o'zgartishga xizmat qiladigan birliklardir.

Morfologiyaning birligi esa — nutq faoliyatidagi eng kichik ma'no anglatuvchi elementdir. Bu elementning nutqdagi ko'rinishi morf va tildagi ko'rinishi morfema deyiladi. O'zbek tilidagi *gulchi* so'zi ikkita morfemadan tashkil topgan, chunki bu so'zning tarkibida ikkita eng kichik ma'no anglatuvchi birlik: *gul* va *chi* bor. *Gul* va *chi* elementlari boshqa kichikroq ma'nodor bo'laklarga bo'linmaydi. *Gul* so'zini *g-u-l* singari bo'laklarga bo'lish mumkin, lekin ular hech qanday ma'no anglatmaydi. *Gulchilarimizdan* degan so'zda esa, oltita eng kichik ma'no anglatuvchi bo'laklar bor: *Gul-chi-lar-im-iz-dan*. *Gul* so'zning o'zagi, *chi* — kasbni ko'rsatuvchi, *lar* — ko'plik

ma'nosini anglatuvchi, *im* — shaxs ma'nosini, *iz* — ko'plik ma'nosini va *dan* — chiqish ma'nosini anglatuvchi elementlardir. Shunga o'xshash misollarni ko'plab keltirish mumkin.

So'zlarning tarkibiy qismlari bilan shug'ullanadigan morfologik tahlil tabiiy tilni qayta ishlashning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Ushbu tahlilni yanada samarali qilish uchun bir nechta turli usullar ishlab chiqilgan va joriy qilingan. Bir qarashda, leksikada barcha so'zning flektiv shakllarini saqlash va hech qanday morfologik tahlilsiz tilga ishlov berish mumkindek tuyuladi. Bu yondashuv morfologik jihatdan sodda tillar uchun mos bo'lishi mumkin, ammo affikslar birikkanidan keyin so'z yuzlab turli shakllarni olishi mumkin bo'lgan agglyutinativ tillar uchun qo'llash mumkin emas<sup>1</sup>.

Bu sohada hozirgacha bajarilgan ishlarni ikki sinfga birlashtirish mumkin: ildizga asoslangan yondashuv va affiksni olib tashlash yondashuvi. Birinchi yondashuvda so'zning o'zagi dastlab topiladi, so'ngra affikslar aniqlanadi. Ikkinchi yondashuvda affikslarning aniqlanishi birinchisidan farqli ravishda birinchi bo'lib amalga oshadi. Affikslar olib tashlangandan so'ng, so'zning qolgan qismini o'zak deb hisoblash mumkin yoki bu taxminni tasdiqlash uchun leksikadan foydalanish mumkin.

Ildiz asosidagi morfologik yondashuv so'zlarni ildizga yoki asos shakllariga bo'lish orqali ularga qo'shilgan turli morfemalarning ma'no hosil qilish jarayonini tahlil qilishning lingvistik usulidir. Ushbu yondashuv ko'pincha arab yoki rus kabi murakkab flektiv tizimli tillarni o'rganishda qo'llaniladi, bu yerda so'zlar jumladagi vazifasiga qarab sezilarli darajada o'zgarishi mumkin.

Affikslarni olib tashlash usuli – so'zlarni tarkibiy qismlarga bo'lish orqali tahlil qilish va ma'nosini tushunish uchun ishlatiladigan usul. Bu so'zning ildiz yoki asosiy shaklini aniqlash uchun so'zdan prefiks va qo'shimchalarni aniqlash hamda olib tashlashni o'z ichiga oladi.

Morf va morfema hamma vaqt bir-biriga teng kelavermaydi. Til birligi bo'lmish morfema nutqda bitta morf orqali va ba'zi hollarda bir necha morf orqali ifodalanishi mumkin. O'zbek tilida otlarda ko'plik bitta – *lar* morfemasi bilan ifodalanadi. Bunday hollarda morf va morfema bir-biriga mos keladi. Yoki chiqish ma'nosi kelishik qo'shimchasi orqali, ya'ni – *da* ham xuddi shunday hodisaga misol bo'la oladi. Lekin jo'nalish ma'nosi o'zbek tilida turli qo'shimchalar bilan amalga oshiriladi: (-ga, -ka, -qa). Bunday hollarda bir morfema uchta morf orqali namoyon bo'ladi. Odatda bir morfemaga kiruvchi morflarni shu morfemaning variantlari yoki allomorflari deyiladi. Demak, allomorf deb turli formatga ega bo'lgan, lekin bir xil ma'no anglatadigan va bir morfemaga kiradigan morflarga aytiladi. Allomorflarga misollar hind-yevropa tillarida ko'plab uchraydi: [ы] [и] [а] [я] kabi rus tilidagi ko'plikni ko'rsatuvchi allomorflar shular jumlasidandir.

<sup>1</sup> D. Jurafsky & J.H. Martin, Speech and language processing : an introduction to natural language processing, computational linguistics, and speech recognition (Upper Saddle River, N.J. : Prentice Hall, 2000).

Morfema til ifoda sistemasida tovushdan keyin turadigan semantik-morfologik birlik bo‘lib, so‘zning eng kichik ma‘noli qismidir<sup>2</sup>. Morfema tushunchasi hamma vaqt tilning bir semantik-morfologik birligini uning ikkinchi bir semantik-morfologik birligi bilan nisbatlaganda mavjud bo‘ladi. Masalan, *kitobxon* so‘zi ikki ma‘noli qismdan iborat bo‘lib, ular *kitob* va *xon* qismlaridir. Uning birinchi qismi alohida olinganda, so‘zdir. Biroq bu so‘zga – *xon* qo‘shimchasi qo‘shilar va undan yangi so‘z hosil qilinadi ekan (*kitobxon*), birinchi qism ikkinchi qismga nisbatan alohida emas, so‘zning qismi deb baholanadi. Shunga ko‘ra – *xon* elementi ham so‘zning qismi sifatida olinadi va u oldingi qismga nisbatan baholanadi – biri ikkinchisiga nisbatan alohida-alohida morfema hisoblanadi: o‘zak morfema; ergash. (affiks) morfema. Morfemikaga ana shu nuqtai nazardan yondashiladigan bo‘lsa, u morfemalar (so‘zning ma‘noli qismlari) haqidagi ta‘limotdir.

So‘z qismlardan (eng kamida ikki qismdan) tashkil topmagan bo‘lsa, u tub so‘z sifatida baholansa, bu o‘rinda morfema haqida fikr yuritib bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, «So‘z birgina morfemadan iboratdir»,— deb qarash maqsadga muvofiq emas. Demak, morfema tushunchasi so‘z qismlardan iborat bo‘lgandagina paydo bo‘ladi. Jumladan, *ko‘z, muz, kel, bir, ol, non, ish, ter, yur, tur, gul, tog‘, bog‘* va boshqalar alohida olinganda, morfemadan keyin turadigan yirik til birligi bo‘lib, ular so‘zlardir. Bu so‘zlar gapda ishtirok etganda, ma‘lumki, albatta, qandaydir bir grammatik formaga ega bo‘ladi. Bu forma nol forma ko‘rinishida bo‘lishi ham, ko‘rsatkich (alohida) ishtirok etgan ko‘rinishda ham bo‘lishi mumkin. Qiyoslang: 1. *Kuz kelishi bilan qishki-kuzgi ishlarga tayyorgarlik boshlab yuborildi*; 2. *Har yili kuzda bir dala aylanib kelaman*. Birinchi gapdagi *kuz* so‘zini grammatik ma‘no ifodalovchi nol ko‘rsatkichlariga nisbatan (bosh kelishik, birlik...) o‘zak morfema sifatida baholash mumkindek tuyulsa ham, u o‘zak morfema emas, balki asos – forma yasalish asosidir. Demak, gap tarkibidagi *kuz* so‘zi (so‘z-formasi) bilan alohida olingan, lug‘aviy birlik sifatida qaraladigan *kuz* so‘zi o‘rtasida farq bor (asos va so‘z sifatida farq qiladi).

Keyingi gapda *kuzda* so‘zi, ko‘rinib turibdiki, ikki qismdan iborat: *kuz* – o‘zak morfema; *da* – affiks morfema. Bu so‘zning morfem tahliliga ko‘radir. Morfologik tahlilga ko‘ra ham bu so‘z ikki qismdan iborat: *kuz* – forma yasalish asosi; *da* – grammatik ma‘no ifodalovchi vosita. Xullas, ikkinchi holatda so‘zning *kuz* – qismi morfem tahliliga ko‘ra o‘zak morfema, morfologik tahlilga ko‘ra forma yasalish asosidir.

Tub so‘zlar shaklan go‘yo so‘zlarga tengdek tuyuladi, ya‘ni tub so‘zni yasama so‘zga nisbatan baholaydigan bo‘lsak, haqiqatan ham, xuddi shunday holat ko‘zga tashlanadi: *kuz* — tub so‘z; *kuzgi* — yasama so‘z. Bu o‘rinda tub so‘z shaklan, ikkinchi — yasama so‘zning o‘zak qismiga tengdir. Biroq yuqorida ko‘rsatilganidek, ular

<sup>2</sup> Ёрмат Тожиев. Ўзбек тили морфемикаси. Тошкент — 1992, bet-5

mohiyat e'tibori bilan, semantik-grammatik xususiyatlariga ko'ra teng emas. Faqat amalda so'zning tub yoki yasama ekanligini to'g'ri belgilashda uning tub deb olingan qismi o'zakka qiyoslanadi.

Tilda ikki va undan ortiq morfemali so'zlar tub holda ham, yasama holda ham uchraydi. Jumladan, *gulli, guldon, gulkor, gulchilik* so'zlari asosan ikki morfemadan tashkil topgan va gul yasovchi negiziga yasovchi qo'shimchalarni qo'shish bilan yasalgan yasama so'zlardir. O'zbek tilidagi *gullarda, berishdi, borayaptilar, borsalar, kitoblarni, ukamlarga, tezroq, yozmoq* so'zlari uch, to'rt va ikki morfemali so'zlar-dir. Biroq bu so'zlarning hammasi ham yasama so'z sifatida baholanmaydi. Ular ko'p morfemali tub so'zlardir. Ko'p morfemali so'z yasama deb baholanar ekan, uning tarkibida yasovchi elementlarning ishtirok etishi shart bo'ladi.

So'z yaxlit olingan, universal til birligi hisoblansa, morfema ana shu so'z tarkibiga kiruvchi semantik-morfologik birlikdir. Shunga ko'ra, so'z va morfemani bir-biriga hech vaqt tenglashtirib bo'lmaydi. Morfemalar mustaqil holda olganda, leksik ma'no anglatma olish va anglatma olmaslik xususiyatlariga ega bo'lib, ana shu asosiy xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni ikki turga ajratish mumkin: 1) o'zak morfemalar; 2) affiks morfemalar (ba'zi adabiyotlarda asosiy morfema va yordamchi morfema deyilsa, ba'zi adabiyotlarda yetakchi morfema va ko'makchi morfema deb atalgan).

Negizlarga qo'shib, uning leksik-grammatik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan har xil ma'nolarni ifodalashga xizmat qiluvchi morfemalar **affiks morfemalar yoki morfologik shakllar** deyiladi. Ular mustaqil holda qo'llana olmaydi va ma'no ham anglatmaydi. O'zak morfemalar so'zda asosiy leksik ma'no tashuvchi qism bo'lgani sababli alohida mustaqil so'z sifatida qo'llana oladi va qarindosh so'zlar tarkibida ham o'zak morfema sifatida qatnasha oladi.

Morfologik shakllar (affiks morfemalar) o'zak morfemalarga nisbatan morfemalar sifatida baholanadi. Ular turli-tuman negizlarga (tub va yasama negizlarga, ot, fe'l, sifat, son, olmosh, ravish... so'z formasidagi negizlarga) ergashib keladi va shunga ko'ra ergash morfemalar deb ham ataladi. Ular har bir konkret holatda konkret bir negiz turiga qo'shib keladigan shu konkret negiz ma'nosi bilan bog'liq holda, har qo'llanishda konkret bir ma'no ifodalaydi: a) negizlardan konkret leksik ma'noli yangi so'zlar hosil qiladi: *ishla*; b) negizlarga qo'shib konkret bir grammatik ma'noni ifodalaydi: *kitobim*.

Turkiy tillar, jumladan, boshqird tilidagi affiksial morfemalarning tabiati hali to'liq aniqlanmagan, ammo shunga qaramay, affikslarni ma'no va vazifalariga ko'ra uch guruhga: so'z yasovchi, shakl yasovchi va flektivga ajratgan holda o'rganishni

maqsadga muvofiq deb bilamiz<sup>3</sup>. Tatar, qozoq, o'zbek, turkman, qorachay-bolqar va uyg'ur tilshunoslarining aksariyati ham shu tamoyilga amal qiladilar<sup>4</sup>.

Demak, boshqird tilidagi so'z o'zining morfemik tuzilishi bilan quyidagicha tavsiflanadi: a) so'z morfemalardan iborat bo'lib, uning tarkibiy elementlari morfema, allomorf va morfema variantlari; b) morfemalar ma'nosi, joylashishi va vazifasiga ko'ra o'zak va affiksga bo'linadi; v) o'zak morfema so'zning leksik ma'noni o'z ichiga olgan asosiy qismi; d) affiks - xizmat morfemasi; affikslar ma'no va vazifalariga ko'ra so'z yasovchi, shakl yasovchi va flektivga bo'linadi; e) boshqird tilida tegishli affikslardan tashqari chet tili affikslari (prefiks va qo'shimchalar) ham ishlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. D. Jurafsky & J.H. Martin, Speech and language processing : an introduction to natural language processing, computational linguistics, and speech recognition (Upper Saddle River, N.J. : Prentice Hall, 2000).
2. Ёрмат Тожиев. Ўзбек тили морфемикаси. Тошкент — 1992, bet-5
3. Баскаков Н. А. Историко-типологическая морфология тюркских языков: Структура слова и механизм агглютинации. М.: Наука, 1979. 274 с.
4. Ганиев Ф. А. Словообразование в татарском языке. Казань: ИЯЛИ АН РТ, 2010. 728 с. Ишбаев К. Г. Башкирский язык: Морфемика. Словообразование. Уфа: Гилем, 2000. 247 с. Тенишев Э. Р. Введение // Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Морфология. М.: Наука, 1988. С. 8.

<sup>3</sup> Баскаков Н. А. Историко-типологическая морфология тюркских языков: Структура слова и механизм агглютинации. М.: Наука, 1979. 274 с.

<sup>4</sup> Ганиев Ф. А. Словообразование в татарском языке. Казань: ИЯЛИ АН РТ, 2010. 728 с. Ишбаев К. Г. Башкирский язык: Морфемика. Словообразование. Уфа: Гилем, 2000. 247 с. Тенишев Э. Р. Введение // Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Морфология. М.: Наука, 1988. С. 8.

## TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKADA NANOTEXNOLOGIK USULLARNI QO'LLANILISHI

*Quyliyeva Maxbuba Uzoqovna*

*Farmakognoziya va farmasevtik texnologiya kafedra asisstanti*

*PHD Kodirov N.D*

*Farmakognoziya va farmatsevtik texnologiya kafedra mudiri*

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti*

**Annotatsiya.** Tibbiyotda nanotexnologiyaning mumkin bo'lgan xavflari va istiqbollari haqida gapirishdan oldin, bu nima ekanligini aytishimiz kerak? Ushbu kontseptsiyaning to'liq ta'rifi yo'q. «Nanotexnologiyalar» - bu texnologiyalar Nanometr darajasidagi miqdorlar bilan ishlaydi. Bu ko'rinadigan yorug'likning to'lqin uzunligidan yuzlab marta kichikroq va atomlarning o'lchami bilan taqqoslanadigan ahamiyatsiz qiymatdir. Nanotexnologiyani rivojlantirish 3 yo'nalishda amalga oshiriladi. «Nanomitibbiyot» - bu inson biologik tizimlarini kuzatish, tuzatish, loyihalash va boshqarish. Ishlab chiqilgan nanorobotlar va nanostrukturadan foydalangan holda molekulyar darajadagi texnologiya.

**Kalit so'zlar.** Nanotexnologiya, farmatsiya, tibbiyot, ishlab chiqarish, diagnostika, davolash

**Aktuellik.** "Nanotexnologiya" atamasi birinchi marta Tokio universiteti muhandisi Norio Taniguchi tomonidan 1974 yilda materiallarni qayta ishlash bo'yicha maqolasida ishlatilgan. Bu atama keng ilmiy muomalaga kiritilgunga qadar yana 20 yil o'tdi. Bugungi kunda nanotexnologiya turli sohalarda, jumladan, ilm-fanning eng tez rivojlanayotgan sohaslaridan biridir. tibbiyot va farmatsevtika sohasida. Bugungi kunda nafaqat yetakchi sanoat davlatlari, balki rivojlanayotgan davlatlar, xususan, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi ham nanotexnologiyani rivojlantirishga intilmoqda. Nanotexnologiyalar sohasidagi eng yirik davlat tadqiqot dasturlari AQSH va Yaponiya tomonidan amalga oshirilmoqda, bu dasturlarga investitsiyalar yiliga 1 milliard dollardan ortiqni tashkil etadi. 1997 yildan buyon dunyoda ushbu texnologiyalarga kiritilgan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi va 2004 yilda 4,6 milliard dollarni tashkil etdi.

**Izlanishlar natijasi.** So'nggi yillarda farmatsevtika va tibbiyot sanoatining nanotexnologiyaga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada oshdi va bu sohaga katta sarmoya kiritilishini kutish kerak. Yaqin kelajakda nanotexnologiya tibbiyotda innovatsiyalarning harakatlantiruvchi kuchi sifatida yetakchi rol o'ynaydi. 2004-yilning o'zidayoq global aylanmasi ekspertlar tomonidan 6 milliard dollarga baholangan. To'g'ri, bu hisob-kitoblarda ekspertlar nanomateryallar yoki nanotexnologiyalardan foydalanadigan har qanday tibbiy texnologiyalarni

nanomedikal deb tasniflaydi. Shunday qilib, ekspress diagnostikada oltin nanozarrachalaridan foydalanish diagnostik testning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi, ammo ularning mavjudligi mutaxassislariga ushbu diagnostika usulini nanotexnologiya deb tasniflash uchun asos beradi. Nanomeditsina sohasida faol ish olib borayotgan farmatsevtika ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning 50% dan ortig'i maqsadli organlar va to'qimalarga faol dori vositalarini etkazib berish tizimini ishlab chiqish uchun nanotexnologiyadan foydalanadi. Bu dorilar bugungi kunda global nanotibbiyot aylanmasining 80% ni tashkil qiladi. Bunday tizimlarni qo'llashning etakchi yo'nalishlaridan biri onkologiyadir. Etkazib berish tizimlaridan foydalanish dorilarning salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan. Proteinga asoslangan dorilar uchun etkazib berish tizimlari katta ahamiyatga ega, ularning ta'siri ko'pincha qonda yashash vaqtining cheklanganligi, kimyoviy labillik va immunitet reaksiyasini qo'zg'atish qobiliyati tufayli kamayadi. Yetkazib berish tizimlaridan foydalangan holda, olimlar protein preparatlarini qo'llash xususiyatlarini yaxshilashga harakat qilmoqdalar. Polimer zanjirini oqsilga biriktirish orqali nafaqat ularning qondagi yarimparchalanish davrini oshirish, balki samaradorligini oshirish ham mumkin.

Foresight institutining bir guruh nanotexnologlari nanotexnologiyaning jadal o'sishi nazoratdan chiqib ketayotganini aytdi, ammo ulardan farqli o'laroq. Bill Joya, bu borada tadqiqotni rivojlantirishni oddiy taqiqlash o'rniga mintaqada ular tadqiqot ustidan davlat nazoratini o'rnatishni taklif qilishdi. Bunday nazorat tasodifiy ofatlarning oldini oladi, masalan, nanobotlar o'zlarini yaratganda (ad infinitum), o'z yo'lidagi hamma narsani, jumladan fabrikalar, uy hayvonlari va odamlarni qurilish materiali sifatida iste'mol qiladi. Rey Kurtsveylning ta'kidlashicha, 2020 yilga borib, o'lchamdagi milliardlab nanorobotlarni joylashtirish mumkin bo'ladi. hujayra. Nanotibbiyot sohasidagi yetakchi olim Robert Freitasning fikricha, bu 2030-2035 yillarda sodir bo'ladi. Bu nanorobotlar qodir bo'ladi qarish jarayonini sekinlashtiradi, individual hujayralarni davolash va individual neyronlar bilan o'zaro ta'sir qilishni va ular amalda biz bilan birlashadilar.

Michiganlik olimlar nanotexnologiya yordamida qon hujayralariga mikroskopik datchiklarni joylashtirish mumkinligini aytishdi. radiatsiya belgilari yoki kasallikning rivojlanishi haqida ogohlantiradigan odamlar. AQShda NASA tashkiloti. Jeyms Beyner kosmik nurlanishga qarshi "nano-kurash"ni shunday tasavvur qiladi: uchirishdan oldin astronavi shpritsdan foydalanadi. teri ostiga in'ektsiya qiladi, qon oqimiga millionlab nanozarrachalar bilan to'yingan tiniq suyuqlik kiritadi va parvoz paytida qulog'iga kichik qurilma (eshitish vositasi kabi) kiritadi.

2004 yilda nanotexnologiyalarni rivojlantirishga jami sarmoya 2003 yilga nisbatan qariyb ikki baravar ko'paydi va 10 milliard dollarga yetdi. Xususi donorlar - korporatsiyalar va fondlar ulushiga taxminan 6,6 milliard dollar investitsiya to'g'ri keldi, davlat tuzilmalari - qariyb 3,3 mlrd. dollar. Umumiy investitsiyalar hajmi



bo'yicha jahon yetakchilari Yaponiya va AQSh bu sohada ishtirok etishdi. Yaponiya yangi nanotexnologiyalarni rivojlantirishga 2003 yilga nisbatan 126 foizga (umumiy investitsiyalar 4 milliard dollarni tashkil etdi), AQSh 122 foizga (3,4 milliard dollar) ko'paydi. Nanotexnologiyalardan foydalanish ko'plab yo'nalishlarda o'rganilmoqda, ammo insoniyat uchun eng istiqbolli tibbiyot bo'lib, u yerda nanomexanizmlar noyob operatsiyalarni amalga oshirishda qo'llaniladi, saraton kasalligini davolashda ham tadqiqotlar olib borilmoqda. AQShda Jon Xopkins tadqiqot instituti 13 mln. dollar Saratonga qarshi kurash nanotexnologiyalari markazini ishlab chiqish va yaratish uchun ajratilgan. Markaz turli olimlar, mutaxassislar, muhandislar, fiziklar va kimyogarlardan iborat jamoani saraton kasalligini tashxislash va davolashning eng yangi texnologiyalarini yaratish uchun birlashtirdi. Markazning o'ziga xos jihati tadqiqotchilar ishlanmalarini amaliyotga joriy etish va mutaxassislarni tayyorlashdir. Ushbu muassasaning ikkinchi xususiyati - amaliyotga kiritilgan ixtirolarning haqiqiylikni aniqlash bo'limining tashkil etilishi. Markaz to'rtta asosiy yo'nalish bo'yicha tadqiqot olib boradi:

- aniqlash uchun inson tana suyuqliklarini, qon yoki siydikni tekshirish
- tanadagi onkologik kasallik mavjudligini ko'rsatadigan ko'rsatkichlar. Ushbu yo'nalishni mashinasozlik professori Tsa-Hue Vang, tibbiyot professori Stiven Beylin va saraton biologiyasi professori Jon Xerman boshqaradi.
- Patologiya professori Anirban Maitra boshchiligidagi ikkinchi loyiha va
- Kimala saraton markazining onkologiyasi sirkumin moddasi bo'yicha tadqiqotlar bilan shug'ullanadi
- an'anaviy hind ziravorlari zerdeçalida topilgan. U saratonga qarshi xususiyatlari bilan mashhur, ammo qon oqimiga oz miqdorda kiradi.
- onkologiya professori Levitskiy boshchiligidagi yo'nalish
- saratonga qarshi mavjud vaktsinalarni tadqiq qilish va yangi vaktsinalarni yaratish.
- tibbiyot professorlari D. Heins va G. Peacock boshchiligidagi loyiha. Nanomexanizmlar yordamida olimlar saraton hujayralariga kirib, ularning to'planishini kuzatadilar kelajakda noyob vositalarni yaratishga imkon beradigan uch o'lchamda, yangi saraton hujayralari paydo bo'lishining oldini olish.

**Xulosa.** Shunday qilib, so'nggi paytlarda nanotexnologiyaga qiziqish keskin o'sdi turli mamlakatlar va Qozog'iston Respublikasi olimlari va hukumatlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar shular jumlasidandir. Barcha hududlar Nanotexnologiyalarni qo'llash istiqbolli fanni rivojlantirish va jamiyat farovonligi yo'nalishlari. Istalgan dastur effektlariga erishish diagnostika va davolashning nanotexnologik usullari tibbiyot uzoq umr ko'rishni sezilarli darajada oshiradi va saraton kabi og'ir davolab bo'lmaydigan kasalliklarga chalingan odamlarning hayot sifati darajasi; yurak etishmovchiligi, diabet va OIV / OITS

**Foydalanilgan adabiyotlar**

boshqaruv, soliqqa tortish va resurslarni boshqarishni osonlashtirgan pragmatik ma'muriy tuzilmalar mavjud edi. Markaziy hokimiyat tomonidan tayinlangan viloyat gubernatorlari mahalliy ishlarni nazorat qilib, imperator siyosatiga rioya qilishni ta'minladilar. Imperiya byurokreatiyasi, garchi zamonaviy standartlarga nisbatan oddiy bo'lsa-da, qonun va tartibni saqlash, daromadlarni yig'ish va davlat xizmatlarini boshqarishda samarali faoliyat ko'rsatdi. O'zining hududiy chegaralaridan tashqarida Durrion imperiyasi murakkab geosiyosiy dinamikani boshqarishda va qo'shni imperiyalar va davlatlar bilan strategik ittifoqlar o'rnatishda diplomatik ziyraklik ko'rsatdi. Ahmadshohning diplomatik sa'y-harakatlari savdo yo'llari xavfsizligini ta'minlash, tashqi tahdidlarga qarshi turish va imperiyaning mintaqadagi ta'sirini kengaytirishga qaratilgan edi. Harbiy kuch va diplomatik muzokaralar kombinatsiyasi orqali Durrion imperiyasi o'zining siyosiy gegemonligini qo'llab-quvvatlovchi nozik kuch muvozanatini saqlab qoldi. Durrion imperiyasining siyosiy qurilishi Afg'oniston va kengroq mintaqada tarixida doimiy iz qoldirdi. Uning markazlashgan hokimiyat merosi, qabilaviy hamkorlik, ma'muriy samaradorlik va diplomatik pragmatizm mintaqadagi keyingi sulolalar va hukumatlarga ta'sir ko'rsatdi. Imperiyaning hududiy chegaralari vaqt o'tishi bilan o'zgarib, siyosiy tuzilmalari rivojlanib borsada, Durrionlar davrida o'rnatilgan boshqaruv va yetakchilikning mustahkam tamoyillari Afg'oniston siyosati va davlat boshqaruvida aks-sado berishda davom etmoqda. Durrioniyalar saltanatini belgilovchi xususiyatlardan biri uning jamiyatning madaniy va ijtimoiy tuzilishini shakllantirishda markaziy rol o'ynagan islom diniga sodiqligi edi. Aholining ko'pchiligi sunniy islom, xususan, Hanafiy mazhabiga e'tiqod qiluvchilar edi. Din ulamolari va so'fiy tasavvufchilar saltanatda islom ta'limotlarini targ'ib qilish va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatdilar. Durrioniyalar imperiyasining tarixiy ma'lumotlarida ko'pincha harbiy va siyosiy masalalar ustunlik qilgan bo'lsa-da, bu davrda badiiy va adabiy izlanishlar ham gullab-yashnagan. Ayniqsa, she'riyat imperiyaning madaniy hayotida hurmatli mavqega ega edi. O'zining boyligi va she'riy an'analari bilan mashhur bo'lgan fors tili saroy muhitida va intellektual doiralarda keng qo'llanilgan. Shoir va yozuvchilar sevgi, urush, tabiat va ma'naviyat mavzularini aks ettiruvchi she'rlar yaratib, adabiy madaniyatning jonli rivojiga hissa qo'shgan. Durrioniy imperiyasida imperiyaning qudrati va madaniy nafosatini aks ettiruvchi ta'sirchan me'moriy yodgorliklar barpo etilgan. Qandahor, Hirot, Kobul kabi shaharlar muhim san'at, savdo va intellektual almashuv markazlari bo'lib xizmat qilgan. O'sha davrning me'moriy uslublari fors, mo'g'ul va O'rta Osiyo an'analari ta'sirini o'zida mujassam etgan, natijada imperiyaning san'at yutuqlarini ko'rsatuvchi buyuk masjidlar, saroylar va istehkomlar paydo bo'lgan. Durrioniyalar saltanatida ijtimoiy hayot islom tamoyillari va qabila urf-odatlarini uyg'unligi asosida boshqarilgan. Klanlarga sodiqlik va qabilaviy mansublik jamiyatni tashkil etishda muhim rol o'ynagan, qarindoshlik tarmoqlari ijtimoiy

tuzilishning asosini tashkil etgan. Nikoh marosimlari, bayram tantanalari, tug'ilish va o'lim bilan bog'liq marosimlar jamiyat hayotining muhim belgilari bo'lib, madaniy an'analar va o'ziga xoslikni mustahkamlaydi. Durroniya imperiyasi o'zining harbiy jasorati va siyosiy ta'siri bilan mashhur bo'lsa-da, uning madaniy merosi ham e'tirofqa loyiqdir. Diniy sadoqat, badiiy ifoda, me'moriy innovatsiyalar va ijtimoiy urf-odatlar uyg'unligi orqali imperiya 18-asr Afg'oniston va uning atrofidagi mintaqalar hayotining murakkabligini aks ettiruvchi boy va rang-barang madaniy muhitni o'stirdi. Bugungi kunda uning madaniy hayotining batafsil tasvirini qayta qurish qiyinchiliklariga qaramay, Durroniya imperiyasining mintaqa merosiga doimiy ta'siri uning doimiy ta'siridan dalolat beradi.

#### **Xulosa:**

Xulosa qilib aytganda, Durroniya imperiyasining siyosiy qurilishi Ahmadshoh Durroniyaning innovatsion strategiyalari, yetakchilik ziyrakligi va geosiyosiy uzoqni ko'ra bilishining dalilidir. Turli qabila fraktsiyalaridan yaxlit imperiya tuzish, samarali ma'muriy tuzilmalarni amalga oshirish va diplomatik tashabbuslarni amalga oshirish orqali Durroniya imperiyasi Afg'oniston tarixida muhim o'rin egalladi. Uning merosi hokimiyat dinamikasi, boshqaruv tamoyillari va davlat boshqaruvining murakkabligi haqidagi nozik tushunchani aks ettiradi va siyosiy tuzilmalarning tarixiy traektoriyalarga doimiy ta'siri haqida qimmatli tushunchalarni taqdim etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Хайдаров А.А. (1996) Центральная Азия во внешней политике Исламской Республики Иран. Дисс. док. полит. наук. – Т.: – С.285.
2. Хайдаров А.А. (2020) Мусульманское духовенство vs. власть в современном Афганистане: взгляд из Узбекистана // Мир и безопасность, Вестник РУДН. Серия: Международные отношения. Vol. 20. No. 4.
3. Маннонов А.М. (18.09.2018) “O‘zbekiston – Afg‘oniston” do‘stlik jamiyatining taqdimoti // Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi. <http://interkomitet.uz/boshqa/o-zbekiston-afg-oniston-do-ztlik-jamiyatining-taqdimoti/>
4. Маннонов А. (2022) Шарқшунослик масалалари. –Т.: Фан. – Б.111.
5. Акмалов Ш.И. (2002) Проблема афганского урегулирования в современных пакистано-иранских отношениях. Дисс. канд. пол. наук. – Т.: 171 с.
6. Акмалов Ш. (2014) Афганистан на перепутье: проблемы и перспективы. Lambert Academic Publishing. 44 с.

## MAMLAKATIMIZNING JANUBIY HUDUDLARIDA KENG TARQALGAN QO'SH QANOTLI QON SO'RUVCHI HASHAROTLARNING RIVOJLANISHI, ULARNING ZARARLARI, QARSHI KURASHISH VA OLDINI OLISH USULLARI.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus  
filiali magistranti **Kushimmatov Jalol Baxram o'g'li.***

**Anototsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizda yoz faslida qishloq xo'jalik hayvonlarining qonini so'rib tinchlik bermaydigan va qon so'rishi bilan birgalikda hayvonlarga turli xil yuqumli va invazion kasalliklar qo'zg'atuvchilarni yuqtirishi haqida va so'nalar yetkazadigan zararlar, ularning rivojlanishi, qarshi kurashish va oldini olish usullari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** abiotik omillar, biotik omillar, entomozlar, gazandalar, Tabanus, Atylotus, Hybomitra, Haematopota, Chrysops, g'umbak, lichinka, Zlatoglazki.

**Kirish.** Yer yuzida eng ko'p tarqalgan mayda jonzotlar bu hasharotlardir. Ular tabiatning har xil tashqi muhit omillari, jumladan, jonsiz omillari - yorug'lik, namlik, harorat, havoning harakati (abiotik omillar) hamda tabiatning tirik omillari - hayvon va o'simliklar (biotik omillar) kuchli ta'sir ko'rsatadi. Har qaysi tirik mavjudod tashqi muhitning faqatgina ma'lum bir o'zgarib turuvchi chegarasida yashaydi.

Hasharotlarning tana harorati tashqi muhitga bog'liq holda 10-35<sup>0</sup> atrofida bo'ladi. Namlik hasharotlarning xulqiga, naslligiga va hayotchanligiga ta'sir qilsa, yorug'lik esa hasharotlarning sutkalik faolligiga bog'liq bo'ladi. Ayrim hasharotlar oqshom, qosh qorong'i paytda faollashsa, ayrimlari esa quyoshli kunlarda faollashadi. Tabiatda yil mavsumining o'zgarishi - bu talabchan, qattiq doimiy faktorlar hisoblanadi. Hasharotlar ana shu omillarga endokrin sistemasining ta'sirida neyrohumoral mexanizmi asosida boshqarilishi orqali diapauzalarning – uzoq yoki qisqa muddatli o'sish va rivojlanishdan kechikishi bilan javob qaytaradi.

Veterinariya entomologiyasi hayvonlar sog'ligi uchun zararli bo'lgan hasharotlarni va ularga qarshi kurash usullarini o'rganadi. Hasharotlar hayvon organizmida parazitlik qilib yoki yuqumli hamda invazion kasallik qo'zg'atuvchilarini tashuvchisi sifatida zarar keltiradi. Ayrim hasharotlar gelmintlarning oraliq xo'jayinlari bo'lib xizmat qilsa, boshqa turdagilarga esa hayvonot dunyosi mahsulotlarining sifatini buzadi. Hasharotlar tomonidan qo'zg'atiladigan kasalliklar **entomozlar** deb nomlanadi.


Uy hayvonlari issiq yaylovlarda boqish davrida ularga ko'plab ektoparazitlar, hasharotlar, oddiy tilda **gazandalar** deb ataluvchi so'na, pashsha, iskaptoparlar, siulid

mayda pashshalari, kulikoid zaxkashalari, qon so‘ruvchi va moskitlar ko‘plab hujum qiladi. Yil davomida va asosan hayvonlarni bog‘lab boqish davrida doimiy parazitlar, junxo‘rlar, patxo‘rlar, bitlar va qon so‘ruvchi, shuningdek, burgalar va kanalar ham hujum qiladi.

**So‘nalar-** Diptera turkumi, Brachicera kenja turkumi, Tabanidae oilasiga mansub ancha yirik ikki qanotli, qon bilan oziqlanuvchi hasharotdir.

Veterinariyada *Tabanus*, *Atylotus*, *Hybomitra*, *Haematopota* (dojdevnye – yomg‘ir so‘nasi) va *Chrysops* (pestryanki) avlodlarining so‘nalari ko‘proq ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda Tabanidae oilasining 2200-dan ko‘proq turi aniqlangan. O‘zbekistonda so‘nalar E.Gan, M.Qodirova, S.Nodirovlar tomonidan o‘rganilgan va kurash tadbirlari ishlab chiqilgan.

**Qo‘zg‘atuvchisining ta‘rifi.** O‘lchamiga qarab yirik, o‘rtacha va kichik so‘nalar farqlanadi. Ularning uzunligi 6-30 mm gacha bo‘ladi. Tanasining rangli turlariga qarab sarik, qora, qo‘ng‘ir va kulrang bo‘ladi. Boshi yirik, oldinga qarab bo‘rtib chiqqan, boshining yon tomonida so‘nalar tirik davrida kamalaksimon, tovlanuvchi, yirik fasetli ko‘zlari joylashgan bo‘ladi. Ayrim turlarining boshi tepasida yana 3 dona oddiy ko‘zlari bor. Boshining oldingi qismida bir necha bo‘g‘in (segment) dan iborat tayoqchasimon o‘simta bilan tugaydigan 3-4 bo‘g‘inli antenasi joylashgan. Faqat urg‘ochilari qon so‘radi.



Ularning og‘zi sanchib so‘ruvchi tipda (erkaklari esa yalovchi tipda), hartumcha ko‘rinishda bo‘lib, boshining ostki qismida joylashgan. Uning yonlarida ayrim tukchalar bilan qoplangan ikki bo‘g‘inli paypaslagichlari yopishgan. Urg‘ochilarning xartumchalari muskulli, oxirgi uchi ikkiga bo‘lingan qoramtir rangdagi pastki jag‘dan iborat bo‘lib ariqcha (nov) bilan to‘lgan. Xalqumning ustki qismidan

o‘sib chiqqan, ichida so‘lak yo‘li o‘tgan pastki xanjarsimon, yuqorigi qilichsimon jag‘lari kichrayib ketgan, ular o‘simlik shiralari bilan oziqlanadi.

Ko‘kragi keng, yirik, qanotlari keng, shaffof dog‘lar yoki tasmalar bilan bir oz xiralashgan. Qanotlarining orqasida vizillagich qanotlari joylashgan. Oyoqlari rivojlangan, tukli bo‘lib, bir juft tirnoqlari va uchta so‘rg‘ichli yostiqchalari bilan tugaydi. Qorni keng, qopsimon bo‘lib, uchta bo‘g‘indan iborat. Qon so‘rigan paytida qorni kattalashadi Urg‘ochilari urug‘lagandan hamda qonga to‘ygandan so‘ng suv havzasi yaqin joydagi o‘simliklarning tanasiga va barglariga tup-tup qilib tuxum



qo'yadi. Tuxumi silindrisimon ko'rinishda bo'lib, yuqori qutbidan qiyalanib kesilgan. Yangi qo'yilgan tuxum oqish, etilganlari esa sariq, to'q qizgish (qo'ng'ir) rangda bo'ladi. 5-10 kundan so'ng tuxumdan urchuqsimon lichinka chiqadi. Ularning tanasi bosh, uchta ko'krak va to'qqiz dona qorin bo'g'inlaridan iborat bo'ladi. Tuxumdan endigina chiqqan lichinkalarning uzunligi 2,3-2,8 mm gacha bo'ladi. Yetti marta tullab yetilgan lichinkaning uzunligi esa 45 mm gacha bo'ladi. Lichinkalar tullashni tugatib g'umbaka aylanadi.

**Tabanus avlodi.** Ancha yirik so'nalar. Ular tanasining uzunligi 16-30mm. Fasetli ko'zi och-yashil, ko'k, ba'zan jigarrangda bo'ladi. Muylovchalari boshiga nisbatan shaffof, tinch turganida yig'ilmaydi. Orqa oyog'ining tizzasida pixi bo'lmaydi.

So'nalar hamma yerda, shuningdek, yog'ochsimon o'simliklar bor bo'lgan, botqoqlik, suv havzalariga boy ko'p sonli rayonlarda tarqalgan. Janubga siljishgan sari so'nalarning xilma-xil turlari uchraydi. So'nalar hayvon tanasining turli joylarida, ko'proq bosh sohasidan, bo'ynidan, ko'krigidan qon so'radi. Uchish davrida chanqoqligini qondirish uchun suv havzalariga intiladi. So'nalar uchun ot, qoramol, tuya, ba'zan qo'y, it va boshqa hayvonlar xo'jayin bo'lib hisoblanadi. Qoramtir (to'q) rangli hayvonlarga so'nalar ko'prok hujum qiladi. So'nalar qon so'rish vaqtida, terini kavlab, yaraga zaharli xususiyaga ega so'lagini kiritadi. So'nalar o'lgan hayvonlarning qonini so'rganligi uchun xavfli yuqumli va invazion kasallik qo'zg'atuvchilarini tashuvchilari hisoblanadi. Yosh hayvonlar kattalariga nisbatan so'na chaqishiga moyil bo'ladi.

**Rivojlanishi.** Qon so'rib to'ygan urg'ochi so'na bir oy yashay oladi. Shu vaqtda kichkina-kichkina, suvi oqadigan ariqlarning labidagi o'simliklarning poyasiga 300-tadan 1000-tagacha tuxum qo'yadi. O'rtacha bir-ikki haftadan keyin bu tuxumlardan lichinkalar chiqib, ular 10-11 oy suv va tuproqda yashab, u erdagi organik moddalar bilan oziqlanadi. Havo soviganda tuxumdan lichinkalarni chiqishi bir oy davom etishi mumkin.

Lichinkalik davri taxminan bir yilga yaqin davom etadi. Lichinkalar olti marta tullaydi hamda metamorfoz o'zgarishlarni to'liq tugatmagan holda qishlab chiqadi. Bahor kelishi bilan lichinkalar barcha rivojlanish bosqichlarini tugatib, bir muncha quruq joyga o'rmalab chiqadi va u yerda g'umbakka aylanadi. G'umbaklik davri 6 kundan 25 kungacha davom etadi, so'ngra qanotli, yetuk hasharotga aylanadi. Ayrim rivojlanib ulguraolmagan lichinkalar ikkinchi marta takror qishlaydi. So'nalarning faqat urg'ochilarigina qon so'radi xolos. Eraklari esa o'simliklarning shirasi bilan oziqlanadi. So'nalar ertalab ucha olmaydi, ammo soat 11:00 dan 15:00 lar oralig'ida juda ko'p uchadi. Temperatura 15 gradusdan past bo'lsa, so'na uncha harakat qila olmaydi. Ular oziqlanish uchun mol terisining hamma yeriga qo'nib 5-15 daqiqa qon so'radi, lekin bo'yin, oyoqlari va boshiga ko'proq hujum qiladi. So'nalarning

hasharotxo‘r qushlar, qizil ari, ninachi, tuxumxo‘rlar va shu kabi boshqa dushmanlari ham bor.

**So‘nalar etkazadigan zararlar.** So‘nalar, ayniqsa katta yoshdagi so‘nalarning so‘lagi juda ham zaharli bo‘lib, chaqqan joyi qattiq og‘riydi. Shuning uchun so‘na chaqqan joyda teri shishib, qizaradi, u yerdan bir-ikki tomchi qon oqadi.

Haqiqiy so‘nalar (oila qanotlilar) mollarning ko‘proq qorin, oyoqlarining ichki tomoniga ko‘prok qo‘nadi. «Zlatoglazki» deb ataladigan so‘nalar otlar ko‘zining burchagida ko‘prok qo‘nadi. So‘nalar uchsa mollar kuchli bezovtalanadi, ularning hujumidan qutulish maqsadida yaylovlardan binolarga qochib och qoladi natijada hayvon tana vaznini yo‘qotadi. So‘nalar qoramollarga tuxum qo‘yganda ularning suti o‘rta hisobda 10-15% ga kamayadi. Ot va boshqa ishchi hayvonlarning ish qobiliyati pasayadi. So‘nalarning yana eng bir zararli tomoni ular terini mexanik jarohatlab sil, kuydirgi, tulyaremiya, yuqumli anemiya, tripanosomozlar, anaplazmoz kabi yuqumli va invazion kasalliklar qo‘zg‘atuvchilarini yuqtiradi (M. Qodirova, S. Nodirov).

**Qarshi kurashish va oldini olish tadbirlari.** So‘nalarga qarshi kurashishda ishonchli choralar hozircha ishlab chiqilgan emas. Qon so‘ruvchi hasharotlarga (gnuslar) bilan ko‘rashish kompleks tarzda o‘tkaziladi. Bunda ularning rivojlanishi uchun noqulay sharoit yaratish, hayvon tanasi va tashqi muhitdagi qon so‘ruvchi hasharotlarni insektitsidlar bilan qirish, hayvonlarni qon so‘ruvchi hasharotlar hujumidan saqlashga qaratilishi lozim. Barcha tadbirlar qon so‘ruvchi hasharotlarni o‘ldirishga qaratilmog‘i kerak. Shu maqsadda chorvachilik intensiv rivojlanayotgan mintaqalardagi yaylovlarni quritish uchun melioratsiya ishlarini amalga oshirilishi, yaylovlarni butazorlardan tozalash, kichik jarliklarni tekislab hovuzchalarni ko‘mib yo‘q qilish maksadga muvofiqdir. Yalangliklardagi va o‘rmonzorlardagi yaylovlarda, mollar turadigan yaylovlarda qanotli parazit hasharotlarga qarshi geksaxloranga maxsus termik aralashmalar qo‘shib dudlatiladi. Buning uchun 50% li geksaxloranga 50% li termik aralashmasi bo‘lgan NBKG 17 markali shashkadan foydalaniladi. Geksaxloran dudidan muvaffaqiyatli foydalanish uchun shamolning yo‘nalishi, dudlanadigan joyning chegarasi va miqdori aniqlanadi.

Bitta shashka dudlatilganda 8 gektar maydondagi simulide, xedide, kulikoide olilarining vakillari yoki 1-3 gektar erdagi so‘nalar kiriladi. Shashkalar ertalab yoki kechqurun dudlatiladi, ayniqsa bulutli, tumanli havoda dudlatish samarali bo‘ladi. Qonso‘rar hasharotlarning yangi avlodi paydo bo‘lsa, dudlatish yana bir marta takrorlanadi. Ishchi otlarni qonxo‘r so‘nalar hujumidan saqlash maqsadida asbob-uskunalar (egar, xomut va hokazo) ustidan 10% li kreolin emulsiyasi sepilgan yopqich yopiladi. Hayvonlarni so‘nalarning hujumidan saqlash uchun kunning issiq, so‘nalar aktiv uchadigan soatlarida, soya bostirmalarda yoki quruq yaylovlarda boqish kerak. Ochiq yaylovga kechasi, ertalab haydaladi. Havo bulutli va tumanli kunlari mollar yaylovlarga kunduzi haydalishi mumkin.

Hayvon terisiga surkaladigan insektitsidlar unchalik uzoq ta'sir etmaydi. Tekshirilib ko'rilgan preparatlar faqatgina sirdan ta'sir etadigan kontaktli insektitsidlar yaxshi natija beradi. Ular teriga surkalgandan keyin chuqur shimilib, 3 kungacha teriga qo'ngan hasharotlarni o'ldiradi. Qonxo'r hasharotlarning yaxshi atir va boshqa hidli gullarga chiday olmasligini hisobga olib, ularga qarshi har xil sistematik usulda olingan repellentlar (hurkituvchi moddalar) ishlatiladi. Ulardan eng yaxshisi kuchli va chidamli geran hidli difeniloksid ( $C_{12}H_{10}O$ ), siren hidli terpineol ( $C_{10}H_{18}O$ ), dimetilftolat ( $C_{10}H_{10}O$ ) va boshqalardir.

**Xulosa.** Qon so'ruvchi hasharotlar hayvon organizmiga turli xil yuqumli va invasion kasalliklar keltirib chiqaruvchi ektoparazitlar hisoblanadi. Undan tashqari bu tekinox'rlar hayvonni chaqish paytida ayrim ektoparazitlar esa hayvon terisiga tuxumlarini qo'yish paytida teriga turli xildagi mexanik jarohat yetkazadi. O'z navbatida tuxumdan chiqqan lichinka ham hayvonda har xil patologik jarayon yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Shuning uchun ularga qarshi kurashish, ularni rivojlanishiga to'sqinlik qilishni yaxshi bilishimiz lozim. Shunda ularning rivojlanishi uchun noqulay sharoit yaratish, hayvon tanasi va tashqi muhitdagi qon so'ruvchi hasharotlarni insektitsidlar bilan qirish, hayvonlarni qon so'ruvchi hasharotlar hujumidan saqlash tadbirlarini to'g'ri tashkil qilamiz. So'nalar yozda uchib hartumiga tez-tez suv oladi. Ularning bu xususiyatini inobatga olib, yaylovlarda unchalik katta bo'lmagan suv havzalariga kerosin yoki mazut aralastirib qo'yiladi. So'nalar suv olish uchun uchib kelganlarida, xartumi bilan neftning yupqa pardasiga tegib, juda tez o'ladi. Bunday suvlardan hayvonlarning ichishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Yuqoridagi usullar yordamida ektoparazitlarning hujumidan chorvachiligimizni asraymiz va o'z navbatida hayvonlarning mahsuldorligini yuqori ko'rsatkichda bir maromda saqlab turishimiz mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Haqberdiev P.S., Qurbonov SH.X. «Parazitologiya»fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, O'quv qo'llanma.,Toshkent, 2015. «Optima plus MCHJ»
2. Haqberdiev P.S., Ibragimov F.B. Veterinariya protozoologiyasi va araxnoentomologiyasi. O'quv qo'llanma.,Toshkent, «Navro'z» nashriyoti 2020 yil
3. G'afurov A.G'., Davlatov R.B., Rasulov U.I. Qishloq xo'jalik hayvonlarining protozoy kasalliklari. O'quv qo'llanma. "Zarafshon" nashriyoti Samarqand 2010 yil.
4. Ятусевич А.И. и др. Паразитология и инвазионные болезни животных. Учебник. Минск. ИВЦ Минфина. 2017 год.
5. Denis Jacobs, mark Fox, Lynda Gibbons, Carlos hermosilla // Principles of Veterinary Parasitology // Wiley Blackwell, USA, 2016.

### Internet saytlari

1. [www.sea@mail.net21.ru](http://www.sea@mail.net21.ru)
2. [www.veterinary@actavis.ru](http://www.veterinary@actavis.ru)
3. [www.fvat@academy.uzsci.net](http://www.fvat@academy.uzsci.net)
4. [www.zhivotnovodstvo.net.ru/parazitologiya/179.html](http://www.zhivotnovodstvo.net.ru/parazitologiya/179.html)
5. [www.zhivotnovodstvo.net.ru/parazitologiya/181.html](http://www.zhivotnovodstvo.net.ru/parazitologiya/181.html)
6. [www.zhivotnovodstvo.net.ru/parazitologiya/180.html](http://www.zhivotnovodstvo.net.ru/parazitologiya/180.html)

## ЧОРВА МОЛЛАР ЎҒИРЛИГИНИ ОЧИШНИНГ ЯНГИЧА УСУЛЛАРИ ВА ХОЗИРГИ ПАЙТДА СОДИР ЕТИЛАЁТГАН УШБУ ТУРДАГИ ЖИНОЯТЛАРНИ БАРТАРАФ ЕТИШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИЧКИ ИШЛАР ВАЗИРЛИГИ  
АКАДЕМИЯСИ КУРСАНТИ  
КАРИМБОВ МАҚСАД МУХАММАДСОЛИЙ ЎҒЛИ

### Annotatsiya

Ушбу маколада бугунги кундаги чорва моллар ўғирлиги жиноятларини янгича очилиш усуллари ва ушбу турдаги жиноятларнинг бартараф этишининг самарали чоралари кенг ёритилган.

### Аннотация

В данной статье широко освещены современные методы раскрытия преступлений, связанных с кражами скота, и эффективные меры по пресечению этого вида преступлений.

### Abstract

In this article, today's livestock theft crime detection methods and effective measures to eliminate this type of crime are widely covered.

**Kalit so'z:** Чорвачилик, чорва моллар ўғирлиги, конун, қарор, геном, олимлар, хориж тажрибалари

**Ключевые слова:** Скотоводство, скотокрадство, закон, решение, геном, ученые, зарубежный опыт.

**Key words:** Cattle breeding, livestock theft, law, decision, genome, scientists, foreign experiences

### Кириш:

Чорва моллар ўғирлиги ва шу каби бошқа жиноятларни бартараф этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017-йил 10-апрелдаги ПФ-5005-сон Фармониға мувофиқ, шунингдек қонунийликни таъминлаш, жиноятларни ўз вақтида қош этиш, ҳар томонлама, тўла ва ҳолисона тергов қилиш, жавобгарликнинг муқаррарлиги принципини сўзсиз амалга оширишнинг самарали механизмларини яратиш мақсадида 2017-йил 18-апрелда ПК-2898-сон Қарори қабул қилинди.

Ушбу қарорга биноан Республикамизда содир этилаётган жиноятларнинг олдини олиш ва қош этиш йўналиши бўйича бир қанча ишлар ва дастурлар қабул

килинди. Хусусан, Республикамизда содир этилаётган чорва моллар ўғирлиги билан боғлиқ жиноятларининг кўлами ошаётганлиги ва ушбу турдаги жиноятларнинг латентлик даражаси ҳам кўтарилаётганлиги такидланди. Чорва моллар ўғирлиги жиноятларининг олдини олиш ва фош этишда бошқа соҳа вакиллари билан ҳамкорлик ишлари ва хориж тажрибасини ўрганган холда, амалий билим ва кўникмаларни амалиётда жорий этиш, шунингдек Ўзбекистон Республикасининг 2012-йил 25-декабрьда қабул қилинган “Тезкор – кидирув фаолияти тўғрисида”<sup>1</sup> ги ЎРК-344-сонли қонунининг 14-моддасида белгиланган Тезкор – кидирув тадбирларини амалга оширган холда ушбу турдаги жиноятларни бартараф этиш чоралари такидланди.

Чорва моллар ўғирлиги билан боғлиқ жиноятларга юзланишдан олдин чорвачилик сўзига алоҳида этибор бериш даркор ҳисобланади, Чорвачилик — қишлоқ хўжалигининг асосий тармоқларидан бири ҳисобланади. Бунда юридик ва жисмоний шахсларнинг чорвачилик маҳсулотлари етиштириш учун чорва молларини боқиш ва урчитиш билан шуғулланади; аҳолини иш ҳайвонлари (от, хўкиз, туя, буғу), озиқовқат маҳсулотлари (сут, қатик, гўшт, ёғ, тухум ва бошқалар), енгил саноатни хом ашё (жун, тери, мўйна ва ҳ.к.), деҳқончилик органик ўғит билан таъминлайди. Чорвачиликнинг тараққий етиши ва маҳсулдорлиги деҳқончиликнинг ривожланиши, ердан интенсив фойдаланиш билан чамбарчас боғлиқ. Чорвачиликнинг асосий тармоқлари: қорамолчилик, қўйчилик, ечкичилик, йилкичилик, туячилик, паррандачилик, асаларичилик, чўчкачилик, куёнчилик, даррандачилик, буғучилик, итчиликдан иборат.<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси мустақилликка еришгач, қишлоқ хўжалигида туб иқтисодий ислохотларни амалга ошириш жараёнида давлат хўжаликлари жамоа, ширкат хўжаликларига айлантирилди, чорвачилик, аксарият хўжаликларнинг қорамолчилик фермалари хусусийлаштирилди, деҳқон ва чорвачилик йўналишидаги фермер хўжаликлари ташкил этила бошлади.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1993-йил 15-мартда "Республика чорвачилигида иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш чоратадбирлари тўғрисида"ги, 1994-йил 23-февралда "Чорвачиликда иқтисодий ислохотларни такомиллаштириш ҳамда деҳқон (фермер) хўжаликлари ва хусусийлаштирилган фермалар манфаатларини ҳимоя қилиш чоралари тўғрисида", 1995-йил 24-мартдаги "Чорвачиликда хусусийлаштиришни давом еттириш ва хусусий тадбиркорликни қўллабқувватлаш чоратадбирлари тўғрисида" қарорларига кўра, жамоа хўжаликларининг зарар билан ишлаётган 1499 қорамолчилик фермалари хусусийлаштирилди (1995). Натижада

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2012-йил 25-декабрьдаги “Тезкор-кидирув фаолияти тўғрисида”ги ЎРК-344-сон қонуни.

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати, “80 000 - сўз” мурожат вақти: 23.12.2023.

республикада ишлаб чиқарилаётган гўшт ва сутнинг 75% ни хусусий сектор бера бошлади. Ўзбекистон Республикасининг 1995-йил 25 декабрда қабул қилинган "Наслчилик тўғрисида" қонуни Чорвачиликни ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга бўлди.

Суд-тергов амалиёти материалларининг далолат беришича, чорва моллари ўғирликларининг аксарияти куз-қиш фаслларида содир этилади ва бу бир қатор сабаблар билан боғлиқ. Айнан шу даврда чорва моллари энг семирган пайт бўлади ва энг яхши товар хусусиятига эга бўлади, бунинг устига совуқ вақтда сўйилган чорва гўштини сақлаш ҳам осон. Куз охири – қиш бошида гўштга бўлган талаб ва унинг нархи кескин ошади, бинобарин, ўғирланган чорва молини ўтказиш ҳам осонлашади. Бу даврда йўлларда транспорт қатнови анча камаяди, шунингдек чорва моллари боқиладиган жойларда (яйловларда) дам олувчилар ва бошқа гувоҳлар пайдо бўлиш эҳтимоллиги ҳам кам бўлади.

Чорва моллари ўғирлиги, асосан, кечқурун ёки тунда, қишлоқ жойлардан узоқда ёки ёпиқ жойларда бўлганида эса кундузи ҳам содир этилиши мумкин. Амалиётни таҳлил қилиш мазкур жиноятларнинг аксарияти дам олиш кунларидан аввал содир этилиши ҳақида хулоса чиқаришга имкон беради, чунки дам олиш кунлари одатда бозорларда одамлар харид қилиш билан банд бўладилар, шу боис ўғирлаб сўйилган чорва моллари гўшти ана шу бозорларда сотилади.

Ўтказилган тадқиқотлардан маълум бўлишича, ўғирланган чорва молларини сотиш шарт-шароитлари ҳақидаги маълумотларни ўрганиш зарур, чунки бу чорва моллари ўғирликларини фош этиш ва тергов қилишда алоҳида аҳамиятга эга. Бу шу билан боғлиқки, жиноятчилар ушбу масалани ҳал қилиш вариантларини аввалдан келишиб оладилар. Деярли ҳар тўртинчи ҳолатда (26,7 %) чорва моллари (ёки унинг гўшти) ўғирлик содир этилганидан кейинги дастлабки 3 соат ичида сотиб юборилганлиги ана шундан далолат беради. Бунда ўғирланган чорва моллари овқатланиш объектлари (кафе, ресторан, ошхоналарда) ёки гўшт маҳсулотлари ишлаб чиқиладиган корхоналарга ўтказилганида энг мураккаб вазиятлар юзага келади, чунки бу ерларда ўғирланган чорва моллари гўшти одатда бир сутка ичида қайта ишлаб бўлинади. Учта ҳолатдан бирида (жиноят ишларининг 36 %да) жиноятчилар ўғирланган чорва молларини сотмасдан, ўзларида олиб қолганлар, бу билан жиноятни гўшт сотиш вақтида аниқлаш имкониятини йўқ қилганлар.

Яна бир муҳим вазият шундан иборатки, одатда, жиноят содир этилишидан аввал жиноятчилар пухта тайёргарлик кўрадилар ёки, энг камида, маҳаллий шароитларни яхши билиб оладилар.

Аксарият чорва моллари ўғирликлари аҳоли пунктлари ва йўллардан анча узоқдаги яйлов ва отхоналарда содир этилади. Шу боис бундан аввал вазият

пухта ўрганилади, у ерларда чўпон ёки қоровулларнинг бор-йўқлиги, уларнинг сони, иш ва дам олиш тартиби, уларда алоқа ва хабар бериш воситаларининг бор-йўқлиги аниқланади.

Шунингдек, адирлар, дала оғилхона ҳамда ҳайвонлар сақланадиган бошқа жойлардан чорва молларини ўғирлаш кенг тарқалган. Бундай ўғирликлар одатда фақат тунда содир этилади, шунингдек бунда уйда катта ёшдагиларнинг бор-йўқлиги аниқланади. Одатда уй яқинидаги жойлардан чорва молларини ўғирлаш байрам кунлари ёки байрам арафасида содир этилади.

Кўп ҳолларда жинойтчилар жинойт изларини яшириш ва чалғитиш чораларини қўллайдилар, бунинг учун ўғирланадиган чорва молларини тошли ерга ҳайдаб борилади, айлангириб ҳайдалади, орқага ҳайдаб келинади, изларни қолдирмасликка ҳаракат қилинади. Кўпинча бундай найранглар жинойтчиларнинг маҳаллий аҳоли ёхуд бошқа жойдан келган шахслар эканлигидан, аммо чорва молини узоқ масофага ҳайдаб кетишни режалаштирганидан далолат беради, шу боис изларни ниқоблаш ҳаракат йўналишини яшириш учун қўлланилади.

Ўғирланган чорва молларини узоқ масофага ҳайдаб кетишда жинойтчилар ўз хавфсизликларини таъминлаш учун қўшимча чораларни қўллайдилар. Шунингдек, ушбу чорва молларининг тамғаларини йўқ қилиш ёки ўзгартириш, ўғирланган чорва молга ўз тамғаларини қўйиш чоралари кўрилади. Баъзан ўғирланган чорва молни эгаси таниб олишини қийинлаштириш мақсадида, уларнинг белгиларини ўзгартиришнинг ўзига хос усуллари қўллангани ҳоллари ҳам учраб туради.

Агар чорва молларини ўғирлаш чоғида автотранспортдан фойдаланиладиган бўлса, жинойтчилар одатда чорва молларнинг эмас, балки жинойт содир этиладиган жой яқинида қолдирилган ва ниқобланадиган автомашинанинг белги ва изларини яширишга ҳаракат қиладилар.

Чорва молларини ўғирлаш содир этиладиган вазиятлар ҳар хил бўлиши мумкин. Кўпинча, тергов амалиётини ўрганишдан маълум бўлишича, бундай жинойтлар қўққисдан юзага келган қасд натижаси бўлмайди, балки аввалдан тайёргарлик кўрилади. Жинойтчининг шахсига ғайриижтимоий хатти-ҳаракатлар хос бўлиб, улар жинойт содир этилишидан анча аввал намоён бўлади.

Одатда, жинойтга тайёргарлик кўриш жараёнида қуйидаги тадбирлар амалга оширилади: 1) ўғирлаш мўлжалланаётган муайян чорва моллари танланади; 2) ҳайвонлар жойлашган ер аввалдан ўрганилади; 3) ўғирланган чорва молларини ўтказиш (сотиш) йўллари қидирилади; 4) жинойт содир этиш вақти ва усули белгиланади, жинойтни амалга ошириш қуроллари ва транспорт воситалари тайёрланади; 5) жинойт иштирокчилари ўртасида вазифалар



таксимланади; б) жинойй режани амалга ошириш механизми хаёлан ишлаб чиқилади.

Оғилхоналар ва бошқа ёпиқ бинолардан чорва моллари ўғирликларини амалга оширишда жинойтчилар турли усуллардан фойдаланади жумладан, танланган объектга киришда қулфларни, тамбалаш мосламалари ва тўсиқларини бузиш орқали; ҳеч бир тўсиқни бузмасдан эркин кириш орқали; бинога кириш билан боғлиқ бўлмаган ҳаракатлар ёрдамида (масалан, ҳайвонга муайян озуқа бўлагини кўрсатиб чақириб олиш орқали) амалга оширилади.

Чорва моллари ўғирликларини содир этишга хос хусусият жинойтчи шахслар томонидан махсус воситалардан фойдаланишидир. Турли тўсиқларни бузиш учун мослаштирилган қурол ва воситалар сифатида махсус тайёрланган нарса ва қуроллар ҳам, хўжалик-маиший эҳтиёжларда қўллаш учун мўлжалланган нарсалар ҳам ишлатилади. Камдан-кам ҳолларда бузиш қуроли жинойт содир этиш жойининг ўзида бўлади.

Чорва моллари ўғирликларини содир этиш жойини яшириш усуллари орасида қуйидагиларни ажратиб кўрсатиш мумкин: 1) ўғирлик содир этилган жойни ниқоблаш (жинойтчилар ўз ҳаракатларининг аниқланмаслигига ҳаракат қиладилар, бунинг учун тўсиқлардаги бузилишларни бартараф этадилар, ошиқ-мошиғидан чиқарилган эшик ва деразаларни яна жойига илиб кўядилар); 2) ўғирланган чорва молларини жинойт содир этилган ҳудуддан анча узоклаштириб (жинойтчилар, уларнинг қариндошлари ва танишлари яшайдиган жойда) яшириш, ҳайвонларни бошқа вилоятга ҳайдаб бориш. Ўғирланган чорва молларини яширишнинг бу усулини сайёҳ жинойтчилар ҳам, маҳаллий аҳоли ҳам қўллайди; 3) чорва молларини бошқа жойга ҳайдаб бориш қийин бўлган вазиятда, шу яқин атрофда сўйиш ва гўштини бурдалаш; 4) ўғирланган чорва молларини тезда ўтказиб (сотиб) юбориш.

Ҳуқуқшунос олим Р.А.Журавлевнинг фикрича, чорва моллари ўғирликларини фош этиш ҳамда тергов қилишда, у ёки бу тергов ҳаракатларини ва уларни амалга ошириш тактикасини танлашда биринчи даражали вазифа чорва моллари ўғирлиги, ушбу жинойтнинг содир этиш мотиви ва шарт-шароитлари ҳақидаги дастлабки маълумотларнинг ҳажми, хусусияти ва мазмунини аниқлаб олишдир деб таъкидлаган<sup>3</sup>.

Чорва моллари ўғирликларини содир этилишига бир қатор шарт-шароитлар имкон яратади:

1. Жинойй тажовуз предметининг кўп вақт мобайнида назоратсиз қолдирилиши. Республикамизда энг кўп тарқалган чорва молларини сақлаш тизими – яйлов чорвачилиги – чорва молларини жуда катта ҳудудларда, баъзан

<sup>3</sup> Журавлев Р.А. Проблемы организации и тактики расследования преступлений в сельской местности // Проблемы предварительного следствия и дознания. - М.: ВНИИ МВД РФ, 1992. - С.83.

назоратсиз боқишни тақозо этади. Бу ҳолат ўғирлик жинойтини содир этилиши учун энг қулай шароит яратади. Бунинг устига, жинойтчиларни кўпроқ қизиқтирадиган йилқи, туя ва қорамоллар тунда, одатда, умуман ўз холига қўйиб юборилади.

Йилнинг ёз, куз фаслларида, республикамизнинг жанубий ҳудудларда эса деярли йил давомида чорва моллари (айниқса фуқароларга тегишли чорва моллари) ҳовлида ва молхоналарда сақланади, бу эса уларга киришни осонлаштиради. Наридан борса, чорва моллари мустаҳкам бўлмаган материаллар (тахта, тўқилган навдалар ва ш.к.)дан ясалган қўтонларда сақланади. Булар эса ўғрилар учун қийинчилик туғдирмайдиган тўсиқлар бўлиб, мустаҳкам ҳимоя воситаларига эга бўлмайди.

2. Исботлаш жараёнидаги муаммолар, далилий ашёларнинг тезда йўқотилиши. Барча саъй-ҳаракатлар асосан содир этилган чорва моллари ўғирлик ҳолатлари ҳамда ўғирланган чорва моллари ўтказиладиган ёки сақланадиган жойларни аниқлашга қаратилади. Аксарият ҳолларда чорва моллари ўғирлиги ноаниқ шароитларда содир этилиши ва бунда деярли из қолдирилмаслиги сабабли, қийинчилик айнан жинойт изларини топиш ва ушбу жинойт қилмиш содир этилишининг гувоҳлари бўлиши мумкин бўлган шахсларни аниқлаш билан боғлиқ.

3. Ўғирланган чорва молларини аниқлаш яъни, идентификациялашнинг қийинчилик туғдириши. Ҳатто юқори малакали мутахассислар, шунингдек ўз ҳайвонларини жуда яхши биладиган фуқаролар ҳам, аниқса кўп сонли чорва моллари (масалан, бир нечта қўй ёки эчки) ўғирланганида, ёхуд ўғрилар ўғирланган чорва молларининг фарқловчи белгиларини йўқ қилиш чораларини кўрганларида ўз чорва молларини таниб олишда қийналадилар.

Шу сабабли, муайян чорва молларининг кимга тегишли эканлигини аниқлаш учун идентификациялашнинг электрон усули (радиочастотали белгиси бўлган ёрликлар, боллослар, чиплар ва бошқа буюм)дан фойдаланиш талаб этилади.

Шуни ҳам инобатга олиш лозимки, белгилашда тамғалар ҳайвонларнинг қулоқ супраларига ўрнатилади, бу жинойтчиларга уларни алмаштириш имконини беради. Ўчирилмас белгилар қўйилганида жинойтчилар кўпинча ўғирланган чорва молларининг қулоғини кесиб ташлайдилар. Жинойтчилар йилқи ва қорамол белига қўйиладиган тамғалар устидан янгиларини туширадилар. Агар ўғрилар ҳайвонларни таниб олишга имкон берувчи белгиларни йўқ қилишга улгурган бўлсалар, у ҳолда сўйилиб, териси шилинган молни аниқлашнинг деярли имкони бўлмайди. Ушбу ҳолда ҳайвоннинг териси ёки калласини топиш зарур бўлади (агар уларда чорва молнинг фарқловчи белгилари бўлса, ёхуд қўйилган бўлса).

4. Ўғирланган чорва молларини сотишнинг нисбатан қийинлиги ва унинг сўйилган гўштини сотиш осонлиги. Тирик чорва молларни сотиш (ўтказиш) муайян қийинчиликлар билан боғлиқ, аммо жиноятчилар қуйидаги ҳолларда бунга қўл урадилар: ўғирланган чорва молларини тезда сотиш зарур бўлса; чорва молининг ўзи қимматбаҳо эканлиги (наследор тойлар, туялар ва бошқалар бўлгани) сабабли уни гўшти учун сўйиш фойда бермаслиги; хайвонни сўйиш фойда келтирмаганида (у ҳали ёш ёки ориқ бўлганида).

Айни вақтда шуни ҳам инобатга олиш лозимки, кўпинча харидор жиноят содир этилган жойдан узоқда бўлиб, чорва молларни сотиб олиш учун у билан аввалдан келишилган бўлади. Шунингдек, ўғирланган чорва молларни қўшни туман ва вилоятларнинг чорва моллари сотиладиган бозорларида сотиш ҳолатлари ҳам кўп учрайди. Ўғирланган чорва молини сўйиш ва гўштини сотиш орқали ўтказиш жиноятчилар учун қуйидаги бир қатор сабабларга кўра жозибалидир: гўшт маҳсулотларига барқарор талаб бўлиши; нархи (айниқса шаҳар аҳолиси учун) барқарор ва юқори бўлиши; сотиш учун жой кўплиги (бозорлар ва гўшт расталаридан ташқари, аксарият гўшт маҳсулотлари дўконлар орқали, шунингдек автомобиль йўллари бўйлаб, ёки шаҳардаги турар жой ҳовлиларининг ўзидан сотилади); ўғирланган чорва молини таниб олиш (идентификациялаш)нинг қийинлиги; кўпчилик қишлоқ аҳолиси чорва мол гўштини сотиш билан шуғулланганликлари сабабли шубҳа бўлмаслиги.

Шундай қилиб, мазкур хусусият ва шарт-шароитлар чорва моллари ўғирликларини фош этиш ва тергов қилиш тактикаси ва методикасини белгилаб беради. Мазкур ҳолатларни тўғри ҳисобга олиш чорва моллари ўғирликларини фош этишга ҳамда уларни содир этган шахсларга нисбатан тезкор-қидирув тадбирлари ва тергов ҳаракатларини самарали тарзда амалга ошириш имконини беради.

Бундан ташқари мамлакатимизда, 2023– йининг 1– июл ҳолатига кўра, йирик шохли қорамоллар бош сони тўғрисидаги маълумотларни хўжалик тоифалари бўйича таҳлил қилар эканмиз, йирик шохли қорамолларнинг 4,3% фермер хўжаликлари ҳиссасига, 95,2 % деҳқон (шахсий ёрдамчи) хўжаликларига, 0,5 % қишлоқ хўжалиги фаолиятини амалга оширувчи ташкилотларга тўғри келишини қайд этиб ўтиш лозим, шунга мос равишда қўй ва ечкиларнинг умумий сонидан 6,6 % фермер хўжаликларига, 89,3 % деҳқон (шахсий ёрдамчи) хўжаликларига, 4,1 % қишлоқ хўжалиги фаолиятини амалга оширувчи ташкилотларга тўғри келади, отлар умумий сонидан 13,5 % фермер хўжаликларига, 85,3 % деҳқон (шахсий ёрдамчи) хўжаликларига, 1,2 % қишлоқ хўжалиги фаолиятини амалга оширувчи ташкилотларга тўғри келади шунингдек, паррандалар умумий сонидан 20,7 % фермер хўжаликларига, 53,4 % деҳқон (шахсий ёрдамчи)

хўжаликларига, 25,8 % қишлоқ хўжалиги фаолиятини амалга оширувчи ташкилотларга тўғри келади.

Мамлакатимизда чорвачиликни ривожлантириш, чорва молларини касалликлардан муҳофаза қилиш ҳамда уларни даволаш, шахсий, деҳқон ва фермер хўжаликларида ветеринария-санитария ҳолати барқарорлигини таъминлаш орқали аҳолининг сифатли чорвачилик маҳсулотларига бўлган еҳтиёжини таъминлаш борасида тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

Президентимизнинг 2017-йил 1-июндаги “Давлат ветеринария хизмати бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони бу борада муҳим дастуриламал бўлмоқда. Бундан ташқари содир этилётган чорва моллари ўғирликларини фош этишда “ГЕНОМ” ахборат маълумотлар базасининг ўрни каттадир. Ушбу “ГЕНОМ” ахборат маълумотлар базаси жиноятларни иссиқ “изи совимасдан” фош этишда фойдаланиладиган илмий-техник, усул ва воситаларни модернизатсия қилиш учун хизмат килади. Хорижий тажриба ушбу турдаги жиноятчилик билан курашишда геном ахбороти маълумотлар базаси ёрдамида жиноятларни фош этиш юқори самара бераётганини кўрсатмоқда.

Мамлакатимизда геном ахборотини олиш, тўплаш, ундан фойдаланиш учун қонунчилик базаси ва механизми мавжуд эмас эди. Янги қонун эса бунга имкон беради.[8] Ушбу қонуннинг 31-моддасида “КОНУН” 2023-йил 1-январдан кучга кириши белгиланган. Геном ахборот маълумотлар базаси ёрдамида чорва моллар ўғирлиги билан боғлиқ жиноятларни очиш механизмлари жорий этилиши билан бирга мураккаб, ўта оғир ва очилмаган жиноятларни очишга имкон яратишнинг ўзига хос хусусиятлари ва қилмиш учун жазо муқаррарлиги таъминланмоқда. Оддийроқ қилиб айтадиган бўлсак, бирон-бир шахс чорва моллари билан боғлиқ жиноятларни амалга ошириш учун қанчалик пухта режа қилмасин, содир бўлган воқеа жойида ўзи ҳоҳламаган ёки билмаган ҳолда биологик материалларини қолдиради. Яъни воқеа жойида қон доғи, соч толаси, сўлаги, тер доғи ва ҳоказолар қолади. Шунингдек, ушбу қонун билан бир қатор янгиликлар ҳам киритилмоқда. Хусусан, қонунда биологик материал, геном бўйича давлат рўйхатига олиш, геномга оид ахборот ва унга ишлов бериш, геномга оид ахборотнинг ягона маълумотлар базаси, одам ДНКсининг суд-биологик экспертизаси шахснинг биологик қариндошлари каби тушунчаларига аниқлик киритилди. Бу эса эндиликда чорва моллар ўғирлиги ва бошқа турдаги жиноятларни тез ва самарали очиш имконини яратиб беради.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, чорва моллар ўғирликлари билан боғлиқ жиноятлар ҳозирги кунга қадар латент турдаги жиноятлар сирасига кириб келаётганлигини кўришимиз мумкин эди, эндиликда чорва моллари ўғирлиги

билан боғлик жиноятлани “иссик изи”дан тезкорликда очиш йўллари ишлаб чикилиб амалиётга татбиқ этилмоқда.

### Фойдаланилган Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2012-йил 25-декабрдаги “Тезкор-кидирув фаолияти тўғрисида”ги ЎРК-344-сон қонуни.
2. Ўзбек тилининг изохли луғати, “80 000 - сўз” мурожат вақти: 23.12.2023.
3. Алгазин И.И., Бражников Д.А., Сыпачев А.Ю. Особенности расследования краж сельскохозяйственных животных: Учебное пособие. - Тюмень: Тюменский юридический ин-т, 2010.- 108 с.; Бабурин В.В., Шаменов М.Д. Предупреждение скотокрадства в Кыргызской Республике // Научный вестник Омской академии МВД России. - 2013. - № 2 (49). С. 20-24.; Жусупов Б.А., Сулайманова Б.К., Калилова Г.А. Тактика первоначальных следственных действий по делам о краже скота // Наука, новые технологии и инновации. - 2015. - № 12. - С. 65- 67.; Филин Д.М. Особенности расследования краж скота: Учебное пособие. - Волгоград: Волгоградская Академия МВД РФ, 2006. - 88 с.
4. Нургалиев Б. М., Кондратьев И. В., Ташибаева А. К. Неотложные следственные действия при расследовании краж скота: уголовно-процессуально и криминалистические аспекты (памятка). — Караганда: КВШ МВД РК им. Б. Бейсенова, 2005. — 27 с.; Биржанов К.К., Ханов Т.А. Организация и особенности раскрытия и расследования краж скота: Учебное пособие Караганда: КЮИ МВД РК имени Б. Бейсенова, 2010. - 75 с.
5. Танасевич В.Г. Проблемы методики раскрытия и расследования преступлений // Советская криминалистика. Теоретические проблемы - М., 1978. - С.171.; Возгрин И.А. Научные основы криминалистической методики расследования преступлений. Курс лекций. - Сиб., 1992. С.61.
6. Пантелеев И.Ф. Методика расследования преступлений. - М., 1975. С. 9-10; Ледашев В.А. О совершенствовании структуры методики расследования отдельных видов преступлений // Методика расследования преступлений. Общие положения: Материалы научно-практической конференции (г. Одесса, ноябрь 1976 г.). - М., 1976. - С. 172.
7. Журавлев Р.А. Проблемы организации и тактики расследования преступлений в сельской местности // Проблемы предварительного следствия и дознания. - М.: ВНИИ МВД РФ, 1992. - С.83.
8. Ўзбекистон Республикасининг 2020-йил 24-ноябрдаги “Геном бўйича давлат рўйхатида олиш тўғрисида”ги ЎРК-649-сон қонуни.

## АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ЖАРАЁНИДА ҲОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ

ИЧКИ ИШЛАР ВАЗИРЛИГИ  
АКАДЕМИЯСИ КУРСАНТИ  
ТОХИРОВ ШАХЗОДЖОН БОТИРЖОН ЎҒЛИ

### АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада профилактика инспекторининг ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, уларга қарши кураш ҳамда барҳам бериш жараёнида профилактика инспектори томонидан амалга ошириладиган ишлар самарали юритиш, шу орқали профилактика инспектори томонидан ўзига бириктирилган ҳудудда содир этилаётган ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш борасида самарали алгоритм ишлаб чиқиш, ҳуқуқбузарликларга қарши курашда этибор берилиши лозим бўлган жиҳатлар тўғрисида маълумотлар, айти жараянда юзага келаётган муаммо, камчиликлар, уларга барҳам бериш юзасидан таклифлар ёритилган.

**Калит Сўзлар:** ҳуқуқбузарлик, профилактика, электрон ҳукумат, ахборот, маълумотлар, илмий-илғор техника воситалари, алгоритм, хориж тажриба,

## ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В ПРОЦЕССЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье необходимо обратить внимание на работу профилактического инспектора в процессе предупреждения, борьбы и устранения нарушений, эффективно проводить работу, выполняемую профилактическим инспектором, тем самым разработать эффективный алгоритм предупреждения нарушений, совершаемых профилактическим инспектором инспектором в закрепленной за ним области и по борьбе с нарушениями. Выделены сведения об аспектах, проблемах, возникающих в этом же процессе, недостатках, предложениях по их устранению.

**Ключевые слова:** правонарушение, профилактика, электронное правительство, информация, данные, научные и перспективные технические средства, алгоритм, зарубежный опыт,

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июндаги —Олий таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чоратадбирлари

